

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

S.R. BAXADIROVA

**PEDAGOGIKA VA
PSIXOLOGIYA ASOSLARI**

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

UO‘K: 371.132 (075)
KBK 88.8
B43

*Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi ilmiy-metodik
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash
tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

Taqrizchilar: **SH.SH. MURODOV** — Respublika dizayn
kolleji direktori;
P. SHOBARATOV — TDPU katta o‘qituvchisi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma kasb-hunar kollejarining amaliy san’at yo‘nalishi mutaxassisligida pedagogika va psixologiya fanini o‘qitish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, qo‘llanma ikki bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limda pedagogika faniga oid mavzular, ikkinchi bo‘limda psixologiya asoslari bo‘yicha ma’lumotlar berilgan. Qo‘llanmada barcha mavzular bo‘yicha axborotlar bilan birga savollar, mustaqil ishlash uchun topshiriqlar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar yuzasidan kerakli ma’lumotlar keltirilgan.

SO‘ZBOSHI

«Ta’lim-tarbiya — ong mahsuli, lekin, ayni vaqtda, ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omil. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirmasdan turib, ongni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ongni, tafakkurni o‘zgartirmasdan turib esa, biz ko‘zlagan oliy maqsad — ozod va obod jamiyatni barpo etib bo‘lmaydi»¹.

I.A. Karimov

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni (1997), «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» (1997)da davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ta’limning ustuvor deb e’lon qilinishi «Pedagogika va psixologiya» fani zimmasiga juda katta mas’uliyatli, ulug‘vor vazifalarni yukladi. Hozirgi zamon fanida, ijtimoiy hayot sohalarida ajoyib kashfiyotlar, murakkab jarayonlar, universal texnologiyalar bilan bog‘liq umumbashariy jarayonlar yuz bermoqda.

«O‘zbekiston innovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o‘tish uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlarini, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko‘paytirishga asoslanadi. Bu mamlakatimiz jahondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi»², deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov. Yuqorida tilga olingan shunday jarayonlarni, yangiliklarni tahlil qilishda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy, ma’naviy, madaniy, diniy merosimizni avaylab, bilim va ko‘nikmalarini yosh avlodga taqdim etishda, yangicha mantiqiy fikrlash malakasini shakllantirishda pedagogikaning ahamiyati salmoqlidir. Ijtimoiy voqea-hodisalarni, hayotda sodir

¹Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. — T.: «Sharq». 1999. — 40-bet.

²O‘sha manba. 83-bet.

bo'layotgan yangiliklarni tushunib olish va uni himoya qilish uchun esa zamonaviy fan bilan tanishish zarur.

Ma'lumki, har bir mustaqil fan o'zining predmeti va metodologik asoslariga ega. Pedagogika va psixologiya ham boshqa fanlar kabi, avvalo, jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida vujudga keldi. Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash lozim, chunki ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib, jamiyatni, uning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin. Hozirgi kunda pedagogika va psixologiya fani ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari, usullari, davlat ta'lim standartlarini tashkil etish shakllari, umuman, uning qonuniyatlari haqida bilim, ma'lumot beradigan fanga aylandi. «Pedagogika va psixologiya» fani o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalarida 40 soat o'tiladi. Ularning 20 soati pedagogika va 20 soati psixologiya fani asoslari hisoblanadi.

Ushbu o'quv qo'llanma yangi andoza talablari bo'yicha tuzildi. Unda pedagogika, psixologiyaga oid mavzular qamrab olingan.

Har bir mavzudan keyin takrorlash va munozara uchun savollar berilib, oxirida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, mavzuga oid muammoli vaziyatlar, ularning yechimlari, mustaqil ishlash uchun topshiriqlar, tavsiyalar, psixologik testlar, mashqlar keltirilgan. Pedagogik, psixologik vaziyatli masalalar o'quvchilarning ma'ruzalarda egallagan nazariy bilimlarini to'la-to'kis idrok qilishi, jamlangan malaka va ko'nikmalarni hayotda qo'llay olish imkoniyatiga ega bo'lishiga qaratilgan.

Muallif qo'llanmaning tuzilishi, mazmuni, muammolarning bayon qilinishi tartibi va uslubi bo'yicha bildirilgan har qanday taklif- mulohazalarni minnatdorchilik bilan qabul qiladi va keyingi o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda hisobga oladi.

I bo‘lim. PEDAGOGIKA

1.1. Pedagogikaning predmeti, maqsad va vazifalari

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jamiyatda sodir bo‘layotgan demokratik o‘zgarishlar yangi jamiyat barpo etish yo‘lidan dadil yetaklovchi, harakatlantiruvchi ichki kuchga aylanmoqda. Ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirmasdan turib, odamlar ongini, demakki, ularning turmush tarzini ham o‘zgartirish mumkin emas.

XXI asrda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql-zakovati va ma’naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlan-tiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo‘lmoqda. Shu-ning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosida huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurilishining bosh tamoyili sifatida maydonga chiqdi. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunida ta’lim davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e’lon qilinishi pedagogika fani zim-masiga juda katta mas’uliyatli ulug‘vor vazifalarni yukladi. Juda boy ilmiy, ma’naviy, madaniy, diniy merosimiz qayta tiklana boshlandi.

Har bir mustaqil fan o‘zining predmeti va metodologik asos-lariga egadir. Boshqa fanlar kabi pedagogika ham fan sifatida paydo bo‘lar ekan, u, avvalo, jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida vujudga keldi. Shu sababli tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash lozim. Chunki tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib, jamiyatni, uning rivojlanishini ta-savvur qilish qiyin.

Pedagogika atamasi qadimiy bo‘lib, «bola yetaklovchi» degan ma’noni bildiruvchi grekcha «paydogogos» so‘zidan kelib chiq-qan. Tarixiy manbalarda ko‘rsatilishicha, Qadimgi Yunonistonda o‘z xo‘jayinlarining bolalarini sayr qildirgan, ehtiyot qilgan tarbiya-chini «pedagog» («bola yetaklovchi») deb atashgan. Keyinchalik

esa, bu tushuncha keng ma'noda ishlatilib, maxsus bilimlarni egallagan mutaxassislariga nisbatan qo'llanila boshlandi. Shu bilan birga, ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanuvchilar kasb-hunar homiylari sifatida ajralib chiqqan boshladilar. Ularning ta'lim-tarbiya borasidagi faoliyatlari va to'plagan tajribalaridan o'rinli foydalanishlari pedagogika fani vujudga kelishiga olib keldi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, madaniy-ma'naviy va ilmiy hayotimizda ko'plab yangiliklar, umumbashariy jarayonlar bilan bog'liq ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Eng muhimi, inson va fuqaroning fikrlash va dunyoqarashi o'zgarimoqda, siyosiy va ijtimoiy ongi, uning umumiy saviyasi to'xtovsiz o'sib bormoqda. Yangi avlod, yangi tafakkur sohiblari dunyoga kelmoqda.

Pedagogika nafaqat o'zining o'rganuvchi predmeti, balki tarixiy rivojlanishi bilan ham o'ziga xos fandır.

«Avesto» ta'limoti, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810—970), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824—892) kabi hadis ilmining ulug'lari ta'lim-tarbiya jarayoniga ulkan hissa qo'shib, pedagogikaning shakllanishiga zamin yaratdilar. Ularning pedagogik qarashlari tarixning zarhal sahifalaridan munosib o'rin egalladi. Ilk o'rta asrlarda Abu Nasr Forobiy (789—950), Abu Ali ibn Sino (980—1037), Abu Rayhon Beruniy (937—1051) kabi allomalar ta'lim-tarbiyaga oid dunyoviy fikrlari bilan dovrug' qozondilar. O'zbek adabiy tilining asoschisi, buyuk davlat arbobi Mir Alisher Navoiy o'zining tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan noyob asarlari, ilmiy tafakkur va falakiyot ilmi sohasida yetuk dunyoqarash sohibi Mirzo Ulug'bek ma'rifiy qarashlari, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa adiblar o'zlarining o'lmas ijodlari bilan pedagogika fani taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shdilar.


Bugungi kunga qadar pedagogika sohasida yangi-yangi ta'limotlar, g'oyalar kashf qilindi, yuzlab risolalar, asarlar yaratildi, bu sohaga oid eng yuqori cho'qqi zabt etildi, ammo tarbiya jarayonidagi insonni chuqur o'ygacha cho'mdiradigan muammolar hanuzgacha o'z yechimini to'laqonli topganicha yo'q.

Pedagogikaning metodologik asosi yosh avlodni tarbiyalash an'analarini, jamiyatning taraqqiyot bosqichlaridagi o'qitish va kamol toptirish tizimlarini, ularning qonun-qoidalarini, qomusiy mutafakkirlar, ma'rifatparvar adiblar va pedagoglarning ta'lim-

tarbiya, ma'rifatga doir g'oyalarni va ularning rivojlanishini mukammal o'rganadigan fandır.

Zamonaviy pedagogika ijtimoiy hayot jabhalarida faoliyat ko'rsatayotgan shaxslarni bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh bera oladigan, yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, komil inson etib tarbiyalashdek muhim masalalarni hal qilishi lozim.

Pedagogika insonshunoslik fani bo'lib, jamiyat va shaxs munosabatlarini tizimlashtiradigan tarbiya va ta'lim muammolarini o'rganadi. Pedagogika fan sifatida shakllanib, takomillashib borib, ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, usullari hamda tashkil etish shakllari haqidagi fanga aylandi. Pedagogika fanining predmeti quydagilardan iborat (1-chizma).



1-chizma.

Har bir fanning mazmun va mohiyatidan kelib chiqadigan, uning asosiy tomonlarini yoritishga xizmat qiladigan va eng ko'p ishlatiladigan asosiy tushunchalari bo'ladi. Kategoriya — (yunoncha: kategoria — «ko'rsatma», «dalil», «tushuncha») pedagogikada pedagogik jarayonlar xususiyatlarini, mohiyat-mazmunini, shaxs va jamiyat, shaxs va guruh, shaxs va jamoa o'rtasidagi, ta'lim-tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik va h.k. munosabatlarni aks ettiruvchi asosiy tushunchadir. Kategoriya bilish jarayonlarining tarixiy rivojlanishi va jamiyat tajribasi asosida paydo bo'ldi. Kategoriyalar orqali inson borliqni va tevarak-atrofni, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni o'rganadi.

Pedagogikaning yana bir muhim tushunchalaridan biri «Didaktika» soʻzidir. Qadimgi Yunonistonda quldorning bolasiga maktabda taʼlim beruvchi kishini «Didaskal» deb atashgan. «Didaktika» — yunoncha «didaktikos» soʻzidan olingan boʻlib, «oʻqitish», «oʻrgatish», «bilim berish» maʼnolarini anglatadi.

Hozir bu tushunchalarning hajmi va mazmuni ancha boyigan va kengaygan boʻlib, u faqat oʻqituvchining faoliyatini emas, shu bilan birga oʻquvchining faoliyatini ham oʻz ichiga qamrab olgan.

Pedagogikaning asosiy kategoriyalari taʼlim, tarbiya, maʼlumot, rivojlanish, pedagogik faoliyat, pedagogik jarayon, bilish, taʼlim-tarbiya metodlari, prinsiplari va boshqalardan iborat. Ularni pedagogik tushunchalar deb ataymiz.

Tarbiya — bu tarbiyachi oʻzi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun ularning ruhiyatiga maʼlum maqsadga koʻra tizimli taʼsir koʻrsatishi hisoblanadi.

Jahon pedagogikasida «tarbiya» atamasi keng qamrovli tushuncha sifatida baholanganligi tufayli, uning mohiyati xususida turli nazariyalar mavjud. Tarbiyani kattalar (oʻqituvchilar, murabbiylar va ota-onalar)ning bolalarga taʼsir koʻrsatish jarayoni sifatida tushunish eng koʻp tarqalgan tendensiyadir. Bu oʻrinda kattalar toʻgʻri deb hisoblaydigan, baholaydigan ideallar, maqsadlar, vazifalar, normalar va talablarga muvofiq tarzda taʼsir koʻrsatish koʻzda tutiladi, albatta. Tarbiyani bunday tushunish haqiqatga yaqinroq, biroq u bir tomonlama xususiyatga ega boʻlib, mazkur jarayonning faqat muayyan qismini aks ettiradi, xolos. Tarbiyaga bunday taʼrif berishda bolaga kattalarning taʼsiri yoʻnaltirilgan obyekt sifatidagina qaraladi. Pedagogika ham tashabbuskor va mustaqil shaxslarni tarbiyalashni nazarda tutadigan boʻlsa, tarbiyalanuvchi pedagogik jarayonda faol harakat qiluvchi subyekt rolini beradi.

Shaxsning oʻzi, oʻz xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeyini tasavvur qilish orqali hosil boʻlgan obraz — «Men» obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi insonning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini belgilaydi va barkamollik mezonlari boʻlib hisoblanadi. «Men» — obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va uning tarbiyalanganlik darajasi omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, tarbiya shaxsning oʻzi va oʻz sifatlari toʻgrisidagi tasavvurlarining shakllanish jarayonidir. Demak, har bir inson oʻzini, oʻzligini qanchalik aniq va toʻgʻri anglasa, tasavvur

qilsa, unda jamiyatning axloq normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kamayadi. Shunday ekan, bugungi kunda pedagogik nazariya va amaliyot muammolarini tadqiq qilish va yechimini topishda korreksiya(to'g'irlash) muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim — maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilim qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayon.

Ma'lumot — ta'lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuyi.

Pedagogik faoliyat — estetik, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy maqsadlarga muvofiq ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aq-lan o'ylab ko'rilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo'lgan mehnatining o'ziga xos turi.


Pedagogik jarayon — ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan hamda tarbiyachining yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli natijasida bolaning o'z-o'zini taraqqiy ettirishi.

Har qanday fan ham yakka holda o'zi mukammallikka erisha olmaydi. U boshqa fanlar bilan aloqada, yutuqlaridan foydalangan holda mazmunan boyib boradi.

Xuddi shuningdek, pedagogika fani ham hozirgi kunimizda umumbashariyat tomonidan yaratilgan bilimlar va kelajak haqidagi ma'lumotlarga tayanadi. U tabiat va jamiyat rivojlanishi qoidalari to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanadi, o'zi ham ijtimoiy fan sifatida rivojlanib, insonning ijtimoiy kamolotiga xizmat qiladi. U falsafa, tarix, iqtisod, psixologiya va sotsiologiya, etika va estetika, biologiya va madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik va boshqa fanlar bilan uzviy aloqadadir.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi va pedagogika fanlari tizimi

Har bir yurtning fuqarosi bo'lmish o'qituvchi-tarbiyachi va o'quvchi-yoshlar o'z ona yurti tarixini bilishlari, vatanparvar bo'lishlari lozim. Ta'lim-tarbiya tarixi, pedagogika tarixi fanidan xabardor bo'lmay turib, o'qituvchilik qilish mumkin emas.



O'qituvchi o'quvchilarga bilim berish, ma'lumotli qilish, tarbiyalash maqsadida unga tizimli ta'sir ko'rsatadi. Bunda psixologiya va ijtimoiy omillarga asoslanadi. Ya'ni, ta'sirning samarasini bilish uchun o'quvchining sezgi, idrok, tasavvur, diqqat va tafakkur, fikrlash jarayonining qanday kechayotganini bilishga asoslanib ta'sir ko'rsatish rejasini belgilaydi. Ayniqsa, yosh davrlari psixologiyasini o'qituvchi chuqur bilishi talab etiladi. Buni yaxshi bilgan o'qituvchi esa har bir bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bolaga yondashadi va unga samarali ta'sir ko'rsata oladi. Ma'lum ma'noda o'qituvchilarga xizmat qiladigan psixologiya turkumidagi fanlarni ham pedagogika fanlari tizimiga kiritish mumkin. Falsafa pedagogika fani uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Falsafa pedagogikani ilmiy uslublar bilan qurollantiradi, ta'lim va tarbiyaning obyektiv qonun-qoidalarini ishlab chiqishga manba bo'ladi. Etika va estetika fanlari pedagogikaning tarbiya nazariyasi bo'limi bo'yicha ma'lumot beradi. Bu fan

o'quvchining xulqi, odobi me'yorlarini aniqlash, belgilash hamda go'zallikni chin ma'noda tushuntirish, o'quvchi ongida hayotning jozibali, nafis qirralariga bevosita rag'bat uyg'otish borasida pedagogika fani bilan aloqadadir. Fanlarni o'qitish yo'llari didaktikaga aloqador, chunki har qanday fanning o'qitilish usuli shu fanning mazmuni, tizimini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olinishiga xizmat qiladi. Demak, pedagogika fani bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi, bolalar gigiyenasi va pediatriya kabi fanlar bilan ham mustahkam aloqada, bu fanlar bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Turli sohada bilim oluvchi o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashning nazariy hamda amaliy tomonlarini pedagogika fani tarmoqlari yoritib beradi.

Zamonaviy pedagogika ijtimoiy hayot jabhalarida faoliyat ko'rsatayotgan shaxslarni bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh beradigan, yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, komil inson etib tarbiyalashdek muhim masalalarni hal qilishi lozim.

Yoshlarimizda bolalikdan boshlab sog'lom e'tiqod va yuksak dunyoqarashni shakllantira olsak, ular ma'naviyati boy, mustaqil fikrli va oliyjanob shaxslar bo'lib ulg'ayadi. Mafkuraviy dunyoqarash va milliy g'oyalar shunday e'tiqod asosida shakllanadi. Milliy istiqloq g'oyasini yoshlar ongi va qalbiga singdirishda milliy urf-odat va an'analarimizning, oila va mahallalarning, ayniqsa, ta'lim-tarbiya beruvchi muassasalarning o'rni juda salmoqli bo'lib, bu ham pedagogika fani oldiga ulug'vor vazifalarni qo'yadi. Qanday usullar, vositalar va yo'llar bilan ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish lozimligini pedagogika belgilab beradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Pedagogika fanining maqsadi, vazifalari nimalardan iborat?
2. Pedagogika fani rivojiga hissa qo'shgan buyuk mutafakkir va pedagog olimlarni aytib bering.
3. Pedagogikaning rivojlanib va boyib borishiga ta'sir ko'rsatuvchi fanlarni aytib bering.
4. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari qanday?
5. Hozirgi kunda jamiyat rivojida pedagogikaning o'rni qanday?
6. Pedagogika faning maqsadi, vazifasi, kategoriyalari, predmetlararo bog'liqligi bo'yicha tarmoqlash metodikasi yoki «Nima uchun?» metodikasi bo'yicha ishlab chiqing.

1.2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rni

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatida milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shaxs bilan jamiyat o'rtasida uyg'unlikni vujudga keltirish, ehtiyojlarning xususiylikdan umumiylikka o'tishining qondirishi har jihatdan voyaga yetayotgan yoshlarning qobiliyatlari, iste'dodlari, ichki imkoniyatlari, o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etishni, shuningdek, rivojlantirishni talab etadi. Yosh avlodning shaxs va subyekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasini aniqlamasdan turib, o'rta maxsus va oliy ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish mumkin emas. Jamiyatning infrastrukturnalarida, guruhiy shaxslararo munosabatlarda demokratiya prinsiplarining qaror topishi, fuqarolar o'rtasida teng huquqlilik, subyektlilik, hamkorlik, hamdardlik (empatiya) mezonlari turmush tarziga aylana boshlashi kishilik dunyosining jahonshumul ijtimoiy-tarixiy g'alabasining yorqin ifodasidir. Hozirgi davrda shaxsning robotlashuviga chek qo'yilishi, o'zining mustaqil inson (subyekt) tarzida namoyon bo'lishi uchun moddiy-ma'naviy negiz barpo etilishi, shaxsiy dunyoqarash (ham ilmiy, ham diniy), barqaror e'tiqod, mustahkam pozitsiya, qat'iy iroda, o'tkir va bukilmaz g'oyani egallashga imkon yaratdi. Ana shunday umumbashariy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy voqelik, hodisa, ijtimoiy tasavvur va ehtiyoj mamlakatimizda shaxsni markaziy figura sifatida tan olinishi va rivojlantirishning harakatlantiruvchisi tarzida baholanishi pedagogik bilimlarning zaruratga aylanganligini anglatadi.

Insonshunoslik fanida inson-jamiyat, jamiyat-inson shaklida o'zaro ta'sirni taqozo etar ekan, birinchi va ikkinchisi ham to'g'ri, ham teskari aloqani o'rnatishi joiz. Abdulla Avloniy o'z davrida bashorat qilganini esga olsak. Agar pedagogika insonni har tomonlama tarbiyalashni xohlar ekan, unda insonni har tomonlama o'rganishi zarur. Ta'lim-tarbiya jarayonida barkamol insonni shakllantirish lozim, uning natijasi orqali mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, kuchli irodali, ishchan, g'oyaviy e'tiqodli, ma'naviyati yuksak, pok vijdonli shaxsni kamol toptirish joiz. Chunki «subyekt-subyekt» munosabatni amalda qaror toptirmasdan turib, tarbiyalanganlik darajasini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lmaymiz. Bu o'rinda pedagogika katta ahamiyat kasb etadi,

jamiyatning barkamol shaxsni yetishtirishdek maqsadiga mos kelishi ayni muddaodir.

Inson har qanday orzu istaklarga erishishi uchun bitta yo‘l bor — bu maqsad. Aql-zakovatli, yuksak ma‘naviyatli kishilarni tarbiyalay olsak, oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda tinchlik, farovonlik va taraqqiyot qaror topadi. Ta‘lim va maorifni yuksaltirish, milliy g‘oyani ro‘yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Bu ulug‘vor vazifalarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi IX sessiyasida qonuniy zamin bo‘lgan «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilinishiga bir qator omillar sabab bo‘ldi: birinchidan, biz yashayotgan muhitda ijtimoiy tuzum o‘zgarishi bo‘lsa, ikkinchidan, ijtimoiy ishlab chiqarish va mulkka bo‘lgan munosabat o‘zgardi, uchinchidan, eski mafkuraviy qarashlar yangi sharoitga javob bermay qo‘ydi, to‘rtinchidan, ta‘lim muassasalarida olib borilayotgan tadbirlar jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilinishni, talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlar his-tuyg‘ularini singdirib, ularni har tomonlama barkamol, chuqur bilimga ega mutaxassis etib tayyorlashni taqozo etdi.

Ma‘lumki, «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonun 5 ta bo‘lim 34 moddadan iborat. Ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarida ta‘lim O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e‘lon qilinadi, demak ta‘lim-tarbiya ishlari davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biridir. Ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari:

- ta‘lim va tarbiyaning insonparvar demokratik xarakterda ekanligi;
- ta‘limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o‘rta, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limining majburiyiligi;
- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining yo‘nalishini tanlashning ixtiyoriyiligi;
- ta‘lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta‘lim standartlari doirasida ta‘lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta‘lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondoshuv;

- bilimli bo‘lish va iste’dodni rag‘batlantirish;
- ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirish.

Ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko‘zlangan maqsad barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdir.

Eng avvalo, ta’lim tizimiga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirish kerak. Ta’lim islohoti demokratik o‘zgarishlar, yangi jamiyat barpo etish yo‘lidan dadil yetaklovchi, barchani harakatlantiruvchi ichki kuch bo‘lmog‘i zarur. Shu jumladan, ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirmasdan turib, odamlar ongini, demakki, ularning turmush tarzini ham o‘zgartirish mumkin emas.

Yurtboshimiz ta’lim-tarbiya islohoti zarurligi va muhimligi haqida o‘zining qator nutqlarida to‘xtalib o‘tadi. 1997-yil 29-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasidagi nutqida aytilishicha, birinchidan, shu vaqtgacha amalga oshirilgan tadbirlar talabga javob bermayotganligini, eski sho‘rolar zamonidan qolgan ta’lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan to‘liq qutula olmaganligimiz, ikkinchidan, o‘zgarishlar yuzaki bo‘lib, ta’lim-tarbiya va o‘quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog‘lash, ya’ni uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolarini yechib bermaganligi, uchinchidan, amaldagi ta’lim-tarbiya tizimimiz bugungi zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmasligi kabilar ham bu islohotning zarurligini ko‘rsatdi. Shu munosabat bilan Yurtboshimiz «Barkamol avlod — O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori» mavzusida so‘zlangan nutqida ta’lim-tarbiya tizimida islohotlar o‘tkazish zarurati va omillarini asoslab berdi. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun maqsadi fuqarolarga ta’lim, tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini belgilash hamda har kimning bilim olish mumkinligi kabi konstitutsiyaviy huquqini ta’minlashdan iboratdir. Qonunning birinchi bo‘limi «Umumiy qoidalar» deb nomlanadi. Unda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari, bilim olish, pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqlari, ta’lim muassasasining huquqiy maqomi, Davlat ta’lim standartlari, ta’lim berish tili kabi masalalar o‘z ifodasini topgan. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning ikkinchi bo‘limida ta’lim tizimi va turlari mohiyati yoritilgan.

Respublikamizdagi ta’lim tizimi: Davlat ta’lim standartlariga muvofiq ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini; ta’lim tizimining rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassa-

salarni; ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasa va tashkilotlarni qamrab oladi.


Mazkur qonunning 10-moddasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshirilishi ko'rsatiladi. Qonunning ikkinchi bo'lim, o'n birinchidan o'n yettinchi moddasigacha har bir ta'lim turining mohiyati qisqacha yoritib beriladi. Unda ta'kidlanganidek, maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Maktabgacha ta'lim bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalari muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Umumiy o'rta ta'lim majburiy bo'lib, u quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: boshlang'ich ta'lim (I—IV-sinflar); umumiy o'rta ta'lim (I—IX-sinflar). Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi. Umumiy o'rta ta'lim tugallanganidan keyin ta'lim fanlari va ular bo'yicha olingan baholar ko'rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi. Qonunda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qish yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega ekanligi ta'kidlanadi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ko'nikmalarni o'qishni muayyan oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro'yobga chiqarishlari mumkin. Kasb-hunar kolleji tegishli Davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi; o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi. Oliy ta'lim ikki bosqichda yuqori malakali mutaxassis tayyorlaydi: bakalavriyat va magistratura.

Qonunning uchinchi bo‘limi ta‘lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ta‘lim oluvchilarni va ta‘lim muassasasi xodimlarini ijtimoiy himoya qilish, yetim hamda jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish masalalari qonuniy ifodasini topgan.

To‘rtinchi bo‘limda ta‘lim tizimini boshqarishdagi Vazirlar Mahkamasining ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlarining va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari ko‘rsatilgan bo‘lsa, beshinchi bo‘limda yakuniy qoidalar ifodalab berilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi besh bo‘limdan iborat bo‘lib, unda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish omillari, dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro‘yobga chiqarish bosqichlari, kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, dasturni ro‘yobga chiqarishga oid chora-tadbirlar belgilab berilgan. Dasturning uchinchi bo‘limida kadrlar tayyorlashning milliy modeli mohiyati yoritilgan. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari mavjud.



Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uzluksiz ta‘lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs—fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Uzluksiz ta‘lim malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta‘limning barcha turlarini o‘z ichiga oladi. Uzluksiz ta‘lim tizimi inson va jamiyatning turli xil ta‘lim ehtiyojlarini qondirishi, bilimlarning qadr-qimmatini va mavqeyini ko‘tarish uchun keng imkoniyatlar yaratib berishi, shuningdek, iqtisodiyotning o‘zgaruvchan ehtiyojlari sharoitida umumta‘limiy, umummadaniy, kasbiy va ilmiy asosda mutaxassislar tayyorlash yo‘li bilan fundamental bilimlar berib, shaxsni ijtimoiy himoya qilishni ta‘minlashi kerak.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish bosqichlari:

Birinchi bosqich — 1997—2001-yillarni o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, unda mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish ko‘zda tutilgan edi. Bu bosqichda ta‘lim qonuni asosida ta‘lim tizimi va mazmuni qayta ko‘rildi, umumiy o‘rta va oliy ta‘lim uchun Davlat ta‘lim standartlari yaratildi, ta‘lim jarayoni didaktik va axborot ta‘minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish boshlandi, o‘rta maxsus ta‘lim uchun zarur moddiy-texnik, o‘quv-uslubiy va kadrlar bazasi tayyorlandi, ta‘lim muassasalari faoliyatiga baho berishning reyting tizimi joriy etila boshlandi.

Ikkinchi bosqich — 2001—2005-yillarni o‘z ichiga qamrab olgan edi, unda milliy dasturni to‘liq ro‘yobga chiqarish, mehnat bozorini rivojlantirish va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish nazarda tutilgan edi. Bu bosqich «sifat bosqichi» deb nomlanib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish muhim deb belgilangan edi:

— majburiy umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limiga, shuningdek, o‘quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta‘limga o‘tishni to‘liq amalga oshirish;

— ta‘lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to‘ldirish, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltirish;

— ta‘lim muassasalarining moddiy-texnik va axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o‘quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta‘minlash, uzluksiz ta‘lim tizimini axborotlashtirishni amalga oshirish.

Bu bosqichda ta‘lim xizmati ko‘rsatish bozorini shakllantirish mexanizmlari to‘liq ishga solinishi lozimligi bilan belgilandi. Ikkinchi sifat bosqichida belgilangan vazifalar imkoniyat darajasida bajarilib, hayotga tatbiq etib kelindi.

Uchinchi bosqich — 2005-yil va undan keyingi yillarni o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, unda to‘plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

Bugungi kunda o‘qituvchiga qo‘yilayotgan muhim talablardan biri, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan tanishish, amalda qo‘l-

lash va shular orqali bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdan iboratdir. XXI asrda o'qituvchidan keng bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlik talab etiladi. Kadrlar tayyorlash milliy modelida o'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rniga obyektiv baho berilgan bo'lishiga qaramasdan, ta'lim-tarbiya jarayonida qanday insonni shakllantirish lozim, ta'lim-tarbiya natijasida inson qanday bo'lishi kerak, degan savollarga muntazam javob izlash zaruriyati mavjudligicha qoladi va asrlar osha mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan «komil inson tarbiyasi» g'oyalari hamohang ravishda rivojlantiriladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qachon qabul qilingan?
2. Umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligini izohlang.
3. Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyatini aytib bering.
4. Kadrlar tayyorlash milliy modeli bosqichlarini tushuntirib bering.
5. O'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rni qanday?
6. Bugungi kunda o'qituvchiga qo'yilayotgan qanday talablar bor?

«Interfaol uslublardan biri «B-B-B chizma»dan foydalanib «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga oid fikrlaringizni jamlang.

B-B-B chizmasi (Bilamiz. Bilishni xohlayman. Bildik)

<i>Taxminan nimani bilamiz?</i>	<i>Nimani bilishni xohlaymiz?</i>	<i>Nimani bildik?</i>

1.3. Milliy istiqlol g'oyasi, milliy mafkuraning pedagogik asoslari. Mutaxassislikka kirish

Milliy g'oyaning ma'nosi va pedagogik mohiyati. Milliy istiqlol mafkurasi ko'p millatli xalqning ezgu g'oya — ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-intilishlari, milliy ideallarini o'zida aks ettiradi. Mafkura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning shon-u shuhrati, or-nomusi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot

yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda, muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidir. Insoniyat tarixi g'oyalar tarixi.

G'oya — inson tafakkuri mahsuli, milliy g'oya esa millat tafakkurining mahsuli.

Milliy g'oya — inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan, uni maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuyidir.

Mafkura — muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalar tizimi.

Toki hayot mavjud ekan, mamlakatlar, davlatlar va ularning manfaatlari bor ekan ular o'z taraqqiyot yo'lini, ertangi kun ufqlarini o'zining milliy g'oyasi, milliy mafkurasi orqali belgilab olishga intiladi.

Ma'naviyat — arab tilidagi «ma'no» yoki «ma'naviyatun», «ma'no va g'oya» so'zlaridan olingan bo'lib, «ruhiy holat» degan ma'noni anglatadi.

Milliy mafkura — xalqimizning ma'naviy-ilmiiy mentaliteti, g'oyalari asosidagi amalga oshirilayotgan ishlar, jarayonlardagi tutayotgan yo'li, davlatga, jamiyatga, olamga, o'z-o'ziga, taraqqiyotga munosabatlar tizimidan iborat.

Biz g'oya haqida gapirganimizda uning tarixiy shakllari, tur-lariga ham to'xtab o'tishimiz lozim. Tarixda buzg'unchilik va bunyodkorlik g'oyalari haqida dalillar ko'p. Xo'sh, bunyodkorlik va buzg'unchilik g'oyalariga nimalarni kiritish mumkin? Ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni qanday? Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda ikki kuch — bunyodkorlik va buzg'unchilik g'oyalari hamisha kurashadi. Bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek oliyjanob maqsadlari bilan ajralib turadi. Uning sifatlari quydagilardan iborat: odamlar ongiga adolat, haqiqat, ezgulik, odamiylik, mehnatsevarlik g'oyalarini sepadi; razolat, urush, janjal, ma'rifatsizlikni qoralaydi; madaniyat-ma'naviyat rivojini ko'zda tutadi; inson manfaatlari ulug'lanadi; bunyodkorlik, yaratuvchilik, mamlakat obodligi targ'ib etiladi; xalqaro hamkorlik, mintaqaviy tinchlik, millatlararo totuvlikka chaqiriladi.

Buzg'unchilik g'oyalarining sifatlari quydagilardan iborat: taraqqiyot g'ildiragini orqaga buradi; zulm, zo'rlik, kulfat urug'larini sochadi; millatlar va xalqlarning turmush tarzi, madaniyati, an'ana va urf-odatlarini kuch bilan o'zgartirishga, keng xalq ommasini boshqalarning siyosiy irodasiga bo'ysundirish va mafkuraviy asoratga

solishga intiladi; xalqlarni o‘z yo‘lini o‘zi tanlash huquqidan mahrum etadi; kishilar ongini nayrang va aldovlar vositasida yolg‘on ideallar bilan zaharlaydi; irqiy ayirmachilik, fitna, zo‘ravonlik, terrorni targ‘ib etadi.

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g‘oyasi — ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish. Uning asosiy g‘oyalari: vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq faravonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik.

Insonning o‘zligini anglashi uning nodir va betakrorligini anglashdan boshlanadi. Insonning nodir va betakrorligini anglash, birinchidan, uning o‘ziga yashiringan imkoniyatlarni royobga chiqarish uchun asos bo‘lib, istakni shakllantirsa, ikkinchidan, unda boshqalarning ham betakror ulug‘ siymoligini anglash orqali o‘zgalarni hurmat qilishni, ulug‘lashni keltirib chiqaradi. Uchinchidan, boshqalarning ham nodir, betakrorligiga ishonish, ularni hurmatlash, qalbini g‘arazdan poklaydi. To‘rtinchidan esa, har bir kishining betakrorligini anglash asosida kishilarda boshqalar bilan muomala va munosabatning moddiy, ilmiy, ma‘naviy-madaniy manfaat kasb etishi insoniyat ijtimoiyligiga tabiiy zarurat tug‘iladi.

Shu yuqoridagi sifatlarning shakllana borishi komillik sifatlarning asoslariga bog‘liq. Komillik sifatlarini to‘laqonli shakllantirish uchun esa faqat nasihatlar, da‘vatlar yetarli emas. Insonning ma‘naviy faolligi amaliy-kasbiy faolligi bilan uyg‘unlashganda barkamollik sifatlari tabiiy shakllanadi, rivojlanadi. Aynan ana shu yuqoridagi tushunchalarni to‘g‘ri anglash ta‘lim-tarbiyaning metodologik asoslarini to‘g‘ri tanlashga yordam beradi. Chunki ta‘limning subyektivlik, demokratik, huquqiy, insonparvarlik asoslari insonlarning nodir va betakrorliklarini ro‘yobga chiqarishdir. Insonlarning nodir va betakrorligini dunyoviy, diniy ilmlar uyg‘unligida tushuntirib berish mumkin. Har bir kishi azaliy yaxshi taqdir, ezgu niyatlar, ma‘lum o‘ziga xos ulug‘ maqsad va vazifalar bilan yaratilgan. Ammo inson asli yaratilishda ozod va erkindir.

Inson juda murakkab va mukammal tuzilishga ega, masalan, uning burnini olsak, bir nechta funksiyalarni nafas orqali bajaradi, lekin qanday qilib hidlarni ajratadi, bu hozirgacha hech kim aniqlamagan mo‘jizadir. Bolani tug‘ilganida toza bo‘lishga ehtiyoji bo‘lar ekan, u tagi ifloslansa yig‘laydi. Bolaga yoshligidan Vatanga muhabbat, mehr-oqibat, halollik, milliy g‘urur, poklik,

insonparvarlik, mas'uliyat, burch, milliy qadriyatlar, imon, mustaqillik, or-nomus, umuman olganda, bunyodkorlik go'yalarini singdirsak, komil inson bo'lib kamolga yetadi.

Ma'naviy insoniy tuyg'ulardan biri — vijdon. Vijdon kishining ongi, ong osti va qalbi mutanosibligini amalga oshiruvchi sifat. Agar vijdonni sodda qilib tushuntirish lozim bo'lsa, vijdon — insonning qalb amri bilan bajargan ishlarining (faoliyatini) ruhiy mezoni. Vijdon odamning qayerida joylashganini hech kim bilmaydi, lekin u bajargan ishiga qarab biz vijdoni bor, vijdonsiz, vijdoni qabul qilmadi, degan iborani ishlatamiz.

Ba'zan moddiy ehtiyojlar tufayli vatanini sotgan, xalqiga xiyonat qilgan insonlarni ko'rib nima deymiz...

Kishi hayotidagi qilgan ishlari bo'yicha vaqti-vaqti bilan o'z vijdoni oldida hisob berib turadi. Bu muloqot haq muloqot bo'lishi lozim. Ayrim vaqtda nohaq ishni haq deb isbotlash o'z vijdonini, o'zini aldash bilan tengdir. Bunda ong osti (haqiqat) ishga tushib, kishining ongli va ong osti orasida nomutanosiblik boshlanib, kishini ruhiy xastalikka olib keladi. Ruhiy xastalik esa jismoniy xastalikka, ayrim hollarda, boshqa ko'ngilsiz voqealarga olib kelishi mumkin.

Mustaqillik sharofati bilan xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi, siyosiy madaniyati o'sib bormoqda. Agar milliy ongimiz to'xtovsiz yuksala bormasa, mustaqilligimizning ma'naviy zamini mustahkam bo'lmaydi. Xalqimizning, jumladan, yoshlarimizning milliy jihatdan o'z-o'zini anglashiga, ularda milliy iftixor tuyg'usi shakllanishiga erishishimiz lozim. Milliy ong va o'zligini anglash u yoki bu millatga mansubligini his qilish, uning tarixi, madaniyati, urf-odat va an'analarini chuqur bilish bilangina chegaralanmaydi. Milliy o'z-o'zini anglash millatning hozirgi ahvoli, uning oldida yechimini kutayotgan muammolarni bilish va ularni hal qilishda faol harakat qilishni talab etadi.

Mana shu faoliyatda ishtirok etishda har bir kishining o'ziga xos uquvi, qobiliyati, xarakteri, uning nodirligi va betakrorligi namoyon bo'ladi. Demak, inson nodirligi va betakrorligining, uning yutuq va muvaffaqiyatlarining birinchi garovi o'z uquvi, qobiliyati va qiziqishlariga doir faoliyat, hayot yo'li, hunar, kasb tanlashidadir. Yutuqning ikkinchi garovi shu o'ziga mos tanlangan hayot yo'lidan donolik, aql bilan faoliyat ko'rsatish, eng ko'p moddiy va ma'naviy mahsulot olishida. Soha bo'yicha istiqbolli ma'naviy fikr inson yutug'ining uchinchi garovidir.

O‘zining uquvi, qobiliyatini ro‘yobga chiqarish asosida bunyodkorona mehnat qilib, moddiy-ma‘naviy mahsulotlar yaratib, o‘zini, oilasini pok, halol luqma bilan boqib, davlatni, xalqni moddiy-ma‘naviy boyitishga xizmat qilgan kishi so‘zda emas, amalda ham haqiqiy iymonli kishi bo‘ladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Milliy istiqloq mafkurasining bosh maqsadi nimadan iborat?
2. G‘oya va mafkuralarning tarixiy turlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Milliy istiqloq mafkurasining bosh va asosiy g‘oyalari haqida gapirib bering.
4. Milliy istiqloq mafkurasini o‘quvchilar ongiga qanday yo‘llar bilan singdirish mumkin deb o‘ylaysiz?
5. Ta‘lim-tarbiya jarayonida milliy istiqloq g‘oyasini o‘quvchilarga singdirishga doir misollar keltiring (mutaxassislik faningiz asosida).
6. Milliy istiqloq mafkurasining asosiy g‘oyalari nimalar tashkil etadi? Bu boradagi qarashlaringizni «Taklif va mulohazalar» rukni ostida daftaringizga qayd qilib boring.
7. Quyidagi iboralarni izohlang:

«Vatani borning baxti bor, mehnati borning — taxti».

«Ona Yerning tuprog‘i ona sutidek aziz».

«Vataning tinch, sen tinch».

«Vatanning ostonasi oltin».

1.4. Shaxs kamoloti ijtimoiy biologik hodisa, pedagogik jarayon obyekt va subyekt sifatida

Istiqloq tufayli o‘zining mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan jamiyatimiz kun sayin demokratlashib, davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari tobora ko‘proq demokratiya tamoyillariga asoslanmoqda.

Ta‘lim tizimi oldidagi davlat buyurtmasi O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy g‘oyalari o‘z aksini topgan. O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yuksak umumiy madaniyatga, kasb-hunar ko‘nikmalariga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, mantiqiy mushohada qilish hamda ijtimoiy hayotdagi muammolarning oqilona yechimlarini topish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarni odilona baholay oladigan, kadrlar yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama barkamol, ta‘lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda mu-

kammal o'zlashtirgan, mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi. Yuqoridagi g'oya ta'lim tizimi oldiga bir qator aksiomatik vazifalarni ko'ndalang qilib qo'ydi. Jumladan:

— uzluksiz ta'lim tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan huquqiy-demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

— ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan kadrlar tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari-dan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiya-ning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

— ta'lim oluvchilarni mantiqiy mushohada qildirish jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va metodlarini ishlab chiqish hamda joriy etishni hal etish vazifalarini amalga oshirish.

Inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar va muas-sasalar vujudga kelishi, inson manfaatlariga e'tibor jahon huquqiy andozalari va milliy urf-odatlarining uyg'unligida shakllanib borayot-ganligi mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar tantana qilib borayotganligining belgisidir. O'zbekiston Respublikasining mustaqil bo'lishi munosabati bilan maktablardagi ta'lim-tarbiya ishlari rivojlanib, takomillashib borayotir. Mamlakatimizda ijtimoiy sohalarda o'tkazilgan ijobiy islohotlar natijasida shaxsning erkin fikrlashi va mantiqiy mushohada qilish ko'nikmalarini yanada takomillashtirish, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Shaxs erkin, mantiqiy izchillikda fikrlay olmasa, demokratik tamo-yillar tantana qilmasa, shaxsning ta'lim olish huquq va erkinliklarini amalga oshirib bo'lmaydi. Biz uchun mustaqillik, eng avvalo, o'z taqdirimizni qo'limizga olish, o'zligimizni anglash, milliy qadriyat-larni, urf-odatlarini tiklash, mo'tabar shu zaminda, tinchlik-oso-yishtalikni, barqarorlikni saqlash. Shu nuqtayi nazardan, shaxsning har tomonlama kamol topishini amalga oshirish, yangicha fikr yurituvchi erkin fuqaroni tarbiyalash davr talabi bo'lganligi bilan belgilanadi va u quyidagilarda o'z aksini topadi:

1. Jamiyatimizda mafkuraviy tizimning o'zgarishi, ijtimoiy yangilanish erkin mushohada yurituvchi shaxsga qo'yilayotgan talablarga yangicha yondashish, qarash, munosabat, mezon, talab, mohiyat, mazmun, shakl, atribut taqozo etishi.

2. Erkin mushohada yuritish fenomenologiyasining ko'lami kengayishi.

3. Uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol yondashuv asosida talqin qilinishiga, shaxsga ham obyekt, ham subyekt sifatida qaralishiga ijtimoiy zarurat tug'ilishi.

Shaxs deganda ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyati va sifatlari bilan boshqalardan farq qiladigan muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Shaxs — ijtimoiy hayotning mahsuli. Odamning insonlik jinsiga mansublik fakti esa, individ tushunchasi bilan ifodalanadi.

Inson shaxsining eng xarakterli tomonlaridan biri uning individualligidir. Individuallik deganda shaxs ruhiy xususiyatlarining qaytarilmaydigan birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, ruhiy jarayonlarning o'tib borish xususiyatlari, hissiyotlar, faoliyat motivlari, tarkib topgan qobiliyatlar kiradi.

Individ va shaxs o'rtasidagi o'xshash tafovutlar: shaxsning biologik va psixologik rivojlanishi; shaxsning jismoniy, aqliy, ma'naviy kamol topish jarayoni; bolalik, o'smirlilik va o'spirinlik yillarida shaxsning kamol topishi.

Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo'lib, u barcha tug'ma egallangan miqdor va sifat o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. Rivojlanish deb, bola vaznining oshishi, suyak va muskul tizimining, tanosil a'zolarining, nerv funksional faoliyatining kamol topishi, aql-zakovatining shakllanishiga aytiladi.

Bolaning jismoniy rivojlanishida uning bo'yi o'sadi, vazni va muskul kuchi ortadi, sezgi organlari mukammallashadi, harakatlarni to'g'ri boshqara oladi. Bolaning ruhiy rivojlanishida shaxsidagi psixik sifat va belgilar shakllanadi, hissiy-irodaviy, bilish jarayonida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Bolaning ijtimoiy rivojlanishi u ijtimoiy hayotda qatnasha boshlaganda, uning xulqida, tevarak-atrofga bo'lgan munosabatida, ayniqsa, jamoa ishlarida qatnashishida namoyon bo'ladi.

Ajdodlarimizning komil inson haqidagi axloqiy talablar majmuasi — sharqona axloq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Kadr-lar tayyorlash milliy dasturida sog'lom avlod tarbiyasi haqida o'lmas g'oyalar keltirilgan.

Har bir inson shaxs sifatida turlicha namoyon bo'lar ekan, uning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga bo'lgan munosabati ham, faollik darajasi, axloq-odob borasidagi yetukligi ham turlichadir. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa o'sha jamiyat qonun-qoidaloriga asosan kamol topadi. Pedagogika shaxsning kamolotga yetishini murakkab va ziddiyatli jarayon deb biladi.

Shaxsning kamolga yetishida irsiyat, muhit, maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya va nihoyat o'zining mustaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga egadir. Shunday qilib, ijtimoiy muhitning shaxs shakllanishidagi o'rni nihoyatda beqiyosdir. Irsiy belgilarning rivojlanishi hamda insoniy-ijtimoiy muhitda yashashga bog'liqligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Inson bolasi, agar ijtimoiy-insoniy muhitga emas, boshqa muhit, aytaylik, hayvonlar muhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko'rinishlari saqlanadi, lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti-harakat bo'lmaydi. Irsiyat nishonalari shaxsni shakllantirishning obyektiv omillariga kiradi. Odamlar organizmdagi anatomik tuzilishni, fiziologik harakatni, asab tipini, asosiy shartsiz reflekslarni meros qilib oladilar. Odam shaxsi va xulqining rivojlanishida biologik omillarning rolini yuksak baholab, shaxsni naslga bog'lab o'rganuvchi bixeviorizm, pragmatizm, biogenetik oqimlar bo'lib, ularning ayrim vakillari odam bolasi ona pushtidaligidayoq bo'lajak shaxsga xos barcha xususiyatlarga ega bo'ladi desa, ayrimlari ong va aqliy qobiliyat ham nasldan naslga o'tadi, deydi. Ba'zilari esa, bolaning axloqiy jihatdan o'sishini ham irsiyatga bog'laydi. Biologik omilning inson shakllanishidagi o'rni muhim va o'ziga xos, irsiyatning ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi, insonga xos xususiyatlar aqliy va jismoniy mehnat qobiliyati, tafakkur va nutq ham tug'ma o'tishi mumkinligi, lekin bu tug'ma imkoniyatlar rivojlanishi uchun inson bolasi insoniy muhit, odamlar orasida yashashi, odamlar bilan aloqa qilishi, ijtimoiy hayotda qatnashishi va ma'lum axloq-odob qoidalariga amal qilishi lozimdir.

Ta'lim-tarbiya insonning shakllanishida yetakchi rolni o'ynaydi, ta'lim-tarbiya natijasida irsiyat va muhitning stixiyali ta'siri bera olmaydigan o'qish, yozish, mehnat, malaka va ko'nikmalar egallanishi, hatto tug'ma kamchiliklar ham ma'lum tomonga o'zgartirilishi (kar, ko'r, soqovlarni o'qitish), muhit ta'sirida yuzaga kelgan salbiy kamchiliklarni ham tugatish mumkin. Hozirgi kunda yurtimizda qobiliyatli, iste'dodli va iqtidorli bolalarga alohida e'tibor berilganligi, bu yoshlar O'zbekistonimiz kelajagi, deb aytilayotganligi ham bejiz emas. «Nihol», Zulfiya mukofotlari, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy nomidagi va Prezident stipendiyalarining joriy etilishi ham yoshlarga berilayotgan e'tiborning namoyon bo'lishidir.

Shaxsning rivojlanishida «faoliyat», «faollik» tushunchalarining o'rni beqiyos. Buyuk insonlar o'z sohalarida yuksaklikka erishish

uchun tinmay mehnat qilganlar. Inson o'z intilishi va faolligi bilan yuksak cho'qqilarga erishishi mumkin, qobiliyat va iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun ham o'z ustida ishlashi zarurdir.

Ta'lim oluvchilarning shaxsiy-xarakterologik sifatlarini aniqlashning, hech bo'lmaganda, oddiy metodikasini egallash, uni tatbiq etish, kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim unsurlaridan biridir. Oliy va o'rta maxsus o'quv maskanlari o'qituvchilari, ko'pincha, o'quvchi-yoshlarning aqliy qobiliyatlarini o'rganishga e'tibor qaratadilar, ammo ularning tarbiyalanganlik darajalarini (keng ma'noda) va xulqiy nuqsonlarini korreksiyalash muammolarini uzluksiz ta'lim tizimida yagona uzviylik va yaxlitlik nuqtayi nazari-dan talqin qilishga, uning yechimlarini topishga urinishmaydi. O'quvchilar va talabalarning aqliy rivojlanishlari ko'p jihatdan mustaqil fikrlashga, umumiy tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq. Ularning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, zarur bo'lsa, xulqiy nuqsonlarini bartaraf etish hozirgi davrning muhim talablaridan biridir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Shaxs va individ bir-biridan nimalar bilan farq qiladi?
2. Rivojlanish deganda nimani tushunasiz?
3. Shaxs rivojlanishida biologik omilning o'rnini qanday tushunasiz?
4. Shaxs shakllanishida ijtimoiy muhitning ahamiyatini ko'rsatuvchi misollar keltira olasizmi?
5. Shaxs rivojlanishida ta'lim va tarbiya qanday o'rin tutadi?
6. Shaxsning rivojlanishi uning faolligi bilan bog'liqmi?
7. Insonning shaxs va individ sifatlarini alohida yozing va izohlang.

1.5. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini. Ijtimoiy tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mazmuni

«Tarbiya biz uchun yo hayot,
yo mamot, yo najot, yo halokat,
yo saodat, yo falokat masalasidir».

Abdulla Avloniy

Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Tarbiya jarayoni shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtiriladi va tar-

biyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq ikki faoliyatni — o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvati mustahkamlanadi. Tarbiya jarayonida o'quvchida jamiyatning shaxsiga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi. Tarbiyalash jarayonida bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Taraqqiyot, ijtimoiy ong, aql-zakovat, yangilikka intilish hissi tarbiyalanganlikning ham harakatlantiruvchisi, ham mexanizmi, ham zarurat ekanligini ta'kidlovchi omil bo'lib xizmat qilgan va bundan keyin ham ko'p funksional vazifani ado etaveradi.

Tarbiyalanganlik — jamiyatda qabul qilingan axloqiy norma-larga bo'ysunish va o'zgalarning nafratini qo'zg'atadigan xatti-harakatlardan o'zini tiya bilish. Demak, tarbiyalanganlik barcha ijobiy xulqlarni o'zida mujassamlashtirib, salbiy xulqlardan forig' bo'lish demakdir.

Yoshlarda axloqiy xislatlar bilan birga, umuminsoniy fazilat-larni, ma'naviy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik diagnostika va kooreksiyalash faoliyatiga murojaat etish zarur. Buning uchun, eng avvalo, inson fazilatlarining o'zaro munosabatlarini va o'rnini aniqlab olmoq lozim. Ma'naviyat esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Mazkur bilim-lar, o'z navbatida, inson ijobiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi.

Rejali va maqsadli o'qitish va tarbiyalash jarayonida natijalarni aniqlash zaruriyati pedagogik diagnostikani vujudga keltirgan. O'z ibtidosida bu natijalar oddiy pedagogik metodlar orqali aniqlangan.

Tarbiyaviy metodlar: so'z orqali ifodalash, ko'rgazmalilik, amaliy, namuna, rag'batlantirish, jazo uslublari va h.k.

Tarbiya jarayonida an'analar, udumlar, rasm-rusumlar va ta'lim muassasalarining roli. Vatan tug'usini shakllantirish, ona tilimizga muhabbat uyg'otish, milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish,

ezgulik timsoli bo'lgan ayolni ulug'lash, umuminsoniy qadriyat-larga, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg'or madaniyatni shakllantirish, dinning dunyoviylik bilan qarama-qarshi emasligini anglash, huquqiy madaniyat — sog'lom dunyoqarashning muhim omili ekani to'grisidagi ma'lumotlarni ko'paytirish, ma'rifatning shaxs intellektual salohiyatini oshirish-dagi imkoniyatlari kengligini isbotlash kabi tamoyillar tarbiya jarayoniga kiradi. Bunda:

- aqliy tarbiya: bilim, ilm, malaka, ko'nikma; aql, ong, fahm;
- axloqiy tarbiya: axloq, odo, xulq, yaxshilik, adolat, insof, diyonat, sharm, hayo, vatanparvarlik va boshqalar;
- mehnat tarbiyasi: faollik, ishchanlik, tadbirkorlik, ish-bilarmonlik; aqliy ish, jismoniy mehnat, foyda, maosh;
- jismoniy tarbiya: chiniqish, sport o'yinlari; sog'lom tan;
- estetik tarbiya: go'zallik, kiyinish, tozalik, yurish-turish, saranjom-sarishtalik;
- ekologik tarbiya: tabiat, atrof-muhit, daraxtlar, qushlar, o'rmonlar;
- iqtisodiy tarbiya: tejamkorlik, bozor iqtisodiyoti, sarf, isrof; foyda, mulk, mulkka egalik;
- huquqiy tarbiya: fuqaro, tenglik, to'g'rilik, halollik, jinoyat, jazo, huquq, burch.

Tarbiya nazariyasi — pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadi. U Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribasiga tayanadi. Pedagogika tarixidan ma'lumki, ta'limni tarbiyadan, tarbiyani rivojlantirishdan ajratib bo'lmaydi.

Tarbiya ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqoti hisoblanadi. Tarbiyada tarbiyachi xohlagan sifatlarini tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun tarbiyalanuvchining ruhiyatiga muayyan suratda va tizimli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ma'naviy boylik moddiy boylikdan ming bor ustun, shu bois biz ta'lim-tarbiya masalasiga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida yondoshmoqdamiz. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ham mohiyat e'tibori bilan shu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan. Tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi.

O'quvchining barcha xislatlarini shakllantirish yoki yo'qotish maqsadida shu xislatlarni tarbiyalash yoki yo'qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi. Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarning qay birini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi. Bunday rejaga solinib olib borilgan tarbiya mohiyatini ta'lim-tarbiya tizimi, jamiyat, insonlarning intellektual, jismoniy faoliyati tashkil qiladi.

Tarbiyaning birinchi xususiyati uning ko'p qirrali jarayon ekanligi bo'lib, unda maktab, oila, bolalar va o'smirlar tashkilotlari, mahalla, keng jamoatchilik, kino-teatr, televideniye, adabiyot va san'at ishtirok etadi.

Tarbiyaning yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Ta'limdan farqli ravishda u bola tug'ilganidan boshlanadi, maktab yillarida, undan keyin va butun umr bo'yi davom etadi. Tarbiyaning ta'limdan farqlantiruvchi yana bir xususiyati shundaki, u yaxlit holda va konsentrik asosda amalga oshiriladi. Tarbiyaning turli tomonlari bir-biri bilan uzviy bog'langan. Boshlang'ich sinfda ham, o'rta va yuqori sinfda ham ayni bir narsa, masalan, do'stlik, ahillik, vatanparvarlik va boshqalarni tarbiyalash ko'zda tutiladi. Tarbiyaning yana bir xususiyati shundaki, bu jarayon ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, unda bolaning o'zi ham faol ishtirok etadi. Tarbiyada qarama-qarshiliklarning ko'pligi yana bir xususiyatdir. Bu qarama-qarshiliklar bolalarda o'z tushunchalariga muvofiq dastlabki paydo bo'lgan sifatlar bilan tarbiyachi tomonidan tarkib toptirilayotgan sifatlar, o'quvchilarga qo'yilgan talablar bilan uni bajarish imkoniyatlari o'rtasidagi kurashlarda namoyon bo'ladi.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Mutafakkir olim Abu Nasr Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallagan insonni tarbiyalash, uni bilim olish, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatni sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Bu insonning mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi va aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi, ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchilardan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharafli mehnat va qunt, iroda talab etiladi. Bunda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatini e'tiborga olishi zarur. Tarbiyaning samarali bo'lishi ko'p jihatdan

jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning rivojlanishiga bog'liq. Ma'naviy va insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va munosabat muhim o'rin egallaydi. Bolalarda taqlidchanlik xususiyati mavjudligi tufayli ularni tarbiyalashda otanonaning ongi, ma'naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga egadir. Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyachining qanday metoddan foydalanishiga bog'liq.

Metod, ya'ni usul axborot uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab:

1. So'z orqali ifodalash usuli.
2. Ko'rgazmalilik usuli.
3. Amaliy namuna usuli.
4. Rag'batlantirish va jazo usullariga bo'linadi.

Bu usullar, o'z navbatida, quyidagi guruhlariga bo'linadi.

Birinchi guruh — so'z orqali uzatish, maslahat berish, ma'lumotlarni eshitish orqali qabul qilish, hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqa usullar.

Ikkinchi guruh — kinofilmlar, tasviriy san'at, badiiy san'at va boshqa ko'rish orqali tarbiyalash usullari.

Uchinchi guruh — tarbiya jihatlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish, o'rnak ko'rsatish, boshqalar mehnatini misol tariqasida ko'rsatish.

To'rtinchi guruh — yaxshi bajarilgan ishlarni o'rtoqlari oldida ma'qullash, minnatdorchilik bildirish, iqtisodiy va ma'naviy rag'batlantirish.

Jazo — bu bolaning noto'g'ri qilgan ishiga o'zini iqror qildirish.

Tarbiya — har bir insonning hayotida yashashi mobaynida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayoni.

Tarbiyalanganlik — jamiyatda qabul qilingan axloqiy norma-larga bo'ysunish va o'zgalarning nafratini qo'zg'atadigan xatti-harakatlardan o'zini tiya bilish.

Abu Rayhon Beruniy insonning kamolotga yetishishida ilm-u ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy rol o'ynasa-da, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, inson kamolga yetishuvining eng muhim omillari ilm, ma'rifatli bo'lish va yuksak axloqlilikdir. Axloqlilikning belgilari yaxshilik, to'g'rilik, adolat, kamtarlik, saxovat, oliyanoblik, do'stlik va hamkorlik, mehnat, poklik, go'zallikka intilish kabilardir.

Adolat — hayotiy masalalarni axloqiy va huquqiy normalarga rioya etgan holda hal etish. Adolat tushunchasi bilan bogʻliq jihatlar juda keng qamrovli boʻlib, adolatli inson, adolatli jamiyat kabi tushunchalar shunday jihatlar jumlasiga kiradi. Adolatparvarlik tushunchasi esa adolat tamoyiliga amal qilgan holda ish olib borish, yoʻl tutish, faoliyat yuritish demakdir, yaʼni:

— Vatan, millat taqdiri hal boʻladigan qaltis vaziyatda toʻgʻri yoʻlni tanlash uchun, avvalo, tarixni, hayotning achchiq-chugugini yaxshi bilish kerak.

— adolat biz qurayotgan jamiyatning mezoni boʻlmogʻi darkor;

— endi, eski jamiyatni inkor qilish yoki maʼqullash kayfiyatidan voz kechib, bunyodkorlik kayfiyatiga oʻtish kerak;

— millat, davlat, jamiyat taqdiri hal boʻlayotgan pallada oʻz-ligimizni anglash, maʼnaviy ildizlarimizni unutmaslik lozim;

— insonlar tafakkurini boyitish, uni yangi maʼno va mazmun bilan toʻldirish lozim.

Mamlakatimizning huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida oʻtmishimizning hali oʻrganilmagan sahifalarini tadqiq etish, davlat va siyosiy arboblarning nomlarini xalqimizga qaytarish, huquqiy qadriyatlarimizni tiklashga alohida eʼtibor berilmoqda.

Biz uchun mustaqillik, eng avvalo, oʻz taqdirimizni qoʻlimizga olish, oʻzligimizni anglash, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarni tiklash, moʻtabar shu zaminda tinchlik-osoyishtalikni, barqarorlikni saqlashdan iborat.

Maʼlumki, «adolat» keng qamrovli tushuncha sifatida ijtimoiy munosabatlarning barcha jabhalarini qamrab oladi. Adolat, axloq va huquq kategoriyasi sifatida axloqiy-huquqiy munosabatlarni nazorat qilib turuvchi, odamlarning faoliyatiga baho beruvchi zaruriy oʻlchovdir. Har qanday jamiyat ijtimoiy adolat normalariga rioya qilishi bilan yuksalish darajasi belgilanadi. Tarixga nazar tashlasak, turli jamiyatlarda adolat mezonini yaratishda xilma-xil yondashuvlarga amal qilib kelinganligining guvohi boʻlamiz. Istiqloq sharofati bilan koʻplab ajdodlarimizning ilmiy merosi va ularda ilgari surilgan adolat toʻgrisidagi gʻoyalarni atroflicha oʻrganish zamon talabi boʻlib qolmoqda. Ayniqsa, Oʻzbekiston Respublikasida chuqur huquqiy bilimlarga ega, amaliy koʻnikma-malakalarni egallagan, raqobatbardosh kadrlar talab qilinadi. Shu sababli yoshlarda ijtimoiy adolat toʻgrisidagi tushunchalarni kamol top-tirish uchun zamin yaratish lozim. Kelajakda mutaxassis boʻlib yetishuvchi kadrlar, bugungi kunda uzluksiz taʼlim qatnashchilari

huquqiy davlat muammolarini to'g'ri baholay oladigan, chuqur huquqiy bilimlarga ega, ijtimoiy hayot sohalarining ichki qonuniyatlari to'grisidagi tushunchalarni egallab borishlari zarur. Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda yoshlar rivojlanayotgan huquqiy demokratik davlatda ijtimoiy sohadagi islohotlar, axloqiy huquqiy munosabatlar kabi masalalarga alohida e'tibor berishlari lozim.

Mazkur tushunchalarni shakllantirishda uzluksiz ta'lim tizimi shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishida asosiy bo'g'in bo'lib hisoblanadi. Hayotda adolat me'yorlariga rioya etish ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy-ruhiy jarayondir.

Ma'lumki, inson jamiyatda erishishi mumkin bo'lgan narsalar — mulk, daromad, ijtimoiy maqom, hokimiyat, huquq insonlararo munosabatlardagi adolatga bog'liq. Moddiy ne'matlar va xizmat turlari, ijtimoiy (obro', hurmat-ehtirom), siyosiy ne'matlar (siyosiy erkinliklar, shaxs huquqi), sog'liqni saqlash, insonlarning ijtimoiy ahvoli kabi sohalarda odamlar adolat muammolariga katta e'tibor beradilar.

Tarbiya jarayonida o'qituvchi, tarbiyachilarning asosiy vazifasi ta'lim-tarbiya berish, o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini muttasil oshirib borish, ularda tafakkur, ilmiy dunyoqarash va mafkuraviy tushunchalarni shakllantirishdan iboratdir.

Mafkura inson ruhiyati, tafakkur va dunyoqarashini o'zgartiradigan kuchli vositadir. Uning g'oyalari xalqning ishonch-e'tiqodi, intilish va manfaatlarini ifodasiga aylansa yetarlicha samara beradi. Shuning uchun ham mafkura sohasidagi targ'ibot va tashviqot ishlarini, o'quvchilarning tushunchasi, aql-idroki va tafakkur darajasini inobatga olgan holda ma'rifiy yo'l va usullar orqali amalga oshirish taqozo etiladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Pedagogikaning «Tarbiya nazariyasi» bo'limi nimalarni o'rgatadi?
2. Tarbiya jarayoni mohiyati nimadan iborat?
3. Tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchining faoliyati qanday bo'ladi?
4. Tarbiya jarayonining o'ziga xos qanday xususiyatlari bor?
5. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roliga qanday baho berasiz?
6. Mafkuraviy tushunchalarni shakllantirishda tarbiya jarayonining ahamiyati qanday?
7. Ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog'i orqali mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi islohotlarga oid ma'lumotlarni to'plang va ularni tahlil qiling. Mahallada tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar ichlab chiqing.

1.6. Tarbiya qonuniyatlari, prinsiplari va metodlari

Inson paydo bo'libdiki, tarbiya jarayoni va qoidalari mavjud. Xo'sh, tarbiya qoidalari nima uchun kerak ekan?

Tarbiya qoidasi — pedagogik ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, raqbarlik asosi. Tarbiya qoidalari — o'qituvchi va tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar hisoblanadi. Tarbiya qoidalari va ularning mohiyati quyidagicha:

- a) tarbiyaning maqsadga qaratilganlik qoidasi;
- b) tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasi;
- d) tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi qoidasi;
- e) tarbiyada izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzluksizlik qoidasi.

Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganlik qoidasi. Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollarini ko'ra bilishga yordam beradi.

Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasi. O'qituvchining bilim saviyasi, ma'naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotga eltuvchi yetakchi omillardan biridir. Yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda Qur'oni karim, hadisi shariflardan foydalanish juda muhim. Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smirning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquq va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratlash — bu tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. O'qituvchi o'quvchiga avvalgidek tarbiya obyekti emas, xuddi o'zi kabi subyekt deb qarashi darkor. Tarbiyaviy faoliyatni demokratlash va insonparvarlashtirish uning mohiyatini va mazmunini qayta tafakkur etishni ko'zda tutadi. Shaxsning rivojlanishi va o'zligini anglashni ta'minlaydi.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi qoidasi. O'quvchilarni Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish, madaniy va diniy bilimlarini egallashga bo'lgan

talablarini shakllantirish malakalarini oshirib, tobora boyitish, estetik tushunchalarni shakllantirish juda muhim. Xalqimizning ko'p asrlik qadriyatlarini ulkan boy va madaniy merosini chuqur bilmadan, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. U yaratgan madaniy boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali o'quvchilar go'zal axloq, baxt, insof, poklik, mehr-shavqat, ota-onani hurmat qilish qoidalari haqida keng tasavvurga ega bo'ladilar. Insoniylik — o'z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, do'stlik, ota-onaga sadoqatlilik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarini qamrab oladi. Shu sababli insondagi eng yaxshi fazilatlar avloddan avlodga ko'chib kelgan.

Tarbiyada izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzluksizlik qoidasi. Tarbiya ishida izchillik juda muhim. Tarbiyachi avvaliga bolalardan biror narsani talab qilib, so'ngra o'zi bu talabni unutib qo'ysa, bu hol tarbiyaga yomon ta'sir qiladi. O'qituvchi subutli, o'z lafziga sobit bo'lmog'i kerak. O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka rioya qilish va bir xil talab qo'yish muvaffaqiyat qozonishning eng muhim shartlaridan biridir. Tarbiya uzoq davom etadigan jarayon, unda ota-ona, o'qituvchi, jamoatchilik qatnashadilar. Shu sababli ularning ishida izchillik va davomiylik bo'lishiga rioya qilish kerak. Bu qoida tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'inlar (oila, maktab, o'quvchilar jamoasi, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, keng jamoatchilik)ni birgalikda ish ko'rishlarini nazarda tutadi. Chunki tizimlilik faqat yoshlarni emas, balki aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi kerak.

Bola o'qishni, tarbiya olishni, ulg'ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xohlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalash lozimligini bilishi kerak, shu bilan birga bola o'zini o'zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmasligi lozim.

Tarbiya vositalari — biron-bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi (ko'rsatmali ko'nikmalar, kitoblar, radio, televideniye). Bundan tashqari, o'quvchilar jalb qilingan faoliyat turlari — kinofilmlar, san'at asarlari, o'quvchining jonli so'zi, bolalar o'yini, sport, badiiy havaskorlik to'garaklari va boshqa faoliyat turlari tarbiya vositalari bo'lishi mumkin. Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsad-

larni amalga oshirish uchun o'qituvchi-tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim. Masalan, maktab kutubxonasi tarbiya vositasi bo'lishi uchun o'qituvchi va kutubxonachi yozuvchilar bilan uchrashuvlar, o'qilgan va yangi kitoblarning muhokamasi, taqdimotini uyushtirishi lozim.

Tarbiya natijasi tarbiya jarayonining usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga bog'liq. Tarbiyachilar ta'sir etishning bola shaxsiyatiga mos usulini — eng maqbul usulini tanlab olishi, uning shaxsini o'zgartirishi uchun kerakli shart-sharoit yaratishlari lozim. Tarbiya usullari har bir bolaga, har qaysi bolalar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishni nazarda tutishi kerak.

Tarbiya usullarini o'rganish, tahlil qilish bu usullardan pedagogik jarayonda foydalanish ko'nikma va malakalar egallashni osonlashtiradi. Ularni shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- a) ijtimoiy ongning shakllantiruvchi usullari;
- b) faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq va tajribalarini shakllantirish usullari;
- d) o'z-o'zini tarbiyalash usullari;
- e) rag'batlantirish va jazolash usullari.

Ijtimoiy ongning shakllantiruvchi usullari. Bu guruhga o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqod, ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularning ongi, hislari, irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari kiradi. Bu guruh usullarining mohiyati shundan iboratki, ular orqali jamiyat o'quvchilar ongiga qanday talablar qo'yayotgani yetkaziladi. Yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish, hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashish uchun ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar ishlatiladi. O'quvchilarda siyosiy onglilik va ijtimoiy faollikni tarbiyalash lozim. Tushuntirish — bu ijtimoiy ongni shakllantirishda eng muhim omil. Tushuntirishning vazifasi o'quvchilarni yuksak madaniyatli milliy g'ururli qilib tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

Tushuntirishda o'quvchilarda mamlakatimiz fuqarosining o'z davlatiga nisbatan huquqlar va burchlar bilan bog'langanligi borasida ma'lumotlar beriladi. Bunda davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi, konstitutsiyasiga sadoqat ruhida tarbiyalashning roli katta.

Suhbat — o'quvchi shaxsini g'oyaviy-axloqiy shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirli usul hisoblanadi. Suhbat turli mavzularda — axloqiy (kishilarning jamiyatdagi axloq mezonlari, o'zini tutish qoidalari), estetik (tabiat go'zalligi hamda inson go'zalligi), siyosiy (davlatning ichki va tashqi siyosati), ta'lim va

bilimga oid (koinot hayvonot dunyosi) uyushtirilishi mumkin. Suhbat davomida o'quvchilarda o'z fikrlarini aytish jasoratini uyg'otish, o'quvchilarni fikrlashga majbur qiluvchi savollar berish juda muhimdir. Bu borada baxs va munozaralarning ahamiyati katta.

Hikoya — o'quvchilar, odatda, hayotdan va boy badiiy adabiyotdan olingan aniq misol bilan to'liq hikoyalarni tinglaydilar. Ularga axloq mezonlari, tarix qoidalari, Vatanimizning tarixiy, tabiiy boyliklari, san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot, radio, televideniye, Internet tarmoqlari, gazeta va jurnallardagi maqolalar ham qimmatli material bo'ladi. Suhbat ham, hikoya ham o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda ular tushunadigan so'zlar orqali ravon va jonli o'tkazilishi kerak.

Namuna — o'quvchilar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaqin axloqiy sifatlarni ko'rishlari va namuna olishlari nihoyatda muhim. O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'qituvchining darsida va hayotda o'zini qanday tutishini, muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar. O'quvchilar o'zlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqlid qiladilar. Xulq-atvor bolalarda yaxshi sifatlarning, ba'zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Maktablarda ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. Bolalar o'z ota-onalarining ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan faxrlanadilar. Ularga taqlid qilishga intiladilar. Namuna xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Ota-bobolarimiz o'z farzandlarini hamisha yaxshilardan, donolardan, ulug' kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan, «Qush uyasida ko'rganini qiladi», «Onasini ko'rib qizini ol», «Axloqni axloqsizdan o'rgan», «Bola oldida birovlarning g'iybatini qilma, bolang g'iybatchi bo'ladi». Shu oddiy iboralar ostida qancha fikrlar jamlanib yotganligining guvohi bo'lamiz.

Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq va tajribalarini shakllantirish usullari. Bola rivojlanishining, o'zligini bilishning asosiy omili bu faoliyatdir. Faoliyat nuqtayi nazaridan yondoshilgan qoida maktab hayotining hamma jabhalarida ta'lim-tarbiya jarayonlariga singib ketadi. Faoliyat o'quvchilarni mustaqil bilimlarni egallashga undaydi, ularni qay ixtisosga moyilliklarini aniqlashga, ijodiy faoliyat tajribasini, hissiy qadriyat munosabatlarini o'zlashtirishlariga yordam beradi. O'quvchilarni birinchi sinfdan boshlab imkoniyat darajasidagi

foydali mehnat bilan shug'ullanishlariga erishish lozim. Bunday mehnat birgalikda jamoa bo'lib bajarilganida yaxshi natija beradi.

Mashq va o'rgatish usullari. Bolalar faoliyatini oqilona maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish mumkin. Mashq — bolalarni axloq mezonlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish. O'quvchilar odatlarni yaqinlaridan meros qilib olmaydilar, balki ular bilan muntazam muloqotlari tufayli taqlid qilish, tarbiya orqali hosil qilinadi. Oxir-oqibatda odat ehtiyojga aylanadi.

Mashq — muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq natijasida ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli ijodiy jarayondir.

O'rgatish — ijodiy xulq-atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida o'quvchilarning bajarishlari uchun rejali, izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliyot ishlaridir. O'rgatish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir. O'qituvchi bu harakatlarni ko'rsatib berishi, tushuntirishi lozim. Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli yo'llari mavjud. Faoliyatda mashq qilish, mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoadagi faoliyat, o'zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilgan. Kun tartibi mashqlari maktabda, oilada o'rnatiladigan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog'liq o'z istak va harakatlarini boshqarish va bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish odatiga o'rgatadi.

Topshiriq — o'quvchilarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab — bu o'quvchining turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi; u yoki bu harakatda rag'batlantiruvchi yoki uni to'xtatuvchi, oqilona harakatlarga undovchi bo'lishi mumkin.

O'z-o'zini tarbiyalash usullari. O'quvchida o'z-o'zini tarbiyalashga, ya'ni o'z ustida ongli batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa bo'ladi. O'z-o'zini tarbiyalash o'quvchilarning o'zini-o'zi idora qilish organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy faollik mavqeyini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir. O'quvchilar o'qishda, tarbiyada, dam olishda o'z-o'zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, o'z-o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mus-

taqillikka undaydilar. O‘z-o‘zini tarbiyalash sifatлари bola bunga tayyor bo‘lganda, u o‘zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarga mustaqillik ko‘rsata boshlagan vaqtda paydo bo‘ladi.

O‘z-o‘zini tahlil qilish — o‘z shaxsini, fazilatlarini tahlil qilishga, xatti-harakatlari haqida o‘ylashga o‘rgatadi. O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun o‘quvchi o‘zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O‘z-o‘zini baholash — o‘quvchining qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordam beradi. O‘z-o‘zini baholash o‘zining imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, chetdan turib xolisona baho berish, o‘zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

Rag‘batlantirish va jazolash usullari. O‘quvchilarning har biri o‘zining kamol topib borayotganidan xursand bo‘layotganini sezishi kerak. Faqat shundagina bola o‘zining olg‘a siljib borayotganini ko‘ra biladi. Bunga erishish uchun rag‘batlantirish usulidan foydalaniladi. Rag‘batlantirish bolaga ishonishga, unga bo‘lgan ijobiy qobiliyat va fazilatlarining kuchini e‘tirof etishga asoslangan. Rag‘batlantirish o‘quvchining ko‘nglini oladi, uni quvontiradi, yanada yaxshiroq bo‘lishga undaydi.

Rag‘batlantirishning quyidagi turlari mavjud:

— o‘quvchining kuchi yetadigan mas‘uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish;

— maqtash: (ota-ona, jamoa oldida); esdalik sovg‘a berish;

— maqtov yorlig‘i berish;

— stipendiya bilan taqdirlash;

— teleko‘rsatuvlarda maqtash;

— hurmat taxtasiga rasmini qo‘yish;

— qo‘llab-quvvatlash;

— ma‘muriyat va jamoaning minnatdorchiligi;

— musobaqalarda bayroq ko‘tartirish;

— gazetada e‘lon qilish;

— televideniya ko‘rsatuv uyushtirish.

Rag‘batlantirish pedagogik talab asosida bo‘lishi lozim. Tarbiyalovchi oshirib maqtashi, boshqa o‘quvchi-yoshlarga taqqoslab kesatishga yo‘l qo‘ymasligi, rag‘batlantirishga bo‘lgan talabchanligini oshirishi lozim.

Pedagogikada yana bir usul bu — jazolash.

Jazolash — tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish.

Tanbeh berish — eng yengil jazo chorasi bo‘lib hisoblanadi.

Ogohlantirish — noma’qul xatti-harakatlarning oldini olish uchun ishlatiladi.

Hayfsan berish — tanbeh va ogohlantirish kutilgan natija bermasa, o‘quvchi intizomni buzaversa, hayfsan beriladi.

Uyaltirish — odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-u hayo. Odamda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo‘lsa, avvalo, o‘zini-o‘zi hurmat qilsa, unda or-nomus kuchli bo‘ladi. Xalqimiz, uyat o‘limdan qattiq deb, bejiz aytmagan. Shu sababli bolani hadeb uyaltirmasdan, boshqa vositalarni ham qo‘llash kerak.

Jazo haqqoniy me’yorda qo‘llanilsa, samarali bo‘ladi.

Shunday qilib: tarbiya jarayoni inson hayotida rivojlanib, takomillashib boradi. Yuqorida ta’riflab berilgan tarbiya tamoyillari va umumiy metodlari o‘quvchilarga pedagogik ta’sir ko‘rsatish sohalarining hammasini qamrab olmaydi.

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib boradi, shuning uchun ham tarbiya jarayoni ham, uning qoida va usullari ham takomillashaveradi. Tarbiyaning samarasi bu qoida va usullarning to‘g‘ri qo‘llanishiga, tanlangan vosita va usullar muayyan ijtimoiy guruhda tarbiya tizimidan qanchalik o‘rin olganiga, ularning tarbiya vazifalari va maqsadlariga qanchalik javob berishiga bog‘liqdir.

Mavzu yuzasidan savollar


1. Tarbiya jarayonida tarbiya qoidalarining ahamiyati qanday?
2. «Tarbiyaning maqsadga qaratilgan bo‘lishi» deganda nimani tushunasiz?
3. Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasining hozirgi kundagi ahamiyati qanday?
4. Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta’minlash nima uchun zarur deb o‘ylaysiz?
5. Tarbiya usullariga nimalar kiradi? O‘zbek xalq pedagogikasida qanday usullar qo‘llanilgan?
6. Tarbiyada rag‘batlantirish va jazolash usullariga qo‘yilgan talablar to‘g‘risida fikr bildiring.

1.7. Ma’naviy-axloqiy tarbiya. Komil inson. Mustaqil fikrlashni tarbiyalash

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirish masalasi biz uchun g‘oyat dolzarb ahamiyatga ega. Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli

islohotlarimizning samaraliligi, avvalo, xalq ma'naviyatini tiklashdan iborat. Yuksak madaniyatli xalq, inson bugungi kun va kelajak haqida fikr yuritadi, qayg'uradi. Zotan, mustaqil yosh mamlakatimizning kelajagi uchun ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur, bu borada ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Axloqiy ta'rbiya haqida so'z borganda axloq nima ekanligini bilib olish kerak.

Axloq, xulq va atvor so'zlari arabcha so'z bo'lib, ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida ishlatiladi. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy qoida bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning istisnosiz hamma sohalarida kishilarning xatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi.



Axloq — ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, har bir kishining jamiyat va oiladagi yurish-turishi, tartib qoidalarining yig'indisi sifatida gavdalanadi. Demak, jamiyatga, oilaga, mehnatga bo'lgan munosabatlarda axloq namoyon bo'ladi.

Quyidagi donolarimiz bisotidan keltirilgan jummalarni o'qing va mushohada qiling:

«Axloq ilmi insonlarni yaxshi xulqlarga chaqirib, yomon xulqlardan qaytarmoq uchun yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini bayon qiladurgan, bildiradurgan bir ilmdir».

«Har kim axloq ilmini bilib amal qilsa, bu dunyoda aziz, oxirtda sharofatlik bo'lur».

«Agar bir kishining o'zidan, ishidan, so'zidan boshqa kishilar ozor topmasalar, yaxshi xulq deyilur, agar ozor topadurgan bo'lsalar yomon xulq deb atalur».

«Axloq insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur».

Bolalar suvga oʻxshaydilar. Suv qaysi rangdagi idishda boʻlsa, oʻsha rangda tovlangani kabi, bolalar ham qanday muhitda boʻlsalar oʻsha muhitning shunday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar koʻproq yaxshi va yomon axloqni oʻz uylaridan, koʻchadagi oʻrtoqlaridan, maktabdagi oʻquvchilardan qabul qiladilar.

Axloqiy tarbiya mazmuni, asosan, quyidagilarda oʻz ifodasini topadi:

1. Jamiyatga, Vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash. Bu xildagi munosabatlar shaxsning vatanparvarligi, fuqaro yetukligi, baynalmillatlik kabi fazilatlarda aks etadi, uning maqsadlarida Vatan boyliklarini koʻpaytirish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon boʻladi.

2. Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash. Bu axloqiy munosabat shaxsning mehnat jarayonida namoyon boʻladigan yuksak ongida, mehnatning hayotdagi rolini anglashida, xususiylar va jamoa mehnatiga tayyorlik, mehnatsevarlikda ifodalandi.

3. Atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat. Bu shaxsning jamoatchilik, koʻpchilik manfaatini oʻz shaxsiy manfaatidan ustun qoʻyishidir.

4. Shaxsning oʻziga, oʻz xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalashi — bu oʻquvchini ongli intizom ruhida tarbiyalashdan iborat.

Insonning maʼnaviyati uning odobi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Maʼnaviyat esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zahirida shakllanadi.

Sifat — alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi kategoriya.

Fazilat — alohida shaxs, el, elat, xalq, ulusga taalluqli boʻlgan ijobiy axloqiy sifat majmuyi. Odamning inson sifatida shakllanishi jarayonida uning kamolot darajasi odob, axloq, madaniyat, maʼnaviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlashganligi bilan belgilanadi. Shu oʻrinda bu kategoriyalarning mohiyati ustida toʻxtalib oʻtish joizdir:

Odob — har bir insonning oʻzi bir inson yoki jamoa bilan boʻlgan muloqotida hamda yurish-turishida oʻzini tuta bilishi.

Axloq — jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan maʼqullangan xulq-odob normalari majmuyi.

Madaniyat — jamiyat va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida toʻplangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi.

Maʼnaviyat — inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

Mushohada qilish aqlning peshlanishiga olib keladi. Aql ongni sayqallaydi, ong esa moddiy va ma'naviy manbaga ay-lanadi. Shu tarzda inson sekin-asta takomillashib, komillikka erishib boradi.

Milliy istiqloq mafkurasining ma'naviy, madaniy va yuksak axloqiy-ruhiy qadriyati shundaki, u hamma vaqt har qanday sha-roitda kishini halollikka da'vat etadi. Zotan, uning siyosiy aha-miyati va ma'naviy qadriyati ham xuddi shu bilan belgilanadi.

Tarbiyada vijdon eng oliy ma'naviy-insoniy sifatdir. Vijdon tushunchasi, insonning vijdoniy sifati, uning ongi, qalbi, aqli va irodasiga bog'liqdir. Chunki insonning ichki ruhiy kechinmalari-da yaxshilik va yomonlik doimo kurashda bo'ladi. Agar inson bi-ror ma'naviy vaziyatda o'z qalbiga quloq tutib, irodasini ishga solsa, g'arazgo'ylik, mansabparastlik, molparastlik kabi g'ayriinsoniy illatlardan ustun chiqib, oqilona ish ko'rsa, uning vijdoniy sifati yuqoriligini ko'rsatadi. Inson qalbida g'ayriinsoniy illatlarning us-tun bo'lishi aslida ma'naviy kasallikdir.

Yoshlarda mustaqil fikrlay olish va o'zining shaxsiy, to'g'ri xulosasini chiqara olish fazilatini tarbiyalash, mustaqil fikrlash komillikning asosiy belgisidir. Komillik uch bosqichdan iborat:

1. Jismoniy salomatlik.
2. Axloqiy poklik.
3. Aqliy yetuklik.

Bu bosqichlarni shakllantirishda mustaqil fikrlash yetakchi ustuvor o'rin egallaydi. Mustaqil fikrlash sarchashmasi fahmlash, ya'ni anglashdan, fikr yuritishdan boshlanadi.

Anglash — biror bir g'oyani (fikrni) tub mazmuniga tushunib yetish.

Tafakkur — inson ongidagi mavjud ilmiy va hayotiy bilimlar majmualaridan keragini saralab olish va amaliyotga qo'llash.

Amaliyotda qo'llash hayotda bir necha bor qo'llangan, o'zining ijobiy hosilasini bergan ishonchli muammolar yechimi bilan solishtirib, xulosa qilish so'ng tafakkur saviyasiga tayanib, yagona yechimini tanlash va undan amaliyotda foydalanishdir.

Inson mustaqil fikrlash orqali voqelikni umumlashtirib, bilvosita va bevosita aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi ichki, murak-kab bog'lanishlar, munosabatlar, xossalar, xususiyatlar hamda mexanizmlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va voqealarning vujudga kelishi, kechishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rib turish imkoniyatiga egadir.

Fikr — inson faoliyati, uning o‘zligini, kuch-qudratini, o‘zagini tashkil qiluvchi ma’naviy-insoniy sifat.

Yoshlarimiz ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasiga, ayniqsa, biz pedagoglar ko‘proq mas’ulmiz. Bu vazifani muqaddas bilib, amaliy faoliyatimizda hayotga tatbiq etaylik. Barkamol avlod mustaqilligimizning kafolatidir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Axloq va axloqiylik deganda nimalarni tushunasiz? Yaxshi va yomon xulqlarga nimalarni kiritasiz?
2. Axloq va vijdonning qanday bog‘liq tomonlari bor deb o‘ylaysiz?
3. Axloqiy tarbiyaning maqsadi qanday, uning mazmunini nimalar tashkil etadi?
4. Sizningcha, qanday kishini komil inson deb hisoblash mumkin?
5. Mustaqil fikrlashning komil inson shakllanishidagi o‘rmini qanday tushunasiz?
6. Televizor orqali namoyish etilayotgan chet el seriallarining yoshlar tarbiyasiga qanday ijobiy va salbiy ta’siri bor deb o‘ylaysiz? Ularni tomosha qilish va unga munosabat bildirishda ota-onalar qanday yo‘l tutishlari lozim deb hisoblaysiz?

1.8. Ta’lim jarayonining ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish funksiyalari

Bilim jarayonining ilmiy, nazariy, uslubiy va amaliy asoslarini, ya’ni ta’lim, bilim berish, o‘qitish nazariyasi bilan pedagogikaning mustaqil bo‘limi didaktika — ta’lim nazariyasi shug‘ullanadi.

Didaktika — grekcha so‘z bo‘lib, «didasko», ya’ni o‘qitish, o‘rgatish ma’nolarini bildiradi. Ta’lim qonuniyatlarini o‘rganish, tahlil qilish jarayonida ta’lim tushunchasi uning mohiyati, mazmun va vazifalari, o‘qitish prinsiplari, shakllari haqidagi bilimlar bayon etiladi. Didaktika pedagogikaning «nimaga o‘qitish», «nimani o‘qitish» va «qanday o‘qitish» kabi savollariga javob izlaydi.

Ta’lim — insoniyat tajribasining ma’lum tomonlarini, ya’ni o‘quvchilar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydigan faoliyat. O‘qituvchi ta’lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, balki bu jarayonda o‘quvchi, talabaga ta’sir ko‘rsatadi, bu esa ularning bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada o‘quvchi ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Ta'limdagi yutuqlar, avvalo, o'qituvchiga bog'liq. U mutaxassis sifatida o'z fanini chuqur bilishi, pedagogik muloqot ustasi bo'lishi, psixologik-pedagogik va uslubiy bilim va malakalarni egalashi, har xil pedagogik vaziyatlarni zudlik bilan o'rganishi va baholashi, pedagogik ta'sir ko'rsatishning maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Mustaqil ishlash iste'dodini shakllantirish, kasbiy layoqat his-sini, pedagogik voqea va hodisalarni taqqoslash, tahlil qilish va xulosalash ko'nikmalarini rivojlantirish — bularning barchasi ta'lim jarayonining asosiy vazifalari.

Ta'lim jarayoni — ma'lumot mazmuni hamda unga oid faoliyat usullarini o'quvchilarning o'zlashtirishi uchun o'qitish va o'qish faoliyatlarining real aloqalashuvi, sababiyatli bog'lanishi, bir-biriga muvofiqlashuvi asosida ta'limning aktlar, zvenolar, sikllar shaklida makon va zamonda harakatlanadigan maqsadga muvofiq shirkat faoliyati.

Ta'limning asosiy vazifalari shaxsni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson bilish faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi, ya'ni ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdir. Ta'lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to'plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko'nikma va malakalar hamda e'tiqodlar shakllantiriladi. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi faol ishtirok etadi. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlab, reja va dastur asosida bilim, ko'nikma va malakalarni singdiradi, o'quvchi esa uni faol o'zlashtirib oladi. Bildirish, bilish murakkab, qiyin, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psixikasiga tegishli sezgi, idrok tasavvur va tafakkur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi, muhim rol o'ynaydi. Ta'lim berish, yoshlarga bilim berish, ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ya'ni haqiqatlarni ocha olishga qodir bo'lgan jiddiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir.

O'qituvchi o'quvchi va talabalardagi fikrlash jarayonini to'g'ri yo'lga solish uchun amaliyot har qanday bilishning negizidir, degan qoidani hisobga olishi zarur. Ta'limda o'qituvchi bilim berish bilan cheklanmaydi, u o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga ham raqbarlik qiladi, o'quvchilarda ishdagi mustaqillik, ijodkorlik qobiliyatlarini o'stiradi va shu tariqa o'rganilayotgan narsaning ongli

ravishda o'zlashtirilishiga erishadi, materialni idrok qilishlari va tushunib olishlari bilan birga, uni puxta esda saqlab qolishlari to'grisida ham g'amxo'rlik qiladi.

O'qituvchi o'quvchi-talabaning bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o'quv ishlarini olib borar ekan, avvalo, ta'lim jarayoni orqali uch vazifani, ya'ni bilim berish orqali uch maqsadni hal qilish lozimligini unutmasligi kerak. Bu maqsadlar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini birlashtiradi.

1. Ta'limiy maqsad — o'quv materialining mazmunini bilish, ya'ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq qila olish.

2. Tarbiyaviy maqsad — fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini, imon-e'tiqodlarini shakllantirish.

3. Rivojantiruvchi maqsad — ta'lim jarayoni ta'sirida shaxsning aqliy kamolotini, bilish qobiliyatini, o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida o'quvchi-talabada mustaqil ishlash iste'dodi paydo bo'ladi. Uni o'ylashga o'rgatadi, ta'lim jarayonida tafakkur hukmronlik qiladi.

Bu bog'liqlikni, avvalo, ta'limni amalga oshirish bosqichlarida ko'rishimiz mumkin. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich — o'quv materiallarini idrok qilishdan iborat. Bunda o'quvchi-talaba ta'limning mazmuni bilan tanishib, o'zining bilish vazifalari nimalardan iborat ekanligini tushunib oladi. Bunda sezgi, idrok, tasavvur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi.

Ikkinchi bosqich — ular o'quv materiallarini tushunib oladilar, uning mohiyatini anglaydilar va umumlashtiradilar. Natijada, ularda yangi bilimlar paydo bo'ladi. Buning uchun ular analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarishdan foydalanadilar.

Uchinchi bosqich — yangi bilimlar, mashqlar, mustaqil ishlar o'qituvchining qo'shimcha izohlari orqali mustahkamlanadi.

To'rtinchi bosqich — ular o'zlashtirib olgan bilimlarni imkoniyatga qarab amaliyotga tatbiq qiladilar.

Bularni bilish orqali o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishi mumkin. Shuning uchun o'quv jarayonining hamma bosqichlarida o'qituvchi yetakchilik va boshqaruvchilik rolini o'ynaydi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, o'qitish jarayoni bilish faoliyatining muhim tarmog'i sifatida qator vazifalarni bajaradi.

1. O'quvchi va talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qiladi.

2. Ularda dunyoqarash, ishonch va e'tiqodlarini o'stiradi.

3. Yoshlarni muayyan darajada o'qimishli, tarbiyali kishilar bo'lib yetishishlariga, qobiliyat va is'tedodlarini o'stirishga erishiladi.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun o'qituvchida o'z kasbiga layoqat bo'lishi lozim. Layoqatlilik pedagogik mehnatni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo'lishdir. Bu, avvalo, pedagogik kasbning ijtimoiy roli va zaruriyatini yaqqol tasavvur qila olishda ko'rinadi. Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchiga e'tibor bilan qarashi, uning ehtiyoj va xususiyatlarini tushuna bilishi lozim.

O'qituvchi keng ko'lamdagi didaktik bilimlarga, pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari darajasida ta'lim jarayonini tashkil qiladi va boshqaradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ta'lim jarayonining ta'limiy funksiyalari nimadan iborat?
2. Tarbiyaviy rivojlantirish funksiyalari qanday?
3. Ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarni tushuntirib bering?
4. Hozirgi zamon o'qituvchilari qanday bo'lishi kerak?
5. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida aks ettirilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillarini o'rganing. Ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog'i orqali mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi islohotlar haqidagi ma'lumotlarni to'plang va ularni tahlil qiling.

1.9. Ta'lim mazmuni. Davlat ta'lim standartlari. O'quv rejalari va vositalari

1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Bu qonunda ta'kidlanishicha, ta'limning mazmuni har bir o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga va dunyoviy demokratik jamiyat baxt-saodati yo'lidagi yuqori unumli mehnatga barkamol avlod qilib tayyorlash bilan belgilanadi.

Ta'limning asosiy mazmuni uning vazifalarida oydinlashtiriladi. Asosiy vazifalarga aqliy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi.

Yangi demokratik jamiyat qurishda ta'limning mazmuni bu jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib quyidagilarga amal qilgan holda belgilanadi:

- ilmiy bilimlarning yetakchi roli to'g'risidagi qoidaga;
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'rsatilganidek, insoniyatning madaniy-ma'rifiy, merosiy boyliklarini, umuminsoniy qadriyatlarini egallab olish;
- tarbiyalanuvchi shaxsini barkamol qilib rivojlantirish, iymone'tiqodini, ilmiy dunyoqarashini tarkib toptirish;
- ilmiy hayot bilan yangi demokratik jamiyat qurilishi tajribasi bog'liqligi haqidagi qoidaga;
- ta'limning bir maqsadga qaratilganligi yagona talab asosida;
- ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy qonunlariga va didaktik prinsiplariga muvofiqligiga amal qilinadi.

Yangi demokratik jamiyat qurilayotgan bizning mamlakatimizda ta'limning mazmunini quyidagi yo'llar bilan takomillash-tirish nazarda tutiladi:

- fan va tajribadagi eng yangi muvaffaqiyatlarni aks ettirish;
- ikkinchi darajali va ortiqcha murakkablashtirilgan materiallardan qutulish;
- o'rganilayotgan fanlar ro'yxatini va materiallar hajmini aniqlash;
- o'quvchi yoshlar, albatta, o'zlashtirib olishi kerak bo'lgan malaka va ko'nikmalarning optimal hajmini belgilash;
- o'quv fanlariga oid asosiy tushunchalarni va yetakchi g'oyalarni juda ham aniq bayon qilish;
- o'quvchilarni pedagogik texnologiyalar: kompyuter, kseroks, elektron pochta va shu kabi boshqa bilimlar bilan ta'minlash hamda ularda shu texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish.

Umumiy ta'lim — bu o'quvchilarning har tomonlama umumiy tayyorgarligini va rivojlanishini ta'minlovchi fan asoslarini egallab olish.

Kasbiy ta'lim — insonning o'zi tanlagan, nisbatan tor yo'nalishdagi mehnat faoliyatiga xizmat qiladi.

Politexnika ta'limi — o'quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarish asoslari, uning energetikasi haqidagi bilimlar sistemasi bilan ta'minlaydi hamda inson faoliyatining turli sohalaridagi ish operatsiyalarini o'zlashtirib olish uchun ba'zi ahamiyatga ega bo'lgan bir qator mehnat ko'nikma va malakalarini egallash nazarda tutiladi.

Ma'lumot mazmuni — yoshlarning ma'lumoti, taraqqiyoti, tarbiyasi, hozirgi zamon fani, texnikasi, ishlab chiqarish, fikrlashining umumiy asoslarga didaktik ishlov berish yo'li bilan tanlangan bilimlar, ko'nikma-malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi va munosabati.

Ta'lim mazmuni — yoshlarni ma'lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma'lumot mazmunidan tanlanib, ta'lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko'nikma-malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarini emotsional baholashga doir munosabati. Ta'lim mazmuni ma'lumot mazmuni asosida tanlanadi. Ta'lim mazmunini o'rgatish va o'zlashtirish yo'li bilan ma'lumot mazmunini amalga oshirishga, binobarin, yoshlarni ma'lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalashga qarab boriladi.

Formal ta'lim nazariyasi tarafdorlari maktabning vazifasini bolalar taraqqiyotida ko'rishadi. Ular maktabning ishi bilim berish emas, aksincha, bolalarda turli qobiliyatlarni rivojlantirishdan iborat, deb bilishadi. Bilimlarni esa har kim o'zi istagancha, o'z qobiliyatiga yarasha o'rganadi.

O'quvchilarga beriladigan ta'lim mazmuni nimalarda o'z aksini topadi degan savol tug'iladi. Ta'lim mazmuni quyidagi davlat hujjatlari va rasmiy hujjatlarda o'z aksini topadi.

1. O'quv rejasi.
2. O'quv dasturi.
3. Darslik.

O'quv rejasi davlat hujjatidir. Unga barcha umumta'lim maktablari so'zsiz amal qiladi. Bu hujjatda sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va shu fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatiladi. Bu hujjat maktabning yagona o'quv rejasi hisoblanib, u Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Alohida aniq bir fanning o'quv rejasi shu fanni o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatlaridir. O'quv rejasini tuzishda quyidagi omillarga asoslaniladi:

— o'quv tarbiya ishining maqsadi, o'quvchilarga aniq ilmiy bilim berish, olgan bilimlarini ko'nikmaga aylantirib, uni hayotga qo'llay olishga o'rgatish.

Maktab o'quvchilariga bilim berish yoshiga qarab tizimga solinadi va qoidalarga asoslanadi:

- a) boshlang'ich ta'lim — 1—4-sinflar;
- b) umumiy o'rta ta'lim — 5—9-sinflar;
- d) o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari.

Shu o'rinda ta'lim tizimining yangi zamonaviy bo'g'ini bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga ham to'xtab o'tsak.

«Ta'lim to'grisida»gi Qonunga asosan, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining maqomi tenglashtirilgan. Shu bilan birga akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'z oldiga qo'yilgan maqsadlar bilan bir-biridan ma'lum ma'noda farq qiladi.

Akademik litseylar oquvchilarning qiziqishlarini va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishini chuqurlashtirilgan, ixtisoslashtirilgan holda o'qitishni ta'minlaydi. Akademik litseylar, asosan, oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi. Akademik litseylarda har bir o'quvchi o'zi xohlagan mutaxassislik bo'yicha o'qishi mumkin.

Akademik litseylarda o'quvchilarning iqtidorlilari o'zlarini qiziqtirgan mutaxassisliklarda o'qib o'z iqtidorlarini namoyon qiladilar.

Kasb-hunar kollejlari esa, o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallash imkonini beradi. Kasb-hunar kollejlari oldingi bilim yurtlaridan ham mazmunan, ham shaklan farq qiladi. Bu farq, eng avvalo, o'quvchilarni o'qishga qabul qilishdan boshlab, o'quv jarayonining tashkil etilishi, mazmuni va bir necha kasb-hunar egasi, ustasi, kichik mutaxassis bo'lib o'qishni tamomlashdan iboratdir. O'quv jarayoni Davlat ta'lim standartlari, yangi zamon talablariga javob beradigan o'quv reja va dasturlari asosida tashkil etiladi.

Kasb-hunar kollejlarida o'quv dasturlarida oldingi bosqichi umumiy o'rta ta'lim maktablarida, keyingi bosqichi oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlari bilan o'zaro ta'limning uzluksizlik va izchillik prinsiplariga amal qiladi.

O'quv dasturi — har bir alohida fan uchun tuziladi. Dastur o'quv rejasiga asoslanadi. Dasturda fanning mazmuni, mavzu ketma-ketligi, ikkinchi mavzu birinchisini to'ldirishi, izchilligi bilan yoritiladi va ma'lum mavzular orqali ko'rsatiladi. O'quv dasturida mavzuning maqsadi qisqacha izohlanadi.

Fanning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda yo'nalishlari ajratiladi. Ular boblarga bo'linadi. Boblar katta-katta mavzularga, katta mavzular esa kichik mavzularga bo'linadi va o'quvchilarga tushuntiriladi. O'quv dasturining o'zi amal qilishi kerak bo'lgan qoidalari mavjud:

1. Dasturning aniq bir g'oyaga asoslanganligi. Dastur mustaqil jamiyatimiz taraqqiyotining tamoiyillariga asoslangan holda isloh qilingan har bir fan, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlar qirralaridagi erishilgan yutuqlar darajasini ilmiy asosda aks ettirishi lozim. Dastur uzoqni ko'ra bilish qoidalariga asoslanishi kerak.

2. Dastur ilmiylik prinsiplariga asoslanadi. Har bir ta'lim va tarbiya g'oyalari, ilmiy jihatdan tekshirilgan, ishonchli dalillar, kuzatishlar, manbalar va materiallar asosida kiritiladi.

3. O'quv dasturi aniq mazmun va mantiq g'oyalari o'zida aks ettirishi lozim. Dasturda fanning maqsad va vazifalari undagi bilim asoslari misollar va masalalar orqali o'rganiladi. Aks holda, tushuntirish qiyin bo'ladi.

4. Nazariyot bilan amaliyotning birligi prinsiplari. Talabalar nazariy olgan bilimlarini amalda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirishi nazarda tutiladi.

5. O'quv dasturini tuzishda fanning tarixiy saboqlari inobatga olinadi. Vaqt o'tishi bilan fan olamida yangi-yangi kashfiyotlar, ma'lum bir ilmiy qonun-qoidalar paydo bo'lib, fan takomillashib boradi.

O'quv dasturi davlat tomonidan tasdiqlangan reja asosida bakalavriyat, magistratura, litsey, gimnaziya, kollejlarga alohida-alohida tuziladi.

Darslik — o'quv jarayonining asosi. O'quvchining uydagi muallimi, yordamchisi. Darslik quyidagi talablarga amal qilgan holda yaratiladi.

— darslikda aks etgan ilmiy bilimlar sinf o'quvchilarining yosh xususiyatiga mos kelishi kerak;

— darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asosi, g'oyalari tizimli va izchil bo'lishi talab qilinadi. Ular hayotdan olingan, ishonarli bo'lishi lozim;

— nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'langan bo'lishi kerak;

— darslikda mavzu sodda, ravon tilda yozilishi hamda tegishli qoida va ta'riflar berilishi kerak;

— darslik ichidagi va muqovasidagi rasmlar va bezatilishi o'quvchining yoshiga, fanning xarakteriga monand bo'lishi kerak.

6. Mavzulardagi fikrlar aniq va qisqa bo'lishi, ilmiylikka asoslanishi kerak.

O'quv predmetlari — har bir o'quv predmetida o'ziga oid fanning umumiy asoslari beriladi. Fan va o'quv predmeti bir-biridan quyidagi belgilariga ko'ra farq qiladi:

Birinchidan, fan hajm va mazmun jihatidan keng bo‘lib, unda shu fanga oid g‘oyalar, qarashlar, bilimlar, tushunchalarning barchasi o‘z aksini topadi. O‘quv predmeti hajmi nisbatan tor bo‘lib, unda bolalarning hayotiy tajribalari, real imkoniyatlariga mos ke-ladigan bilimlarni o‘rgatish ko‘zda tutiladi.

Ikkinchidan, fan hamma uchun — barcha yoshdagilarga bir xil xizmat qiladi. O‘quv predmetlari esa, faqat yoshlarga mo‘ljallab tuziladi.

Uchinchidan, fan va o‘quv predmetining faqat o‘zigagina xos vositalari mavjud.

To‘rtinchidan, fan o‘zini-o‘zi rivojlantiradi. O‘quv predmetlari esa, yoshlarni ma‘lumotli qiladi, rivojlantiradi, tarbiyalaydi.

Lekin farqlariga qaramasdan ular o‘zaro uzviy bog‘langan. Fan rivojlangan sari o‘quv predmetlari sayqallashib, takomillashib boradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. «Ta’lim to‘grisida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta’lim mazmuniga qo‘yilgan talablarni tahlil qiling.
2. Ta’lim mazmunining belgilanishini o‘rganing, uning tarixiy xarakterini tahlil qiling.
3. Umumiy o‘rta ta’lim davlat standartlari asosida ta’lim mazmunining ifodalanishini o‘rganing.
4. Ta’lim mazmunini aks ettiruvchi normativ hujjatlarni bilasizmi?
5. Moddiy ta’lim va formal ta’lim nazariyalari g‘oyalarini T-chizma asosida solishtirib, tahlil qiling:

Moddiy ta’lim nazariyasi		Formal ta’lim nazariyasi	
Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari	Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari

1.10. Ta’lim metodlari va vositalari

O‘qitish metodi deganda ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi. O‘qitish usullari ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining qanday bo‘lishini, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. O‘qitish usullari har ikkala faoliyatning o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurol-

lantirish; o'quvchilar tomonidan berilayotgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llanadigan yo'llarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim berish o'qituvchidan izlanishni, pedagogik mahoratni talab qiladi. Ilmiy salohiyati boy bo'lgan ustozgina mavzuni talabalarga mahorat bilan yetkazib beradi. Mavzuning maqsadiga qarab, ta'lim metodlarini tanlay biladi, kerakli vositalardan o'z o'rnida foydalanadi. Ta'lim metodi ta'limning maqsadi va vazifalariga bog'liq. Metodlar o'quvchilarning yoshiga ta'limning mazmuniga va funksiyasiga qarab tanlanadi.

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarining bilim saiyasi, o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbayi, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- o'qitishning og'zaki metodi;
- o'qitishning amaliy ishlar metodi;
- o'qitishning ko'rgazmali metodi;
- muammoli evristik modellashtirish metodi;
- o'qitishning muammoli izlanish va reproduktiv metodi;
- o'qitishning induktiv va deduktiv metodi;
- o'qitishda rag'batlantirish va tanbeh berish metodi;
- o'qitishda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodi.

O'quv informatsiyasini so'z orqali uzatish va informatsiyani eshitish orqali qabul qilish metodlariga nimalar kiradi va ularga qanday talablar qo'yiladi? O'qitishning og'zaki usullari uch turga: a) o'qituvchining hikoyasi; b) suhbat; d) ma'ruza shakliga bo'linadi.

Hikoya usuli boshlang'ich sinflarda qo'llansa, yuqori sinflarda ma'ruza usuli ko'p qo'llaniladi. Ta'lim mazmuni notanish bo'lsa hikoya va ma'ruza usullaridan foydalaniladi. Ta'lim mazmuni o'quvchiga qisman tanish bo'lsa, suhbat usuli qo'llaniladi. Og'zaki bayon qilish usulida har ikkala faoliyatning o'qituvchining bayon qilishi va o'quvchilarning shu bayon qilingan bilimlarini diqqat bilan tinglab, ongli va mustahkam o'zlashtirishlari birligiga amal qilinadi.

Hikoya maktab ta'lim tizimida eng ko'p qo'llanadigan usul bo'lib, u hamma sinflarda barcha fanlarni o'qitishda, maktab ta'limining hamma bosqichlarida qo'llaniladi. Boshlang'ich sinflarda bu ancha qisqa va aniq, sinflarning o'rta guruhiga kelib hikoya ancha kattaroq hajmda va davomli bo'ladi. Yuqori sinflarda hajmi katta bo'ladi, ma'ruzadagi kabi butun darsni band qilmaydi.

Nutq madaniyatini o‘stirishda hikoyaning o‘rni katta. Shu jihatdan o‘qitishning og‘zaki usullari ta‘limda doimo eng ko‘p qo‘llaniladi.

O‘quv ma‘ruzasi — o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish uchun mo‘ljallangan. Uning hajmi hikoyadan katta bo‘ladi. O‘quv ma‘ruzasi dars yoki mashg‘ulotning barcha qismini egallab oladi.

Ma‘ruza, asosan, yuqori sinflar, kollej va oily o‘quv yurtlarida qo‘llanadi. Ma‘ruzasi o‘tilayotgan mavzuning haqiqiy ilmiy mohiyatini ochib berish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va umumlashtirish yo‘li bilan to‘liq mashg‘ulot davomida bilimlarni izchillik bilan bayon etishdir.

O‘quv materialini og‘zaki bayon qilish usuli bir qator didaktik qoida va talablarga asosan qo‘llanadi.

1. Bayon qilinayotgan materiallar g‘oyaviy jihatdan mazmunli nazariyani amaliyot bilan bog‘lashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

2. Bayon qilinadigan materiallarning tarbiyaviy ahamiyatini to‘g‘ri ko‘rsatish orqali o‘quvchiga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish.

3. Bayon qilishda o‘quvchining nutqi yagona manba hisoblanadi va u nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

4. Bayon qilishda o‘qituvchi ishlatadigan ta‘riflar, qoida va qonunlar kitob matnididan farq qilishi, mazmuniga mos bo‘lishi kerak.

Suhbat usuli — savol-javob usuli deb ham yuritiladi.

O‘quvchilar darsga yetarli darajada tayyor bo‘lsa, o‘qituvchi rahbarligida muammoli savollarga javoblarni o‘zlari axtarib topadigan suhbatlar maqsadga muvofiqdir. Bunday suhbatlar evristik izlanish, axtarib topish xarakterida bo‘ladi.

O‘qitish jarayonida o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo‘llanadi. Suhbatlar ayniqsa, o‘qitishning tarbiyalovchilik xarakterida dunyoqarash, e‘tiqodni tarkib toptirishda qo‘l keladi. Suhbatlar butun sinf hamda o‘quvchilarning ayrim guruhlar bilan ham o‘tkaziladi. Suhbatlar orqali o‘quvchilarning o‘z hayotlarida uchratgan voqea-hodisalar yuzasidan savollar berish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikr qilishlarini amalga oshiradigan holatlarga e‘tibor qilish, o‘quvchilarning ilgari o‘rgangan tayanch bilimlarini esga tushirishga erishish lozim, suhbat usuli bilan ish ko‘rganda o‘qituvchi quyi-dagilarga amal qilishi lozim:

1. O‘qituvchining suhbat uchun tayyorlab kelgan savollari sinf o‘quvchilarining hammasiga taalluqli bo‘lib, so‘roq o‘rtaga tashlanishi kerak.

2. O'quvchilardan biri javob berish uchun chaqiriladi.

3. Sinfning hamma o'quvchilari javob berayotgan o'quvchini qunt bilan tinglashi, uning javobini to'ldirishi, tuzatishi, oydinlashtirishga yordam berishini ta'minlashi kerak.

4. O'quvchilarning javobi qay darajada to'g'ri-noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar o'qituvchi tomonidan izohlanishi, yakunlanishi va baholanishi zarur.

Ta'lim jarayonida turli ko'rgazmali qurollardan foydalanishga harakat qilinadi. Ko'rgazmali usulning muhimligi o'rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mu-shohada qilishga o'quvchini undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishga, nihoyat, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

Ta'limda ko'rgazmalilik usuli namoyish etish, ilustratsiya va ekskursiya tariqasida olib boriladi.

Ta'lim jarayonida namoyish etish usulidan foydalanish asosiy materialning xarakteriga — mazmuni, shakli va hajmiga bog'liq. Bu xarakter ikki turlidir.

Aslicha ko'rsatilishi mumkin bo'lgan buyum va narsalar: o'simliklar, ularning tarkibi, hayvonlar, ma'danlar, kolleksiyalar, asbob va mashinalar, modellar.

Tasviriy ko'rgazmali materiallar ikkiga bo'linadi: birinchidan, buyum, narsa, hodisa va voqealarning tasvirini ifodalovchi materiallar, rasm, surat, fotosurat, diafilm, ikkinchidan buyum, narsa, voqealarning biror shartli belgisi orqali ifodalangan simvolik va sxematik tasviriy materiallar, geografiya va tarix kartalari, chizmalar, jadvallar, diagrammalar.

Tasviriy ko'rgazmali materiallar turliligi har xil qo'llashni talab etadi.

1. Buyum va narsalarni tabiiy holda ko'rsatish ikki usulda namoyish etiladi:

a) o'tilayotgan mavzuga oid badiiy ko'rgazma materiallari o'quvchi bayon qilayotgan bir vaqtda (faqat o'qituvchi ko'rsatadi);

b) tabiiy ko'rgazmali materiallarning soni yetarli bo'lsa, ular har bir o'quvchiga tarqatib beriladi.

2. Tasviriy ko'rgazmali materiallarning har ikkala turini ham ikki xil usulda olib borish mumkin:

a) ko'rgazmali materiallarni o'qituvchi namoyish etadi;

b) ko'rgazmali materiallar o'quvchiga tarqatiladi.

O'qitilayotgan mavzuning xarakterini hamma vaqt sinfda ochib bo'lmaydi. Bu holda nima qilish kerak? Ekskursiya metodidan foydalanish mumkin. Mavzuni ekskursiya usuli bilan ham ko'rsatish mumkin. Bu usulda o'rganilayotgan narsa-hodisalarni tabiiy sharoitda zavod, fabrika, tabiatda, muzey, ko'rgazmalarda tashkiliy ravishda ko'rsatiladi. Agar ko'rsatilayotgan joyda o'tilayotgan mavzu mazmunini keng ochib berish imkoni bo'lsa, buni o'qituvchi oldindan borib kuzatib, keyin o'quvchilarni olib boradi, ekskursiya usulidan foydalanadi, o'quvchilar ekskursiya davomida obyektga oid ma'lumotlarni eshitish yoki kuzatish bilan chegaralanmasdan, zarur materiallarni yozib oladilar, rasmini chizadilar, o'lchash, hisoblash ishlarini olib boradilar.

O'qituvchi ekskursiya oxirida mulohaza va fikrlarni umumlashtirib, xulosa chiqaradi va mashg'ulotni yakunlaydi.

O'qitishning amaliy usullari doirasi keng. Bu usullarga: yozma mashq, tajriba, laboratoriya xarakteridagi mashqlar, mehnat topshiriqlarini bajarish kabilar misol bo'ladi.

Yozma mashqlar jarayonida olingan nazariy bilimlar bevosita amaliyotda qo'llanadi. Mashq qilish davomida ilmiy bilim va ma'lum ish-harakat o'zlashtiriladi, takomillashadi, ular aniq o'quv fanining xakteri hisobiga maqsadli, rejali tarzda amalga oshadi. Mashq davomida har bir mashq e'tiborga olinadi. Masalan, ona tilidan grammatik tahlil, matematikadan misol, masala yechish, tabiiy fanlardan ximiyaviy tenglamalar tuzish, koeffitsiyentlar tanlash, o'simliklarni turlarga ajratish va h.k. Mashq davomida ilgari egallangan bilim, ko'nikma, malakalar, qonunlar faoliyatga tatbiq etiladi.

O'quvchilarning o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosida mashq qilishda muhim amallar quyidagicha:

— mashq uchun berilgan topshiriqning maqsadi o'quvchilarga aniq tushuntirilgan bo'lishi;

— mashq ustidan sinf, o'quvchilar jamoasi va har qaysi o'quvchilarning shaxsiy intilish, qiziqishini hisobga olishi;

— topshiriq butun sinf o'quvchilarining aktiv faoliyatini ta'minlaydigan bo'lishi va mashqni belgilangan vaqt ichida bajarishi talab etiladi.

Mashq qilishda o'quvchilarning yozma, ijodiy mashqlari alohida o'rin egallaydi. Yozma ijodiy mashqlar ona tili, adabiyot, tarix, geografiya fanlarida ham qo'llanadi. Ular insho, va'z, referatlar yozish kabilarda o'z aksini topadi.

Amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarga umumiy politexnik ta'lim berish va mehnat malakasi bilan qurollantirishda asosiy usul bo'lib xizmat qiladi.

Psixologik test:

1. Qarsak chalish.
2. Qo'llarni chalishtirish.
3. Oyoqlarni chalishtirish.
4. Varaqchada tirqish hosil qilib, unga qarash.

Xulosa: qaysi qo'l panjalari ko'p harakat qilgan bo'lsa, chap yoki o'ng miya sharlari ishtirok etadi

Har qanday ta'lim o'quvchi uchun muammolidir. O'quvchi ongida muammoli vaziyatni vujudga keltirish, o'quvchining faol fikrlash faoliyati, o'quv materialini puxta o'zlashtirib olishlari haqida sharq pedagoglari qimmatli fikrlar aytib o'tganlar. Muta-fakkir Abu Rayhon Beruniy (937—1048) didaktik qarashlarida o'quvchilarni o'qitish hamda tarbiyalash jarayonida birinchidan turli mavzularda mulohazalar yuritishni, o'quvchining zerik-masligini, zo'riqmasligini ta'kidlagan.

Muammoli vaziyatda:

- o'quvchi uchun bilish qiyinchiligiga ega, ya'ni o'rganila-yotgan muammo ustida fikr yuritish;
- o'quvchilarda bilishga qiziqish o'yg'otish;
- tahlil jarayonida o'quvchilarning avvalgi tajribasi va bili-miga suyanish.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatni vujudga keltirish, un-dan foydalanish usullarini yaratish, ta'lim tizimining har bir bosqi-chida o'rganiladigan fanlarga xosdir.

Muammoli vaziyat fanning mazmuni, o'ziga xos xarakter xusu-siyatlari, uni o'rganish usullarini hisobga olgan holda yaratiladi.

Ta'lim jarayonida o'qitishning induktiv va deduktiv usulla-riga ehtiyoj sezilmoqda. Induktiv yoki deduktiv usullarni qo'l-lash o'rganilayotgan mavzu mazmunini ochishning ma'lum manti-g'ini — xususiyydan umumiyga yoki umumiydan xususiyyga o'tishni tanlashni anglatadi. Induktiv usullar texnik qurilmalarni o'rga-nishda va amaliy topshiriqlarni bajarishda keng qo'llaniladi. De-duktiv usul o'quv materialini tezroq o'tishga yordam beradi, ta-fakkurni birmuncha faol rivojlantiradi.

Nazariy materialni o'rganishda anchagina umumiy holatlardan ayrim oqibatlarani aniqlashni talab qiluvchi masalalarni yechishda deduktiv usulni qo'llash foydalidir.

O'quv faoliyatini rag'batlantirish deb, kishining aktiv faoliyatiga bo'lgan tashqi mayliga aytiladi. Shu sababli rag'batlantirish o'qituvchi faoliyatining omili hisoblanadi. Rag'batlantirish kishining ichki mayliga ta'sir qilganda real maqsad sari undaydigan kuchga aylanadi. O'qishga qiziqishni rag'batlantirish turlaridan biri o'qishda ma'lum qiynchilik sezayotgan o'quvchilarga muvaffaqiyatli sharoit yaratishdir. Rag'batlantirish va tanbeh berish usullari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Rag'batlantirish: baho bilan, imo-ishora bilan, mukofot bilan amalga oshadi. O'qishga doir tanbehlar dars paytida, og'zaki tanbeh berish, bahosini pasaytirib qo'yish, ish daftariga yozish, xatolarni ko'rsatish kabi usullar bilan amalga oshadi.

Maktabda o'quvchiga tan jazosi berish, o'zlashtirmagani uchun haqorat qilish, shaxsiga tegish, yomon iboralar bilan so'kish aslo mumkin emas.

Og'zaki va o'z-o'zini nazorat qilish quyidagicha:

1. Yozma nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish.
2. Laboratoriya — amaliy nazorat va o'z-o'zini nazorat.
3. Test nazorati (kartochkalar tarqatiladi).

O'qitish tizimida nazoratning zarurligi shundan iboratki, butun o'quv yurtlari tizimida samarali ishlayotganligi haqida axborot olishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj hisobga olinadi. Nazorat maktabdagi o'qitish jarayoniga xos bo'lgan: ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantirishdek asosiy vazifalarni bajaradi. Nazoratni quyidagi turlarga bo'lamiz.

Og'zaki nazorat — yakka va guruhiy so'rash yo'li bilan amalga oshiriladi. Alohida so'rashda o'qituvchi ma'lum vaqt davrida o'quvchilar bilimlarni qay darajada egallaganliklarini aniqlaydi. O'quvchilarning bilimi ona tili, matematika, fizika, kimyo fanlarida yozma tarzda ham baholanadi.

Yozma ishlar turli davomiylikka ega. Ba'zida qisqa, ba'zida esa to'la dars davomida yozma ishlar o'tkaziladi. Yozma nazoratda baholar obyektiv bo'lishi va o'quvchilarning tipik xatolari aniqlanib, kelgusida ularning bartaraf etilishi belgilab olinadi. O'z-o'zini nazorat qilish o'quvchilarning o'quv faoliyatining muhim elementidir. Nazorat kelgusidagi ishlarga reja tuzish, nimalarga e'tibor berish kerakligini aniqlab beradi.

Ta'lim maqsadini muvaffaqiyatli amalga oshirish yo'lida ta'lim vositalaridan foydalaniladi. Kompyuter, EHM, kodaskop, filmoskop, logorifm lineykasi, sirkul, apparat turlari bular jumlasiga kiradi.

Ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ulardan o'rinli foydalanish ta'lim samarasini ta'minlashga yordam beradi. Ta'lim metodi mavzuning maqsadiga qarab tanlanadi.

I N S E R T U S U L I (texnikasi)

Insert — samarali o'qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi.

Insert — avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo'yilish muolajasi. Shundan so'ng matnda uchraydigan, har turdagi axborotlarning belgilanishi.

Insert — matn bilan ishlash jarayonida ta'lim oluvchiga o'zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini ta'minlovchi kuchli asbob.

Matnda belgilash tizimi

($\sqrt{\quad}$) — men bilaman deganni tasdiqlovchi belgi;

(+) — yangi axborot belgisi;

(-) — meni bilganlarimga zid belgisi;

(?) — meni o'ylantirib qo'ydi. Bu bo'yicha menga qo'shimcha axborot kerak belgisi.

$\sqrt{\quad}$	+	—	?

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O'qitish usullarining ta'lim jarayonidagi ahamiyati qanday?
2. Uslub va vosita nima? Ularning mohiyatini ochib bering.
3. O'qitishning og'zaki usuli qanday turlarga bo'linadi?
4. O'qitishning ko'rgazmali usulidan foydalanishga qo'yilgan talablar qanday?
5. O'qitishning amaliy usullariga nimalar kiradi?
6. O'qitishning induktiv va deduktiv usullarini qo'llashga doir misollar keltiring (mutaxassislik faningiz misolida).
7. Agar siz o'qituvchi bo'lganingizda ta'lim tizimini yaxshilash uchun yana qanday metodlarni tatbiq etgan bo'lardingiz? Muammoli izlanish va reproduktiv metodlarining qo'llanilishini o'z mutaxassislik faningiz misolida aytib berishga tayyorlaning.

II bo‘lim. PSIXOLOGIYA ASOSLARI

2.1. Psixologiya fanining predmeti va uning amaliy vazifalari

Inson mavjud ekan u o‘zining hayotiy tajribasiga asoslanib, u yoki bu holda idrok etish, olamni anglash, narsa va hodisalarni ajratish kabi xususiyatlarga ega ekanligi haqida o‘ziga-o‘zi hisob beradi. Inson olamni qabul qilibgina qolmay, unda harakatlanadi, o‘z faolligini namoyon etadi, qaror qabul qiladi, maqsadga intiladi, qiyinchiliklarga duch kelganida qat’iyatlilik va irodaviy sifatlarini namoyon qiladi.

Inson biror bir jihati bilan boshqalardan farq qiladi: kimdir texnikaga, boshqa birov musiqaga, yana kimdir sportga qiziqadi, boshqada she‘r yozish, amaliy san‘at, to‘qish, rasm chizishga turli xil qobiliyatlar mavjud; psixologik xususiyatlariga ko‘ra: harakatchan, bosiq, sho‘x, befarq, dilkash, ozorlanuvchan, qaysar, asabiy mehnatsevar va kamsuqum va hokazo.

Bularning hammasi — sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, his-tuyg‘u, iroda, temperament va xarakterlar inson psixikasining hodisalari.

Psixik hodisalarni o‘rganuvchi fan — psixologiya deb ataladi. Psixologiya (yunoncha, psyche — ruh, logos — bilim, ilm, fan) insonning obyektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, his-tuyg‘u va boshqa psixik holatlar orqali aks ettirish jarayonlari, qonuniyatlarini o‘rganadigan fandır. Psixologiyaning predmeti konkret shaxs, uning jamiyatdagi xulq-atvori va turli faoliyatlarning o‘ziga xos tomonlaridir. Psixologiya konkret fan sifatida psixik faoliyat qonuniyatlarini, uning ro‘y berish mexanizmlari va omillarini o‘rganuvchi fandır. Psixologiya fanining asosiy vazifasi — psixik hodisalarni o‘rganish va ilmiy asoslashdir. Axir barcha narsalar kabi psixik hodisalar ham ma‘lum qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Psixologiya shu qonuniyatlarni hammaga, ularning tarkib topishi va rivojlanishini ochishga qaratilgandır. Ushbu qonuniyatlarni bilish, ularni bosh-

qarish, tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini to'g'ri olib borishga yordam beradi. Ilmiy psixologiyaning predmeti deyilganda, avvalo, psixik hayotning konkret faktlari nazarda tutiladi. Psixik xarakterga doir har bir fakt esa, ham miqdor ham sifat jihatidan xarakterli xususiyatga ega. Ilmiy jihatdan bilish hodisalarni tasvirlash, ularni tushuntirib berish muqarrar talab qilinadi. Bu esa, o'z o'rnida, qonunlar mohiyatini ochib berish imkonini beradi. Demak, psixologik faktlar bilan birgalikda psixologik qonunlar psixologiya fanining o'rganiladigan predmeti bo'lib yuzaga chiqadi, shuningdek, psixik holatning mexanizmlarini aniqlashdan iboratdir. Ushbu muammolar fiziologiya, biofizika, bioximiya, kibernetika bilan birga ochib beriladi.

Psixologiya juda qadimiy va shu bilan birga navqiron fandır. Psixik hodisalarning ilk talqini qadimgi yunon olimi Aristotelning «Jon haqida» nomli asarida berilgan. Arastu kishilik tafakkuri tarixida birinchi bo'lib, ruh va jon tananing ajralmas bo'lagi ekanligini ilgari surdi. Arastu organizmning tabiatdan olgan imkoniyatlar tufayli va xususiy faolligi orqali ro'yobga chiqadigan xarakterning real faoliyatda shakllanishi haqidagi nazariyani yaratdi. Demak, kishining adolatparvar va ko'ngilchan bo'lishi uning adolatli va me'yordagi harakatlarni tez-tez takrorlayverishi natijasida ro'y beradi.

Psixologiya fanining eksperimental, psixoanalitik, bixevioristik, emperik, geshtalt, assotsiativ, psixogenetik, gumanistik, biogenetik, sotsiogenetik kabi yo'nalishlari tomonidan to'plangan ma'lumotlar hozirgi zamon psixologiyasini vujudga keltirdi va uning predmetini, tadqiqot prinsiplarini aniqlab berdi

Sharqda psixologik qarashlarning paydo bo'lishida buyuk sharq mutafakkirlarining roli juda katta bo'lgan. Ular orasida Al Xorazmiy, Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Davoniy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy kabi allomalar o'zlarining inson psixikasi va yosh avlodni tarbiyalashga doir boy fikrlari va qarashlarini meros sifatida qoldirganlar. Ular orasida, ayniqsa, Abu Ali ibn Sinoning mantiq, metafizika, tabiiy fanlar (ayniqsa, tibbiyot) haqidagi fikrlari o'sha davr ilmiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. U maxsus psixologik muammolar bilan shug'ullangan, birinchi bor psixologiya fanida tajriba amalga oshirgan alloma hisoblanadi. Uning ruh, asab tizimi, miyaning funksional tuzilishi haqidagi fikrlari asab tizimining zamonaviy qarashlariga o'xshashdir. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sinoning tempera-

ment haqidagi ta'limoti, har bir kishiga uning temperament xususiyatlariga qarab yondashish zarurligi fikrlari ming yildan so'ng ham zamonaviy psixologiyada o'z aksini topgan. Abu Ali ibn Sinodan so'ng Markaziy Osiyoda psixologik muammolar bilan shug'ullangan biror bir olim uchramagan bo'lsa-da, xalq og'zaki ijodiyotida, shoirlar she'riyatida psixologik qarashlarni ko'rish mumkin.

Adabiy qahramonlar orqali aytilgan fikrlar ma'lum tasavvurlarni tashkil etib, ular ilmiy qarashlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qildi hamda shu bilan birga psixologiyaning fan sifatida tarkib topishiga asos soldi. Rumiylar birinchi bo'lib olamning zarradan koinot qadar o'zaro bivositaligi, bir-biri bilan tortilib turishi, dialektik taraqqiyoti (oddiydan murakkab sari rivojlanishi, hamma yerda zaruriyat va qarama-qarshiliklar birligining mavjudligi) haqida fikrlar bayon etgan. Ruhning ichki intizomi fikrdan paydo bo'lishi va yo'qolishi, tasavvur va tafakkur, xayol va borliqning ongga, ongning borliqqa ta'siri inson mavjudligini aniqlaydigan belgilar insondan aldanish yolg'on tasavvurlar va chin bilim, tajriba, tahlil, aniqlik va mavhumlik kabi yuzlab masalalar yuzasidan bahs yuritilgan. Psixologik konsepsiyalarning rang-barangligi sababli va fan-texnikaning rivojlanishi ta'siri bilan psixologiya o'zining tadqiqot obyektlariga ega bo'lgan ko'plab sohalarga ajrala boshladi. Hozirgi davrda psixologiyaning nazariy va amaliy yutuqlari atrof-muhit hamda jamiyatning juda keng qirralariga tatbiq qilinmoqda.

Psixologiya fanini muayyan sohalarga bo'lishda aniq, yaqqol faoliyatning psixologik tomoni, insonning jamiyatga nisbatan psixologik munosabati, taraqqiyotning psixologik jabhasi asos qilib olingan. Psixologiya iqtisod, pedagogika, falsafa, mantiq, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy gumanitar fanlar bilan aloqador fan hisoblanadi. Chunki hamma sohada inson-shaxs faoliyat ko'rsatar ekan har bir sohada ishni samarali tashkil etish, olib borish uchun kishilar psixologiyasini, odamlarning turli vaziyatlardagi xulq-atvor normalarini bilish va shunga ko'ra ish olib borish muhimdir.

Hozirgi kunda psixologiyaning 300 dan ortiq tarmoqlari fan sifatida rivojlanayotganligi uning fanlar tizimida yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi. Umumiy psixologiya — psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlari va ularning o'ziga xos jihatlari o'rganadigan maxsus soha. Pedagogik psixologiya — insonlarga ta'lim va tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'rganishni o'z predmeti deb biladi. Yosh davr psixologiyasi —

turli yoshdagi odamlarning tugʻilgandan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi va oʻzaro munosabatlari qonuniyatlarini, individning yoshiga xos tarzda oʻzgarish tamoyillarini oʻrganadi.

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda mentaletning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yoʻnalishdagi muammolarni maʼlum maʼnoda oʻrganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqozo etadi. Bular, birinchi navbatda, ijtimoiy gumanitar fan sohalari boʻlib, psixologiyaning ular orasidagi mavqeyi oʻziga xosdir.

Psixika — bu yuksak darajada tashkil topgan materiyaning sistemali xususiyati, subyekt tomonidan obyektiv borliqni faol aks ettirish, mazkur borliq manzaralarini subyekt oʻzidan uzoqlashtirmay ifodalashi, xuddi shu asnoda oʻz xulqini va faoliyatini shaxsan boshqarish.

Evolutsion taraqqiyot davomida psixikaning eng sodda koʻrinishidan inson ongigacha taraqqiyoti bir qancha bosqichlardan iborat boʻlgan. Tirik organizmlarda uzluksiz oʻzgarib turuvchi hayot sharoitlariga muvofiqlashuvini taʼminlaydigan harakat fikrlari instinktiv, individual va harakatning intellektual shakli maydonga kela boshlagan. Tirik organizmning psixik rivojlanish jarayoni bir-biridan tamomila ajralib turuvchi 2 davrni oʻz ichiga oladi: hayvonlar psixikasining rivojlanishi biologik qonuniyatlarga; irsiyat, oʻzgaruvchanlik, tabiat, saralanish qonunlariga boʻysunadi va odam ongi rivojlanadi.

Psixikaning rivojlanishini, umuman, tirik organizmlar rivojlanishi kabi ikki reja asosida oʻrganish mumkin: filogenez va ontogenez.

Filogenez — organizmning oddiy shakllaridan tortib hozirgi zamon kishisiga qadar butun bir biologik rivojlanish jarayonida yuz bergan oʻzgarish.

Ontogenez — har bir individning hayoti davomida tugʻilishidan tortib to hayotining oxiriga qadar sodir boʻlgan oʻzgarish yigʻindisi. Yerda hayot paydo boʻlishi materiya taraqqiyotidagi yangi bosqich, materiya tuzilishiga koʻra ancha murakkab alohida xossalarga ega boʻlgan.

Seskanuvchanlik psixikaning paydo boʻlishida zaruriy xususiyat, majburiy shart-sharoitdir. Hayvonlarga mansub shakllarda taʼsirlanuvchanlikning yangi turi — sezuvchanlik paydo boʻladi. A.N. Leontyevning farazlariga koʻra, sezuvchanlik genetik jihatdan qaraganda muhitning organizmni boshqa taassurotlar bilan

bog'lovchi, organizmni muhitda mo'ljal olishiga yordam beruvchi, signallik vazifasini o'tovchi ta'sirlariga javob ta'siridan bo'lak narsa emas. Ta'sirlanuvchanlikdan sezuvchanlikka o'tish hayot tarzi-ning o'zgachaligi bilan bog'liqdir. Yaxshi rivojlangan hayvonlarda sezuvchanlik oshib, sezgi organlari shakllanadi. Taraqqiyotning elementar sensor bosqichidan kompleks kuzgatuvchilarning, predmetlarning butunligiga aks ettirish bilan ifodalana-digan qobiliyatiga, ya'ni perseptiv aks ettirishga o'tish amalga oshiriladi. Yashash sharoitlarining murakkablashuvi tirik organizmlarning muhitga moslashuvi zaruriyatini, materiyani sifat jihatdan o'zgarishining aks ettirish usullarini takomillashtiruviga, xatti-harakatlari maqsadga muvofiq, ephil bo'lishiga olib keldi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Psixologiya predmetiga tushuncha bering?
2. Psixologiya fanining fanlar tizimida tutgan o'rnini aniqlang va tushuntiring?
3. Psixologiya nimani o'rganadi? Psixik jarayonlar, psixik holatlar, psixik xususiyatlarga tushunchalar bering?
4. Psixologiyaning fan sifatida rivojlanish bosqichlarini ayting.
5. Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlarini bayon qiling.

Vaziyat: 8-sinf o'quvchilaridan ikkitasi o'z o'qituvchilarini xursand qilish uchun shahar parkida chiroyli bo'lib ochilib turgan gullardan katta bir guldasta qilib, ustozlariga sovg'a qilayotgan paytlarida sinfga bir qariya kirib, mehnatini hurmat qilmagan bolalarni jazolashini o'qituvchidan talab qilmoqda. Ustoz qoloq o'quvchilarning bunday e'tiborlaridan boshi osmonda xursand bo'lib turgan edi, sovg'a o'g'rilik ekanini bilgan zahoti lol bo'lib qoldi. O'qituvchi shunda ...

Ushbu vaziyatni asosli tarzda guruhda bahs-munozara yo'li bilan tahlil qiling. Xulosalar chiqaring.

2.2. Psixika va ongning taraqqiyoti

Inson psixikasi — psixika taraqqiyotining eng oliy bosqichi. Psixika (yunoncha psychiros-ruhiy) — yuksak darajada tashkil topgan materiya — miyaning funksiyasi. Uning mohiyati tuyg'u, idrok, tasavvur, fikr, iroda va boshqalar ko'rinishida aks ettirishdan iboratdir. Inson ongi o'z mohiyatiga ko'ra, hayvonlarning instinktiv, individual va intellektual harakat formalaridan batamom bosh-

qacha, nihoyatda murakkab hodisadir. Inson ongi evolutsion taraqqiyotning eng so‘nggi bosqichi, ya‘ni inson taraqqiyoti bosqichidan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot tufayli tarkib topgan. Inson ongi insonning o‘zi bilan birga, deyarli bir vaqtda maydonga kelgan. Ong tarixiy taraqqiyotning ikkinchi yo‘nalishi — odamlarning amaliy faoliyatlari bilan amalga oshiriladigan va tekshirib ko‘riladigan insonning bilish faoliyatining doimo rivojlanish jarayoni. Ongning tabiati — ong odamning borliq haqiqatini aks ettirish formasini tariqasida keladi. Ongning asosiy belgilari — odam ongining psixologik xarakteristikasi, so‘z va ma‘noning ongni tashkil qiluvchi tushunchalar sifatida kelishi, odam ongining borliqdagi narsa va hodisalarni, ularning eng barqaror muhim belgilari va xususiyatlarini ma‘lum darajada so‘z bilan umumlashtirib ifodalaydi, aks ettiradi. Psixika va ongning paydo bo‘lish taraqqiyoti inson ongining paydo bo‘lishining dastlabki shart-sharoitlari, kishilarning birgalikdagi faoliyati, mehnat taqsimoti, kishilar o‘rtasidagi mulqotning borgan sari faollashib borishi, til asosida turli so‘z signallaridan, belgilar tizimidan foydalanish, insonning moddiy va ma‘naviy madaniyati, inson boyliklarining yaratilishi, ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish, avloddan avlodga berish, saqlash bilan bog‘liq.

Ongning paydo bo‘lishi taraqqiyotida filogenetik — organizmning oddiy shaklidan tortib murakkab, to hozirgi zamon kishisiga qadar rivojlanish jarayoni juda uzoq tarixiy, ijtimoiy, biologik o‘zgarishlar yuz bergan davrlar bilan xarakterlanadi. Ontogenetik taraqqiyotda har bir individ hayoti davomida murakkab o‘zgarishlar tizimini bosib o‘tadi. Murakkab ko‘rinishdagi shart-sharoitga moslashish refleksi qobiliyatining paydo bo‘lishi taraqqiyotiga olib boradi. Ongning rivojlanishini ta‘minlovchi omillar — hozirgi zamon sharoitida yoshlarning har tomonlama kamol topishi, mustaqil fikrlash, atrofidagi o‘zgarishlarga ochiq ko‘z, teran fikr bilan munosabatda bo‘lishi mumkin ijtimoiy o‘zgarishlarda faol ishtirok etishlari lozim. Buning uchun fan yutuqlari, umumxalq madaniyatining o‘zlashtirilishi, o‘z-o‘zini boshqarishning yangi vositalaridan foydalanish zarur. Ishlab chiqarish korxonalarini yangi texnologiyalar bilan boyitish, bilimga bo‘lgan qiziqishning ortishi kelajakdagi ijtimoiy o‘zgarishlar, istiqbollarni nazarda tutiladi. Shuningdek, odamdagi barcha psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar, psixik holatlar faqat ong bilan emas, balki ongsizlik, ong osti holatlarida ham ro‘y berishi mumkin. Inson shaxsidagi ongsizlik holatlari kishining o‘zi anglamagan holda

qiziqishi va ehtiyojlarini bajarishga intilishdir. Bunday xatti-harakatlar turli ixtiyorsiz reaksiyalarda, xulq-atvorda, psixik hodisalarda namoyon boʻladi. Ongsizlik holatlarining ikkinchi guruhi asosida ongsizlik holatlarining uchinchi guruhi kishining idroki, xotirasi va xayoli bilan bogʻlanib ketadi. Tush koʻrish, shirin xayol, orzu, ongsizlik holatlari baʼzan kishining ongiga singib qolgan axloq normalari orqali nazorat qilinishi ham mumkin.

Insonning ijtimoiy munosabatlar mahsuli ekanligi, yuksak psixik funksiyalar tarkib topishining oʻziga xos qonuniyatlari mavjudligi L.S. Vigotskiyning nazariyasida aniq yoritib berilgan. Psixikaning rivojlanishini ijtimoiy muhitdan ajralgan holda vujudga kelgan jarayon deb hisoblab boʻlmaydi. Bolaning har qanday madaniy psixik rivojlanishi (yuksak funksiya) ikki tomonlamalikka ega, yaʼni ijtimoiy, psixologik har qanday yuksak psixik funksiyalar rivojlanishiga koʻra dastavval ijtimoiydir. Ular kishilarning oʻzaro munosabati sifatida shakllanadi, shundan keyingina esa, shaxsning psixik funksiyalari sifatida namoyon boʻladi. L.S. Vigotskiyning qonuniyati soʻz va predmetlarga nisbatan munosabatni namoyon etadi. Soʻz va predmetlar oʻrtasidagi obyektiv bogʻliqlik kattalar va bolalar oʻrtasidagi muloqotni rivojlantiradi. Shuningdek, ong psixika rivojlanishining oliy formasidir. Uning paydo boʻlishi va rivojlanishida kishining mehnat faoliyati, ijtimoiy munosabati va muloqot (til yordamida) qilish jarayoni, yaʼni ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar natijasidir. Ong kishilarning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi mahsuli, faqat insonga xos boʻlgan obyektiv borliqni psixik aks ettirishning yuqori usulidir. Ongning paydo boʻlishida: ijtimoiy omillar; birgalikdagi mehnat, mehnat qurollarini ishlab chiqarish, oʻzlashtirish, avloddan avlodga berish, oʻzaro muloqot, ijtimoiy munosabatlar asosiy hisoblanadi. Biologik omil —organizmning anatomik-fiziologik jihatdan oʻzgarishi, takomillashib borishi; faollik koʻrsatishi, tabiatga taʼsir oʻtkazishi va uni oʻzgartira olishi; oʻz-oʻzini anglab yetishi. Jahon psixologiyasi fanidan xulq-atvor, muomala va faoliyat muvaffaqiyatini taʼminlovchi omillar-ning eng muhimi tariqasida insonning emotsional hayoti yotishi aksariyat nazariyotchi psixologlar tomonidan taʼkidlab oʻtiladi. Aniq izlanish predmetiga ega boʻlgan har qanday fan oʻsha predmetning mohiyatini yoritish va materiallar toʻplash uchun maxsus usullar va vositalardan foydalanadi. Bu esa fanning metodlari deb yuritiladi. Metod — (yunoncha — metod — tadqiqot tekshirish) bilishning nazariy va amaliy oʻzlashtirish usullari yigʻindisi.

Psixologiyaning asosiy metodlari quyidagilardan iborat: kuzatish metodi tabiiy metodlar jumlasiga kiradi. Tashqi kuzatuv mohiyatan kuzatiluvchi xulq-atvorni bevosita tashqaridan turib, kuzatish orqali ma'lumotlar to'plash usulidir. Erkin kuzatuv, ko'pincha, biror ijtimoiy hodisa yoki jarayonni o'rganish maqsad qilib qo'yilganda qo'llaniladi. Testlar oxirgi paytda hayotimizga dadil kirib kelgan tekshiruv usullari sirasiga kiradi. Ular yordamida biror o'rganilayotgan hodisa xususida ham sifat, ham miqdor xarakteristikalarini olish, ularni ko'pchilikda qayta-qayta sinash va ma'lumotlarni tahlil orqali ishonchligini tekshirish mumkin bo'ladi.

Umumiy psixologiyaning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

1. Determinizm.
2. Ong va faoliyat birligi.
3. Psixikaning faoliyatda rivojlanish prinsipi.

Determinizm (lotincha — determinata — belgilayman) prinsipi tabiat va jamiyat hodisalari, shu jumladan, psixik hodisalarning obyektiv sabablar bilan belgilanishi haqidagi ta'limotdir. Shu boisdan psixika, ongning obyektiv borliq va nerv sistemasi bilan belgilanishi ilmiy psixologiyaning buyuk yutug'i hisoblanadi. Shuning uchun determinizm psixikaning turmush tarzi bilan belgilanishini va turmush tarzi mutanosib ravishda o'zgarishini anglatadi.

Ong va faoliyat prinsipining psixologiya fanida qabul qilinishi quyidagi ma'noni anglatadi:

- a) ong bilan faoliyat bir-biriga qarama-qarshi voqelik emas;
- b) ong bilan faoliyat aynan bir-biriga o'xshash ham emas;
- d) ong bilan faoliyatning birligi ularning hukm surishi mexanizmidir.

Faoliyat o'zining tuzilishi bo'yicha ichki va tashqi tarkiblarga bo'linsa-da, voqelik tashqi ifodasi bilan ajralib turadi. Ong esa faoliyatning ichki rejasini, uning dasturiy jabhasini aks ettiradi. Faoliyat ong yordamida amalga oshadi va, o'z navbatida, ong mazkur jarayonda takomillashadi (muammo va yechimi unga turtki vazifasini o'ynaydi). Insonning bilish faoliyati rivojlanishi unga o'zini qurshab turgan borliqni yanada chuqqurroq, to'laroq, aniqroq aks ettirish imkoniyatini beradi hamda u borliqning asl mohiyatini, turli yo'sindagi o'zaro bog'lanishlari, murakkab munosabatlari va aloqalarini tobora aniqroq yaratadi. Shu bilan birga mazkur jarayonlarda shakllanib kelayotgan insonning borliqqa, voqelikka, jismlarga, kishilarga va o'ziga munosabati vujudga keladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Psixikaning taraqqiyot bosqichlari haqida tushuncha bering.
2. Ongning asosiy belgilari qanday?
3. Ongning paydo bo'lishidagi omillarni ayting.
4. Ongning rivojlanishida faoliyatning roli qanday?

Mustaqil ravishda muhokama bahs-munozara qiling.

Keksayib qolgan podshoh taxtni ikki o'g'lidan biriga berishga qaror qildi. U ikkala o'g'liga murojaat qilib, otda poyga qilishga va kimning oti oxirida kelsa, unga taxtni berish qarorini bildirdi. Har bir o'g'il poyga paytida bir narsadan, mabodo, hiyla ishlatsa, otlardan biri sekinroq yuradigan bo'lib qolishidan qo'rqdi. Shu qo'rquv ularni saroydagi bir masxarabozga o'z dardlarini aytishga majbur qilibdi. Masxaraboz atigi ikki so'zni aytdi, uni eshitgan shahzodalar o'sha zahoti otlarga minib, poygaga otlandilar.

Masxaraboz nima degan ekan?

2.3. Faoliyatning psixologik tahlili

Ma'lumki, inson o'z tabiati jihatidan faol (ya'ni har doim bir maqsad asosida harakat qiladigan) mavjudotdir. Ana shu jihatdan olganda, odamning barcha psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik xususiyatlari turli-tuman faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Faoliyat doimo organizm bilan muhitning o'zaro bir-biriga ta'sir etib turishining ifodasidir. Faoliyat deganda tirik organizmning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faolligi tushuniladi. Odam faoliyati hayvonlarning xatti-harakatlaridan tubdan farq qiladi. Hayvonlarning faolligi ularning nerv sistemasi va psixikasining rivojlanganligiga qarab birmuncha murakkab bo'lishi mumkin. Ammo, ularning hayoti har qanday hollarda ham tashqi borliqning talabiga organizmning biologik moslashishi bilangina chegaralanadi. Odamning xulq-atvori, faoliyati esa, tamomila boshqacha xarakterdadir. Inson xatti-harakatlari hayvonlardan farq qilib, avvalo, ijtimoiy xarakterga egadir. Inson o'zining sa'y-harakatlarini ilk yoshidanoq butun insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga yo'naltirib boradi. Xatti-harakatlarning bu turi shu qadar o'ziga xoski, uni ifodalash uchun maxsus termin — faoliyat termini qo'llaniladi. Inson faoliyatiga xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri bilish jarayonlari va iroda bilan chambarchas bog'liq bo'ladi,

ularga tayanadi, bilish va irodaviy jarayonlarsiz yuz berishi mumkin emas. Faoliyat kishining anglangan maqsad bilan boshqarib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligi hisoblanadi. Inson faoliyatining ma'lum motivlari, maqsad va amalga oshirish usullari bo'ladi. Inson faoliyati ma'lum motivlar asosida yoki motivlar uchun bajariladi, ongli suratda tug'ilgan ehtiyojlar inson xatti-harakatining asosiy motivlaridir. Motiv — bu birinchidan, insonni faoliyatga undaydi, ikkinchidan, o'ziga xos jihatlarni namoyon etadi va maqsadga erishish uchun zarur yo'l va usullarni tanlashga yordam beradi. Motivlarga ehtiyojlar, qiziqishlar, emotsiya va hislar, e'tiqod va ideallar, ustanovka va odatlar kirishi mumkin.

Kishining o'z ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shaklini egallashning faol muayyan maqsadga yo'naltirilgan jarayoni sifatida alohida ajralib turadi.

Ehtiyojlar kelib chiqishiga va predmetiga ko'ra farqlanadi:

1. Tabiiy ehtiyojlar — bu insonning o'zining va avlodining hayotini saqlab qolishga qaratilgan faolligida namoyon bo'ladi. Bular oziqlanish, uyquga ehtiyoj, nasl qoldirishga bo'lgan ehtiyoj.

2. Madaniy ehtiyoj — odamning insoniyat madaniyati mahsuliga bog'liq bo'lgan faolligida namoyon bo'ladi. Ularning bog'lanihi insoniyat tarixi boshlanishiga borib taqaladi. Madaniy ehtiyoj obyektiv bo'lib, tabiiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladigan predmetlar, vositalar kiradi. Predmetga ko'ra moddiy va ma'naviy ehtiyojlar bo'ladi:

a) moddiy ehtiyojlar — kishining moddiy, madaniy predmetlarga, vositalarga bo'lgan bog'liqligida namoyon bo'ladi. Bular — ovqatlanishga, kiyinishga, uy-joyga, maishiy turmush ash-yolariga va boshqalarga ehtiyoj sezilishi;

b) ma'naviy ehtiyoj ma'naviy madaniyatni o'zlashtirib olishda va yaratishda namoyon bo'ladi. Ma'naviy ehtiyojlarga o'qish, ilm, san'at, musiqa tinglash, kinofilm, teatr va shu kabilar kiradi.

Ixtiyoriy (ongli irodaviy) harakatlarning ixtiyorsiz (ongsiz impulsiv) xatti-harakatlardan asosiy farqi qanday motivlar asosida amalga oshirilganligiga bog'liq. Ehtiyoj asosida odamda faoliyatning motivlari, ya'ni muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lgan ichki-turtki kuchlar paydo bo'ladi. Shu boisdan motiv odamni faoliyatga undovchi sababdir. Motivlar bir-biridan ehtiyoj turlariga qarab hamda ijtimoiy xarakterga ega bo'lishiga qarab

farqlanadi. Anglash darajasiga qarab esa, anglangan qiziqishlar ishonch, intilish, havas, ideal kabi va anglanmagan — mayl, ishqibozliklar bo‘lishi mumkin. Odam qandaydir motivlar asosida ma’lum bir faoliyatga kirishar ekan, ko‘zlangan maqsadga erishmaguncha harakat qilaveradi. Maqsadga erishilgandan so‘ng faoliyat tugallanadi. Maqsad bu odamning biron ishni bajara turib nimagadir intilishidir. Faoliyat maqsadi deganda biz ana shu faoliyat oxirida qo‘lga kiritiladigan natijani tushunamiz. Faoliyat voqelikka nisbatan faol munosabat bildirishning shunday shaklidirki, u orqali tabiatga, narsalarga, boshqa kishilarga ta’sir ko‘rsatadi. Inson faoliyati ayrim hollarda tashqi tomondan ifodalansa (harakatlarda, yurish-turish va hokazolarda), boshqa hollarda esa, u ichki harakatlarga ega bo‘ladi. Ana shu nuqtayi nazardan sa’y-harakatlarni ikki turkumga ajratish mumkin: a) tashqi (real, predmetli, jismoniy, amaliy, motor) harakatlar; b) ichki; ruhiy, psixik, aqliy sa’y-harakatlar. Tashqi, real (predmetli) sa’y-harakatlardan ichki, timsoliy, sa’y-harakatlarga ko‘chirilishi o‘tish jarayonini interiorizatsiya (ma’nosi, ichki tarzga aylanish) deb ataladi (tik turish-o‘tirish yoki yurish, yugurish). Interiorizatsiya tufayli kishi psixikasi ma’lum bir vaqt ichida uning nazariy e’tiborida bo‘lmagan narsalarning timsolida foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Aqliy amallarning tashqi predmetlari bilan bo‘ladigan sa’y-harakatlar (amallarga) ko‘chirilishiga ichki psixik faoliyatning eksteriorizatsiyalashuvi (ma’nosi — ichkining tashqi tarzga aylanishi) deb qarash mumkin. Kishi faoliyatining tashqi (jismoniy) va ichki (psixik) jihatlari chambarchas bog‘liqdir. Tashqi jihat odam tashqi olamga ta’sir ko‘rsatish uchun qiladigan sa’y-harakatlar motivlashtiruvchi, bilimga undovi, boshqaruvi ichki psixik faoliyat bilan belgilanadi va yo‘naltiriladi.

Inson faoliyatida narsalarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlardan tashqari: a) tananing fazoviy holati; b) gavnani tutish holati (tik turish, o‘tirish); d) joy almashish (yurish, yugurish); e) aloqa vositalari sa’y-harakatlari qatnashadi. Odatda, aloqa vositalari tarkibiga: a) ifodali sa’y-harakatlar (imo-ishora, pantomimika); b) ma’noli ishoralar; d) nutqiy sa’y-harakatlar kiradi. Sa’y-harakatlarning ushbu turlarida ta’kidlab o‘tilganlardan tashqari mushaklar, hiqildoq, tovush paychalari, nafas olish a’zolari ishtirok etadi. Demak, narsalarni o‘zlashtirishga qaratilgan harakatning ishga tushishi muayyan sa’y-harakatlar tizimining amalga oshirilishini anglatadi. Bu hodisa ko‘p jihatdan harakatning

maqsadiga, ta'sir o'tkaziladigan narsalarning xususiyatlariga va harakatning amalga oshish shart-sharoitlariga bog'liq. Jumladan: a) kitobni olish qalamni olishdan boshqacharoq tarzda sa'y-harakatni taqozo etadi; b) avtomobilni haydash velosipedda uchishga qaraganda boshqacharoq sa'y-harakatni talab qiladi; d) ellik kilogrammli shtangani ko'tarishda bir pudlik toshga qaraganda ko'proq quvvat sarflanadi; e) kartonga katta shaklni yopishtirishga qaraganda kichik shaklni joylashtirish qiyin kechadi.

Pedagogik faoliyat haqida tushuncha. Faoliyat hamisha kishining boshqa odamlar bilan munosabatida yuz beradi. U boshqa odamlarning yordami va ishtirokini taqozo etadi, ya'ni birgalikdagi faoliyat xususiyatiga ega bo'ladi.

Faoliyatning quyidagi turlari mavjud:

1. O'yin. 2. Mehnat. 3. Ta'lim.

Bola faoliyatining oddiy shakllarini o'zlashtirish uchun dastlabki shart-sharoitlar tarkib topa boshlaydi. Ulardan birinchisi — o'yin faoliyati hisoblanadi. O'yin faoliyati bilan organizmda kuch-quvvat almashinuvi o'rtasidagi bog'lanish o'yinga nisbatan mayl tug'ilishiga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'yin bolalarda ham o'z faoliyatini ro'yobga chiqarish, hayot kechirish va faoliyat ko'rsatish shakli bo'lib xizmat qiladi. Faoliyatga bo'lgan ehtiyoj uning ko'zg'atuvchisi bo'lsa, taqlid qilish va tajriba esa manbasi hisoblanadi. Bola hayotida faoliyatning alohida turi sodir bo'ladigan vaqt ham yetib keladi. Bu maqsadi bevosita muayyan axborotni, harakatlarni, xulq-atvor shakllarini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyatdir. Subyektning o'rganishini o'ziga maqsad qilib olgan bunday o'ziga xos faoliyat ta'lim deb ataladi.

Ta'lim ham jarayon, ham faoliyat sifatida insonning hayotida muhim o'rin tutadi va muayyan davr uchun yetakchi faoliyat sifatida gavdalanishi mumkin. Ta'lim, boshqacha so'z bilan aytganda, o'qituvchi bilan o'quvchining munosabatidagi hamkorlik faoliyati hisoblanadi. Mustaqil bilim olish va mutolaa qilish ham o'quv faoliyatining muayyan ko'rinishlari bo'lib, shaxsiy, ilmiy, ijodiy izlanishning mahsuli hisoblanadi. Ta'limning yana bir muhim funksiyasi shuki, u turli yoshdagi odamlarni kasb tanlashga yo'naltiradi, kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirishga, mutaxassis sifatida shakllanishga muhim ta'sir o'tkazadi. Ta'lim ijtimoiy jihatdan shaxslarni shakllantirish, ixtisos ko'nikmalari bilan qurollantirish, u yoki bu sohada mutaxassis bo'lib faoliyat ko'rsatishiga

xizmat qiladi. Mustaqil fikrlash, psixologik imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish, barkamollikni egallash borasida ijtimoiy hayotning turli jabhalarida ta‘lim yetakchi faoliyat sifatida muhim ahamiyatga ega.

Ta‘lim faoliyati quyidagilardan tarkib topadi:

1. Bilim axborotining o‘zlashtirilishi.
2. Faoliyatning barcha turlari tarkib topadigan usullar va harakatlarning o‘zlashtirilishi.
3. Qo‘yilgan vazifa va ilgari surilgan maqsadga mos keladigan usullar va jarayonlarni to‘g‘ri tanlash hamda nazorat qilish uchun ko‘rsatilgan axborotdan foydalanish yo‘llarining egallanishi — ko‘nikmalar hosil qilinishi.

Shunday qilib, ta‘lim kishining harakatlari muayyan bilimlar, malakalar, ko‘nikmalarni o‘zlashtirib olishga qaratilgan ong bilan idora qilingan joydagina yuz beradi. Ta‘lim o‘ziga xos insoniy faoliyatdir. Bola faoliyati va xulq-atvorini insoniyat ijtimoiy tajribasini o‘zlashtirish sari yo‘naltirishdan iborat jarayon o‘qitish deb ataladi. Bola shaxsining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan jarayon — tarbiya deb ataladi.

Mehnat faoliyati. Insoniyat o‘zining mehnati tufayli ongli mavjudotga aylangan. Mehnat faoliyatining tarkibida mehnat va ish-harakat yotadi. Ularning har qaysisining muayyan ulushi natijasi o‘laroq, faoliyat mahsuli vujudga keladi, u moddiy yoki ma’naviy ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Mehnat bu ma’lum bir ijtimoiy, foydali, moddiy va ma’naviy mahsulotni ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan faoliyat demakdir. Mehnat faoliyati kishining eng yetakchi, asosiy faoliyatidir.

Kishilarning mehnat faoliyati o‘z mohiyatiga ko‘ra, ijtimoiy hisoblanadi. U jamiyat ehtiyojlari bilan shakllanadi, belgilanadi, yo‘naltiriladi va boshqariladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Faoliyat haqida tushuncha bering.
2. Faoliyat tuzilishini nimalar tashkil qiladi?
3. Faoliyat turlarini aytib bering. Yetakchi faoliyat haqida ham tushuncha bering.
4. Faoliyat interiorizatsiyasi nima?
5. Faoliyat ekstrorizatsiyasi nima?
6. Faoliyatning psixik jarayonlar bilan bog‘liqligini qanday izohlaysiz?
7. Ehtiyojlar kelib chiqishiga, faoliyatning turlariga, nima uchun faoliyat kerakligini klasster metodi bo‘yicha yeching.

2.4. Motivatsiya va emotsiya psixologiyasi

Motiv va motivatsiya muammosi jahon psixologiyasida turli-tuman nuqtayi nazardan yondoshish orqali tadqiq qilib kelinmoqda. Uzoq va yaqin chet ellarda o'ziga xos psixologik maktab vujudga kelgan bo'lib, ularning negizida ilmiy pozitsiyalar va konsepsiyalar mohiyati jihatidan farqlanuvchi g'oyalar va yo'nalishlar mujassamlashadi. Insonning xatti-harkati va ma'lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sababga motiv deyiladi. Odamning faoliyat motivlarini o'rganish shaxsning ma'naviy-psixologik mohiyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Kishilarning xulq-atvoriga qarab, uning xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularning motivlarini aniqlashga intilish lozim. Shunda xatti-harakatlarni odam uchun tasodifiy yoki qonuniy ekanligini anglash mumkin bo'ladi. Bunday xatti-harakatlarning yana takrorlanishini oldindan ko'rish, shaxsiy holatlarning ayrimlarini yuzaga keltirmaslikning oldini olish, boshqalarning taraqqiy etishini qo'llab-quvvatlash mumkin. Ba'zilar mehnatga o'z ehtiyojlariga ko'ra sidqidildan munosabatda bo'lsalar, ba'zilar o'z burchlarini anglaganliklaridan, yana ba'zilar o'zlarining qabih niyatlariga erishish uchun vaqtincha sun'iy munosabatda bo'ladilar.

Motivatsiya — odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmuyi bo'lib, xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni hisoblanadi, unga tashabbus, yo'nalganlik, tashkilotchilik, qo'llab-quvvatlash kiradi. Motirovka inson xulq-atvorini tushuntirish bo'lib, «Nima uchun?», «Qanday maqsad bilan?», «Qanday ma'noda?» kabi savollarning motivatsiyasiga bog'liq. Motivatsiya inson xulq-atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuyini bildiradi.

Psixologiyada motivlashtirish deganda, psixologik hodisalarning o'zaro mustaqil bog'langan, lekin bir-biriga to'la mos kelmaydigan, nisbatan mustaqil uchta turi tushuniladi:

a) individning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatga undovchi sabablar sifatidagi motivlashtirish. Faollik holati paydo bo'lishining subyektiv ehtiyojlarini izohlab beradi;

b) motivlashtirish faollik kimga qaratilgani, boshqa xulq-atvor emas, balki xuddi shunaqasi tanlaganligini izohlab beradi. Motivlar xulq-atvor yo'nalishini tanlashni belgilaydigan sabablardir. Bular birgalikda kishi shaxsining yo'nalishini tashkil etadi;

d) kishi axloqi va faoliyatini boshqaradigan vosita hisoblanadi. Bularga emotsiyalar, istaklar, qiziqishlar kiradi.

Ustanovkalar — yoʻnalish, yoʻnaltirish maʼnosini anglatib, kishining tevarak-atrofdagi odamlarga yoki obyektga nisbatan qanday munosabatda boʻlishini, ularni idrok qilish, sezish, ularga baho berish va qandaydir harakat qilishga tayyorgarligini anglatadigan holat. Yoʻnaltirilgan faoliyat subyektning maʼlum vaziyatda faol yoʻl topib keta oladigan harakatlari majmuyidir. Yoʻnalish — tugʻilgan yoʻl, maqsad sari shaxsning xatti-harakati va faoliyatini aniq sharoitlardan qatʼiy nazar maʼlum yoʻlga yoʻnaltiruvchi barqaror motivlar majmuyi. Ular asosiy, yetakchi va bosh ehtiyojlar, qiziqishlar, moyillik, eʼtiqod, dunyoqarashlar, yuksak gʻoyalalar bilan xarakterlanadi.

Har qanday motivlarning orqasida shaxsning ehtiyojlari yotadi. Inson ehtiyojlari, maqsadi, istagi, qiziqishlari shaxsiy holatlardir. Ehtiyoj — jonli mavjudotning hayot kechirishda konkret shart-sharoitlarga qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holat. His-tuygʻu psixik jarayon boʻlib, bunda insonning borliqqa shaxsiy ichki subyektiv munosabati aks etadi. Emotsiyalar — lotincha soʻzdan olingan (emovere) toʻlqinlashtirish maʼnosiga ega. Ichki yoki tashqi qoʻzgʻatuvchilar taʼsiriga subyektiv holatda ifodalovchi javob reaksiyasidir. Yaʼni, hissiyot tashqi olamdagi narsa va hodisalarga nisbatan boʻlgan munosabatlarni va munosabatlardan hosil boʻladigan ichki kechinmalarni ongda aks ettirishdir. Hissiyot oʻziga xos aks ettirish jarayoni boʻlib, bunda narsa va hodisalarning bevosita emas, balki shu narsalarning aks ettirish jarayonidan hosil boʻladigan ichki kechinmalari va munosabatlari aks ettiriladi. His-tuygʻu psixik jarayongina boʻlib qolmay, psixik holat hamdir. U xususiyat bilan xarakterlanadi. His-tuygʻuni yuzaga keltiruvchi sabab stimullardir. Faolligiga koʻra hislar stenik (kuchli) va astenik (kuchsiz) turlarga boʻlinadi. Hislar tashqi jihatdan namoyon boʻlib, ular xatti-harakatlarda, yuzda namoyon boʻladi. Uning tashqi ifodalanishi ekspressiya deb ataladi. Ekspressiya bu — hislarning spetsifik namoyon boʻlishi, u ovoz, mimika, pantomimika, yurish, yigʻi va kulguda namoyon boʻladi. Hislar mazmuniga va qoʻzgʻaluvchanligiga qarab, kuchi, tezligi barqarorligiga koʻra quyidagi emotsional holatlarga ajratiladi: kayfiyat, koʻtarinkilik, kuchli xohish-istak, affekt, stress.

Hissiyot olamda sodir boʻlayotgan narsalardan shaxs sifatida odam uchun ahamiyatli boʻlgan narsalar haqida darak beruvchi

signallar sistemasi hisoblanadi. Ma'lum qo'zg'alishlar odam uchun xotirjamlik haqidagi signalga aylanadi. Hissiyotlarning boshqaruvchanlik funksiyasi shunda namoyon bo'ladiki, barqaror kechinmalar bizning xulqimizni yo'naltiradi va qarama-qarshiliklarni yengishga undaydi. Emotsiyalarni boshqaruvchi mexanizmi kuchli emotsional qo'zg'alishni kamaytiradi. Odamlarning hayotida bo'ladigan qayg'u, kulfat kabi psixik holatlar xavflidir. Odam ularni boshqarishi lozim. Axloqiy hislar — shaxsning, odamlarning xulq-atvoriga emotsional munosabatida ifodalanadi. Shaxs bu hislarni kechirar ekan, ijtimoiy-axloqiy prinsiplar va normalarga asoslanib, boshqa odamlarning xatti-harakatlariga yoki psixik xususiyatlariga ham e'tibor beradi, namoyon etadi. Intellektual hislar aqliy faoliyat jarayonida hosil bo'ladigan kechinmalardir. Ushbu hislar haqqoniy, soxta, ajablanarli, shubhali yoki tushunib bo'lmaydigan, hayratda qoldiradigan fikrlarga bo'lgan munosabatlarda ifodalanadi. Intellektual hislarga ajablanishni kiritish mumkin. Ajablanish insonning bilish faoliyatining ajralmas tomonidir. Ajablangan va qandaydir tushunib bo'lmagan, hayratda qoldiradigan narsaga e'tibor qaratish odamning bilish ehtiyojlarini qondirishga intilishdir. Ajablanish odamning bilish bilan bog'liq faoliyatini yuzaga keltirishga undovchi omillardan biridir.

Estetik hislar: go'zallikni idrok qilish, zavqlanish, go'zallikni yaratishdan iborat bo'lishi mumkin. Estetik his hamma odamga xos bo'lgan hissiyotdir. Estetik hislarni yuzaga keltiruvchi manbalar juda ko'p va xilma-xildir. Iroda odamning biror maqsad yo'lida ongli ravishda qiyinchiliklarni bartaraf qilishga qaratilgan xatti-harakatlardir. Irodaviy faoliyatda odam o'zini, xususiy ixtiyorsiz impulslarni nazorat qiladi. Iroda tormozlovchi va boshqaruvchi mexanizmlarga ega. Xulqning irodaviy boshqarilishi, ongli ravishda, aqliy va jismoniy kuchni maqsadga erishishga qaratilishi yoki aktivlikdan o'zini ushlab turishidir. Iroda aktiv maqsadni anglash, qarorga kelish, rejalashtirish, bajarish, irodaviy zo'r berish kabi murakkab mexanizmdan iboratdir. Iroda ikkita funksiyani bajaradi: qo'zg'aluvchanlik va tormozlash. Iroda va irodaviy sifatlar sekin-asta organizmning o'sishi natijasida taraqqiy etish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quvchilar irodasini tarbiyalashda kattalar va o'qituvchilar to'g'ri talab qo'yishlari, bajarilishini nazorat qilib, uyushgan tartibda ma'lum maqsad sari intilmoqlari zarur. Ana shunday tarzda irodani taraqqiy ettirish mumkin. Insonni anglatilgan, maqsadli, ongli faoliyatga, xatti-harakatga undovchi sa-

bablar majmuyi motivatsiyadir. Ushbu mavzuning ahamiyatli jihati shundaki, odamning faoliyat motivlarini o'rganish, shaxsning ma'naviy-psixologik mohiyatini tushunishga yordam beradi. His-tuyg'ular odam uchun ahamiyatli bo'lgan narsalar haqida darak beruvchi signallar hisoblanib, xotirjamlik va notinchlik borasida ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi. Estetik, axloqiy, intellektual hislar shaxsni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Motiv, motivatsiya, motirovka tushunchalarini izohlang.
2. His-tuyg'u va uning turlari haqida tushuncha bering.
3. His-tuyg'uning fiziologik asosi nimadan iborat?
4. Iroda nima va uning iroda sifatleri haqida ma'lumot bering.
5. Sababiy bo'g'liqlik va mantiq. Hayotda biror-bir voqea yoki hodisaning guvohi bo'lsak, uning sababini (yoki sabablarini) qidira boshlaymiz va o'zimiz uchun ma'lum xulosaga kelgach, ko'nglimiz joyiga keladi. Masalan, uyga biror yerdan qaytib kelib, eshikni lang ochiqligini ko'rdingiz. Xayolingizdan qanday fikrlar o'tadi? «Nahot eshikni yopishmadi ekan?», «O'g'rilar kirib olgan bo'lsa-ya?» va shunga o'xshash. Bunday o'yinlar sizning fikrlash jarayonini asosli va serqirra qilishga yordam beradi. Muhokama qiling.


2.5. Shaxs psixologiyasi

Insonning shaxs sifatida tarkib topishi, unga ta'sir etuvchi omillar, uning mexanizmlari haqida psixologiya fani aniq ma'lumotlarga ega. Jamiyat taraqqiyotida bosh omil hisoblanuvchi, shu jamiyatning rivojlantiruvchisi bo'lib hisoblanuvchi inson odam sifatida dunyoga keladi. Uning shakllanishi, o'ziga xos xususiyatlari u yashab turgan jamiyatda tarbiyalanadi, yuz beradi. Odam insoniyat vakili sifatida baholanuvchi termin bilan xarakterlanadi. Hamma odamlar, u yangi tug'ilgan yoki katta, sog'lom yoki kasal bo'lsa ham, uning sifatleri va xususiyatlaridan qat'iy nazar, individ deb ataladi (lotincha individ — ajralmas alohida zot ma'nosini anglatadi). «Individ» tushunchasida odamning nasl-nasabi mujassamlashgandir. Demak, individ qachonki, ongli ravishda va maqsad sari ma'lum bir faoliyatda atrof-muhitni anglasa va yaratuvchanlik hissasini qo'shsa, uni subyekt deb atash mumkin bo'ladi. Ammo ayrim faoliyatda ishtirok etuvchi individ hamma vaqt shu faoliyatning subyekti bo'la olmaydi, chunki har doim

ham individ bajarayotgan xatti-harakatini anglamaydi va ularni maqsadga qaratilgan holda amalga oshirmasligi mumkin. Har bir individ takrorlanmas sotsial fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgandagina u shaxs bo'lib yetishadi. Shaxs bu — onggaga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyada yashab, ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi individ. Psixologiyada individ tomonidan amaliy faoliyat va munosabat jarayonida hosil qilinadigan hamda ijtimoiy munosabatlarning individga ta'sir o'tkazish darajasi va sifatini belgilaydigan sistemali tarzda sotsial fazilat shaxs tushunchasi bilan ifoda etiladi.

Shaxs sifatida kamolga erishmagan individ bo'ladi. Bunga hayvonlar orasida tarbiyalangan bolalarni misol qilishimiz mumkin. Ammo individning shaxsga aylanishida qanday omillar mavjud? Rus psixologi S.L. Rubinshteyn: «Odam o'zidagi takrorlanmas xususiyatlariga ko'ra individualdir. Uni o'z atrofidagilariga, borliqqa bo'lgan ongli munosabati, biror faoliyat bilan shug'ullanishi uning shaxs ekanligidan dalolat beradi», deb ta'kidlagan.

S.L. Rubinshteyn bo'yicha shaxs strukturasi



Shaxs — bu hayot jarayonida shakllanuvchi individual o'ziga xos psixofiziologik tizimlar, shaxs xususiyatlari yig'indisi bo'lib, u asosida ushbu insonga xos tafakkur va xulq-atvor yuzaga keladi. Shunday qilib, shaxs bu jamiyat a'zosi bo'lib, u individning psixofiziologik tizimining dinamik tashkil etuvchisi, bu uning xatti-harakati va tafakkurini belgilab beradi. Individuallik — bu inson-

ning o'ziga xos individual xususiyatlari bo'lib, ular asosida insonlar bir-biridan farq qiladilar. Individuallik — bu o'ziga xoslikka ega bo'lgan shaxs. Shaxsning tuzilishi, shakllanishi, tarkib topishida u yashayotgan muhitning, kishilik jamiyatining roli juda kattadir. Shaxsning faoliyatini yo'naltirib turadigan va mavjud vaziyatlarga nisbatan bog'liq bo'lmagan barqaror motivlar majmuyi kishi shaxsining yo'naltirilganligi deb ataladi. Shaxs yo'nalganligi — bu barqaror motivlar yig'indisi bo'lib, shaxs faoliyatini belgilaydi. Shaxs yo'nalganligi qiziqishlar, dunyoqarash, e'tiqod, intilish va idealda xarakterlanadi. Qiziqish — bilish ehtiyojining namoyon formasi bo'lib, u yangi faktlar bilan tanishishga hamda borliqning aniq, chuqur aks etishiga yordam beradi. Dunyoqarash — insonning qarashlari tizimi bo'lib, unda insonning atrofdagi dunyoga munosabati va bu dunyoda o'zining o'rnini anglash, kishilarga bo'lgan munosabati, hayotiy pozitsiyasi, ideallari, qadriyatlarini, e'tiqodlari va prinsiplari namoyon bo'ladi.

E'tiqod — insonning anglangan ehtiyoji bo'lib u faoliyatga undaydi.

Ideal — bu namuna, intilishlarning eng yuqori cho'qqisi.

Intilish — birlamchi qiziqish, ehtiyojning hissiy kechirilishi, obyektga intilishi. Inson o'z ehtiyojlarini qondirish uchun atrof-muhit, tabiat, kishilar bilan o'zaro ta'sirga kirishadi. Ularni o'zgartiradi, o'z faoliyatini yo'naltiradi. Ijtimoiy qonun-qoidalar, muhit, jamiyat talablariga rioya qilgan tarzda o'z-o'zini yo'naltiradi, o'z oldiga maqsad qo'yadi, maqsadga intilish yo'lida uchraydigan qiyinchilik va to'siqlarni yengib o'tishga harakat qiladi. Maqsadga yo'naltirilgan ongli faoliyatini amalga oshirishda moddiy, ma'naviy olam bilan faol tarzda muloqotga kirishadi. Ehtiyojlar asosida odamda faoliyatning motivlari, muayyan ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq ichki turtki kuchlar paydo bo'ladi. Motiv odamning faoliyatiga, faolikka yo'naltiruvchi sababdir. Shaxs-inson aniq maqsad sari intiladi, muayyan ishni bajaradi, uning natijasiga ega bo'lishga, uni qo'lga kiritishga o'z-o'zini yo'naltiradi. Shaxs faolligining yo'nalishi turli ehtiyojlar kelib chiqishi, predmetiga ko'ra:

- a) tabiat — inson o'zini, avlodini saqlab qolishdagi faolligi;
- b) madaniy — odamning insoniyat madaniyati mahsuliga bog'liq bo'lgan faoliyati; predmetiga ko'ra;
- d) moddiy — ovqatlanish kiyinish, uy-joy, maishiy turmush ashylolari;

e) ma'naviy—ma'naviy madaniyatni o'zlashtirib olish, yaratish, o'qish, ilm, san'at, musiqa, kinofilm, teatr va boshqalar asosida boshqariladi, amalga oshiriladi.

Shaxsning rivojlanishi va shakllanishida o'ziga xos sifatlar mavjud: ekstraversiya — inson ongni va diqqatini atrofga, tashqariga, asosan, o'zi atrofida bo'layotgan narsalarga qaratilganidir. Eks-traversiya intraversiyaga qarshi bo'lib, intraversiya — bu ong va inson qiziqishlari o'ziga, o'z ichki dunyosiga qaratilgan.

Shaxs odamning atrofiga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatni belgilaydi. Shaxsning shakllanishida o'z-o'ziga baho berish muhim ahamiyat kasb etadi. O'z-o'ziga baho berish — uch xil ko'rinishga ega bo'lishi mumkin: a) shaxs o'z imkoniyatlari, qobiliyati, layoqatiga past baho berishi, o'z-o'ziga ishonchsizligi tufayli kechirilishi mumkin; b) o'z-o'zining imkoniyatlari, qobiliyatlarini to'g'ri, me'yorda baholashi; d) o'zining imkoniyat va qobiliyatlarini me'yoridan yuqori baholashi, bu odamda o'ziga bino qo'yish atrofidagilarini nazar-pisand qilmaslik kabi xarakterlarini namoyon etishga olib kelishi mumkin. Shaxsning o'z-o'ziga to'g'ri baho berishida o'z-o'zini anglash muhim hisoblanib, shaxsning to'g'ri shakllanishi, individning o'zi haqida nisbatan barqaror anglangan tasavvurlar tizimini hosil qilinishiga olib keladi. Uning asosida individ odamlar bilan o'z munosabatini o'rganadi.

O'z-o'zini anglashning shakllanishi jamiyatning ongli a'zosini tarbiyalashning zarur shartlaridan biridir. Odam individ bo'lib tug'iladi, shaxs bo'lib rivojlanadi, taraqqiy etadi. Shaxsning rivojlanishi va shakllanishida xarakter va qobiliyatlarining determinantligi, faoliyat, muloqot, bilish jarayonlari: hissiy-emotsional jarayonlari, irodaviy sifatleri, faolliqi, aktivligi, ongliligi muhim hisoblanadi. Y. Gudechek shaxsning ijtimoiy qadriyatlar jarayonida rivojlanishi masalasiga katta e'tibor bergan. Qadriyatlar shaxsning xulqi va faoliyatini motivlashtiradi. Shaxsiy ahamiyatga ega qadriyatlar shaxs tomonidan o'zlashtiriladi. Qadriyatlar shaxsning qiziqishlari, ehtiyojlari, yo'nalishi bilan bog'liq. Umumiy holda shaxsni harakatga keltiruvchi sifatida uning ehtiyojlari yotadi. Ehtiyojlar shaxsni faoliyatga undovchi motivlarda namoyon bo'ladi.

Shaxsning rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlar:

a) faoliyatda o'zgaruvchi ehtiyojlar orasida qarama-qarshiliklar va ularni qondirish;

b) faoliyatdagi faollik natijasida qondiriladigan ehtiyojlar asosida yangi ehtiyojlarning yuzaga kelishi.

Qarama-qarshiliklarni yengishda maxsus usullar, yo‘llar, harakatlar, bilim va malakalar asosida ta‘lim jarayonida amalga oshiriladi. Shaxs shakllanishida yetakchi o‘rin tarbiyaga ajratiladi. Tarbiya shaxs rivojlanishini tashkil etadi, yo‘naltiradi va jamiyat talablariga moslashtiriladi. Demokrit aytganidek: «Insonni inson qilib yetishtiruvchi narsa tarbiyadir». Ishonch — xulq xatti-harakatlarining muhim anglanilgan motivi, faoliyatini aniq yo‘nalishga solib turuvchi va dunyoni hissiy idrok etish, qat‘iy prinsipga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. G‘oyalar o‘z-o‘zini tarbiyalash rejasi beruvchi, o‘zini nazorat qilishga undovchi omil hisoblanadi. Bola — shaxsning tarkib topishida ta‘lim-tarbiyaning ta‘siri asosiy ahamiyat kasb etadi. Tarbiya muassasalari: bog‘cha, maktab, internat, litsey va kollejlarda beriladigan ta‘lim-tarbiya jarayoniga o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ularning shaxsini o‘rganish metodlaridan foydalanish samarali kechadi. Metod tadqiqot, tekshirish, bilimni nazariy va amaliy o‘zlashtirish usullari yig‘indisidir Uning shaxs bo‘lib shakllanishida uning biologik shartlanganlik — jinsiy, yosh davrlari, miyaning fiziologik, morfologik xususiyatlari: ijtimoiylashuvi muhim omillar bo‘lib hisobladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Shaxs tushunchasiga tushuntirish bering.
2. «Individ», «Shaxs», «Individuallik» tushunchalari bir-biriga bog‘liq, lekin qarama-qarshi emasligini tushuntiring.
3. Shaxs faolligining asosiy omili nima?
4. «O‘z-o‘ziga baho berish» tushunchasini izohlang.
5. Shaxs taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar nimalardan iborat?

2.6. Muloqot psixologiyasi

Muloqot — bu ikki yoki undan ortiq kishilarning ma‘lumot almashishdan iborat bo‘lgan o‘zaro ta‘sir etishi. Muloqot tizimida o‘zaro bir-biriga bog‘liq jihatlari ajratiladi: kommunikativ, interaktiv va pertseptiv.

1. Muloqotning kommunikativ jihati — bu muloqotdagi insonlarning o‘zaro ma‘lumot almashinishi.

2. Muloqotning interaktiv jihati — bu insonlar muloqotda, nafaqat bilim va g‘oyalar, balki harakatlar bo‘yicha ham o‘zaro ta‘sirini tashkil etishdan iborat.

3. Muloqotning perspektiv jihati muloqot jarayonida o‘zaro bir-birini idrok qilish orqali tushunishdir.

Demak, muloqot birgalikdagi harakat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, aloqa almashish, bir-biriga ta’sir etish, boshqalarni tushunish, odamlar o‘rtasida aloqa o‘rnatish va rivojlantirish jarayoni. Muloqot hayot kechirishning bir shaklidir.

Muloqotning o‘zaro birgalikdagi harakati va kommunikativ jihatdan ishtirokchilarning uning jarayonida amalga oshiriladigan o‘zaro idrok etishi yuzaga keladi. Taniqli psixolog S.L. Rubinshteyn shunday deb yozgan edi: «Kundalik hayotda odamlar bilan muomalaga kirisharkanmiz, biz ularning xulq-atvoriga mo‘ljal olamiz. Negaki, biz ularning tanqidiy ma’lumotlari mohiyatini go‘yo o‘qib, ya’ni mag‘zini chaqamiz va shu yo‘sinda kontekstda mujassamlashadigan matnning ichki psixologik jihati mavjud bo‘lgan mazmunini aniqlaymiz». Bunday o‘qish naridan beri tez yuz beradi, chunki tevarak-atrofdagilar bilan muomala jarayonida avtomatik tarzda amal qiladigan psixologik ichki ma’no hosil bo‘ladi. Muomalaning prioretiv jihati bu kishining kishi tomonidan idrok etilishi, tushunilishi va baholanishi demakdir. Identifikatsiyalash — bir kishi ikkinchi kishini uning ta’rifini o‘z ta’rifiga anglanilgan yoki anglanilmagan tarzda o‘xshatilishi orqali tushunish usulidir. Shaxslararo idrok etish jarayonida teskari aloqa, xabar beruvchi funksiyani va o‘zini o‘zi boshqarish funksiyasini bajaradi. Stereotiplashtirish — xulq-atvor shakllarini tasniflash va ularni hozirgacha ma’lum va mashhur deb sanalgan, ya’ni ijtimoiy qoliplarga mos keladigan hodisalar jumlasiga kiritish yo‘li bilan ularning sabablarini o‘zgartirishdan iboratdir. Ko‘p hollarda, insonlarning bir-birlarini idrok etishlari «ijtimoiy persepsiya» sifatida namoyon bo‘ladi. Muloqotning bu jihati ijtimoiy persepsiya haqidagina emas, balki shaxslararo persepsiya haqida hamdir.

Inson jamiyatda shaxs sifatida qabul qilingani sari muloqotda ham shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. S.L.Rubinshteyn aytgandek: «Biz insonni tashqi xulq-atvoriga qarab o‘qiymiz». «Boshqa odamni bila turib, o‘rganayotgan individning o‘zi ham shakllanadi». L.S. Vigodskiy: «Insonni inson tomonidan idrok etilishida kamida ikki kishi jalb qilingan bo‘lishi lozim, ularning ikkalovi ham faol subyektdir», degan edi. O‘zini boshqa inson tahlil qilishi o‘z ichiga identifikatsiya va refleksiyaning kiritadi. Odamlarda samarali muomala o‘rnatish malakalari tasodifiy ravishda tarkib topadi yoki ta’limning yordamchi mahsuli sifatida yuz beradi. Maktab yoshidagi

o'quvchilar xulq-atvori qoidalariga bag'ishlangan ommabop adabiyotlarni o'qir ekan, muloqot madaniyatining ba'zi jihatlari bilan tanishadi. Lekin muomala malakalarining maxsus o'rgatilishi alohida bir vazifa bo'lib, pedagog uchun uning qanchalik muhim ekanligini trening, ya'ni muomalaning mashq qilinishi bu vazifaning hal etish yo'llaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Sotsial psixologik trening, ya'ni muomalaning mashq qilinishi bu vazifaning hal etish yo'llaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Sotsial psixologik trening mazmunan ikki xil vazifani:

— muomalaning va shu jumladan pedagogik muomalaning umumiy qonuniyatlarini;

— pedagogik kommunikatsiya texnologiyasini egallash, ya'ni professional pedagogik muomala va malakalar shakllanishini o'z ichiga oladi.

Psixologik pedagogik trening shakllaridan yana biri — tipik pedagogik vaziyatlarning, misol uchun, imtihonlarni modellashtiruvchi amaliy o'yinlar. Muomala trening, ya'ni muomalani mashq qilish o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish sistemasida pedagogik ishning yangi shakli bo'lib, pedagogik ta'lim uchun juda istiqbolli hisoblanadi. Bog'lanish munosabatga kiruvchilar o'rtasida ikki tomonlama aloqa bo'lishini taqozo etadi. Bunga erishish va uni ko'ngildagidek rivojlantirish sharti munosabatga kirishuvi shaxslarning o'zaro bir-biriga hurmati va ishonchidan iboratdir. Agar pedagog o'z tarbiyalanuvchilariga ishonch va hurmat bilan munosabatda bo'lsa, u har qancha prinsipial va talabchan bo'lgan taqdirda ham, uning eng arzimas tanbehleri ham ta'sirli bo'ladi. Munosabat jarayonlari har doim va barcha vaziyatlarda ham sip-silliqqina va ichki qarama-qarshiliklarsiz yuz beradi deb tasavvur qilish yaramaydi. Ayrim vaziyatlarda bir-birini inkor etuvchi qadriyatlar, vaziyatlar va maqsadlarning mavjudligini aks ettiruvchi pozitsiyalar antogonizmi yuzaga chiqadiki, ba'zan bu o'zaro adovatni keltirib chiqaradi, shaxslararo mojarolar sodir bo'ladi. Mojarolarning kelib chiqishiga, shuningdek, munosabatga kiruvchilarning o'zaro birgalikda harakat qilishlariga g'ov bo'lgan va bartaraf etilmagan ma'naviy anglashilmovchiliklar ham sabab bo'ladi. Munosabatdagi ma'naviy anglashilmovchilik — bu aytilgan talabning, iltimosning, buyruqning ma'nosi munosabat bog'lashga sheriklar uchun muvofiq emasligidir. Bu hol ularning o'zaro hamjihatligi va birgalikda harakat qilishi uchun to'sqinlik tug'diradi. Har qanday ma'lumotni belgilar, aniqrog'i, belgilar

tizimi orqali bilish mumkin. Kommunikativ jarayonda qo'llaniladigan bir necha belgilar tizimi mavjud. Bular verbal kommunikatsiya (nutq orqali) va noverbal (nutq bilan bog'liq bo'lmaydigan belgilar orqali) kommunikatsiyadir. Verbal kommunikatsiyada inson nutqi belgilar tizimi sifatida qo'llaniladi. Nutq inson tomonidan qo'llaniladigan tovushlar signallari yoki yozma belgilardan iborat bo'lib, ular orqali muloqotdan olingan ma'lumot qayta ishlanadi, saqlanadi va uzatiladi. Bu jarayon til orqali amalga oshiriladi. Til so'z belgilari tizimi bo'lib, u muloqot jarayonida psixik faoliyat mahsuli bo'lib yuzaga keladi. Nutqning o'ziga xos turlari mavjud — tashqi, ichki, og'zaki, yozma va hokazo. Kommunikativ jarayonda o'zaro munosabatga kirishuvchilarni bir-birlari tushunishlari juda muhimdir.

Buyuk fransuz yozuvchisi Antuan Sent Ekzyuperi: «Muloqot bu shunday ne'matki, u orqali inson lazzatlanadi», deb yozgan edi. So'zning mohiyati haqida Sa'diy Sheroziy: «Aqllimsan yoki ahmoq, kattamisan yoki kichik buni biror so'z aytmaguningcha bila olmaymiz» degan edi. Yozma nutq insoniyat tarixida og'zaki nutqdan ancha keyin paydo bo'lgan. Yozma nutq fanda foydalaniladigan murakkab umumlashmalarning rivojlanishida, badiiy timsollarni yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Nutq o'zining fiziologik negiziga ko'ra eshitish va harakat analizatorlari faoliyatini bajaradi. Nutqni programmalashtirish — nutqiy ifodaning, ya'ni kishi bildirmoqchi bo'lgan fikrning ma'naviy o'zagini tuzishda birinchi bosqich hisoblanadi, ikkinchi bosqich jumlaning sintaktik strukturasi tuzishdan iboratdir. Noverbal kommunikatsiyaga — belgilarning optik-kinetik tizimi kirib, ularga jestlar (qo'l harakatlari), mimika (yuz harakatlari) va pontomimika (qo'l-oyoq, tana harakatlari) kiradi. Jestlar — insonning qo'l harakatlari bo'lib, u orqali insonning ichki holati, biror bir obyektga munosabati va tashqi olamga yo'nalganligi ifodalanadi. Mimika — inson yuz harakatlarining bir qismi bo'lib, u orqali insonning o'ylari, xatti-harakatlari, tasavvurlari, xotirlashi, taajjubi va hokazolar namoyon bo'ladi. Pantomimika — inson tanasi yoki uning qismlari yordamida ifodalanadigan harakatlar tizimidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kundalik muloqot jarayonida so'zlar 7 % ni, tovush va intonatsiya 38 % ni, nutqsiz muloqot esa 55 % ni tashkil etadi. Noverbal kommunikatsiyaning paralingvistik va ekstralingvistik belgilar tizimi ham mavjud. Bular lokalizatsiya tizimi bo'lib, u ovoz sifatida uning diapazoni nutqdagi pauzalar, yo'tal, yig'i,

kulgu, nutq tempida namoyon bo'ladi. Muloqotning maqsadga ko'ra, 8 ta funksiyasi mavjud:

1. Kontakt.
2. Aloqa o'rnatish.
3. Undovchilik.
4. Koordinatsion.
5. Tushunish.
6. Amotiv (hissiy aloqa) hissiyotni o'zgartirish.
7. Ta'sir o'tkazish.
8. Munosabat o'rnatish, o'z o'rnini anglash

Pedagogik munosabat deganda pedagog va o'quvchilar kollektivi o'rtasida o'zaro birgalikdagi harakatning mazmunan axborot ayirboshlashdan, o'quv tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va o'zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat sistemasi, usullari va malakalari tushuniladi.

Mavzu yusasidan savol va topshiriqlar

1. Muloqot tushunchasini yoritib, uni inson hayotidagi rolini tushuntirib bering.
2. Muloqotning asosiy funksiyalarini ayting.
3. Pedagogik muloqot deganda nimani tushunasiz?
4. Verbal va noverbal nutq vositalari nima?
5. Nutqning funksiyalari nimalardan iborat?
6. Identifikatsiya deganda nimani tushunasiz?

Muloqotga kirishuvchanlik

Quyida berilgan 16 ta savolga «ha», «yo'q», «ba'zan» deb javob bering.

1. Sizni amaliy uchrashuv kutmoqda. Uni betoqatlik bilan kutasizmi?
2. Sizni biror kasallik holdan toydirmaguncha, shifokorning oldiga borishni orqaga suraverasizmi?
3. Sizni biror mavzudagi axborot bilan yig'ilish, majlis va shunga o'xshash tadbirda ma'ruza bilan chiqish topshirig'i xavotirga soladimi?
4. Sizga ilgari bormagan shahringizga safarga borib kelishni taklif etishdi. Shu safarga bormaslik uchun bor imkoniyatni ishga solasizmi?
5. O'zingizdagi hissiy kechinmalar bilan kimlar bilandir o'rtoqlashishni yaxshi ko'rasizmi?
6. Ko'chada sizga notanish odam biror iltimos bilan murojaat qilsa, sizning g'ashingiz keladimi?

7. Siz «Otlar va bolalar» muammosi borligi va turli avlod vakillarining bir-birlarini tushunishlari qiyinligiga ishonasizmi?

8. Tanishingizga bir necha oy avval olgan qarz pulini eslatishga uyalasizmi?

9. Oshxona yoki restoranda siz yemaydigan taom berishdi, idishni chetga surib, achchig'ingiz kelganini yashira olasizmi?

10. Begona odam bilan yolg'iz qolganingizda, u birinchi bo'lib gap boshlarsa, sizga javob qaytarish malol keladimi?

11. Siz turli yerlarda odamlarning uzun navbatda turishganini ko'rsangiz, toqatingiz toq bo'ladimi? Navbatda turib kutishdan ko'ra, o'z niyatingizdan voz kechishni afzal ko'rasizmi?

12. Biror janjalli vaziyatni muhokama qilishi kerak bo'lgan komissiyaning a'zosi bo'lishdan qo'rqasizmi?

13. Sizda biror adabiyot, san'at va madaniyat asarlarini baholashning sof individual mezonlari bor va bu borada boshqalarning fikrini qabul qilmaysiz. Shundaymi?

14. Sizga juda tanish bo'lgan masala bo'yicha boshqalarning noto'g'ri fikrlarini tasodifan eshitib qolsangiz, indamay qo'ya qolasizmi?

15. U yoki bu masalada yordam berishingizni so'rashsa, siz bundan og'rinasizmi?

16. O'z nuqtayi nazarangizni og'zaki bayon etgandan ko'ra, uni yozma tarzda ifodalashni afzal ko'rasizmi?

Endi ballarni hisoblang:

«ha» — 2 ball, «ba'zan» — 1 ball, «yoq» — 0. Shu tarzda ballarni qo'shib chiqib, odamlarning qaysi toifasiga kirishingizni bilib olasiz.

14—18 ball. Sizning muloqotga kirishuvchanligingiz yaxshi, o'rtacha. Siz ko'p narsaga qiziqasiz, boshqalarni bajonidil tinglaysiz, o'zgalar fikriga sabr-toqatlisiz, o'z fikringizni bosliqlik bilan izhor etasiz. Begonalar bilan uchrashuvga borish siz uchun unchalik xohish emas, lekin shovqin-suronli davrani yoqtirmaysiz, odamlarning sergapi sizga yoqmaydi.

9—13 ball. Siz muloqotga kirishuvchansiz. Qiziquvchan, sergap, turli masalalarda o'zgalar bilan gaplashishni yaxshi ko'rasiz. Yangi odamlar bilan tanishish, davraning diqqat markazida bo'lishni yoqtirasiz. O'zgalarning iltimoslarini bajarmasangiz ham qabul qilaverasiz. Achchig'ingiz tez, lekin tez soviysiz. Sizga sabr-toqat, qiyinchiliklar bilan to'qnashganda jasorat yetishmaydi. Le-

kin astoydil xohlasangiz, o'zingizni yon bermaslikka ko'ndirishingiz mumkin.

4—8 ball. Sizning muloqot malakangiz yomon emas, siz barcha ishlarning guvohi bo'lib yurasiz. Munozaralarda qatnashishni yaxshi ko'rasiz, biror masala yuzasidan yuzaki tasavvurga ega bo'lsangiz ham, o'z fikringizni aytishni xohlaysiz. Ishni oxiriga olib bora olmasangiz ham har qanday ishni boshlayverasiz. Shuning uchun ham rahbarlaringiz va kasbdoshlaringiz sizdan xavotirda bo'lishadi. Bu haqda oylab ko'ring.

3 va undan kam ball. Sizning kommunikativ malakalaringiz yaxshi emas, siz sergapsiz, har narsaga aralashaverasiz. O'zingiz umuman bexabar bo'lgan narsalar xususida ham fikr yuritaverasiz. Ixtiyorsiz tarzda turli ziddiyatlar va janjallarning ishtirokchisiga aylanib qolasiz. Jizzaki, salga xafa bo'ladigan odatingiz bor, shuning uchun odamlar siz bilan chiqisha olmaydilar. O'zingizni tutish, sabr-toqatli bo'lish uchun odamlarga hurmat bilan qarashga o'rganing. Qolaversa, o'z sog'lig'ingiz haqida qayg'uring, chunki bunday hayot tarzi izzsiz bo'lmaydi, asablaringiz charchab qolishi mumkin.

2.7. Sezgi va idrok

Bizni o'rab turgan va mavjud bo'lgan barcha narsa va hodisalar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususiyatlar bu predmetlarning belgilaridir. Belgi bu predmetni boshqalardan ajratadigan omildir. Xususiyatlar bevosita bizning ongimizda aks etib, bunda sezgi organlari — ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri orqali tuyushning roli katta. Bu eng oddiy psixik jarayon bo'lib, narsa va hodisalarning xususiyatlari, fizik jarayonlarning sezgi organlariga bevosita ta'sir etishi natijasida ularning xususiyatlari alohida-alohida namoyon bo'lishi sezgi deb ataladi. Sezgi paydo bo'lishi uchun nima zarur? Buning uchun biror sezgi organiga ta'sir etuvchi predmet va sezuvchi apparat zarur. Aks etish xususiyatiga va retseptorlarining joylashgan o'rniga qarab sezgilar, odatda, uch guruhga ajratiladi.

1. Tashqi muhitdagi narsalar va hodisalarning xususiyatlarini aks ettiradigan hamda tananing yuzasida retseptorlari bo'lgan eksterotseptiv sezgilar.

2. Tananing ichki a'zolarida va to'qimalarida joylashgan hamda ichki a'zolarining holatini aks ettiradigan retseptoralarga ega bo'lgan interotseptiv sezgilar.

3. Retseptorlari mushaklarda va paylarda oʻrnashgan propriotseptiv sezgilar: ular gavdamizning harakati va holati haqida axborot berib turadi.

Baʼzi sezgi turlarida adaptatsiya hodisasi mavjud boʻlib, organizmning har qanday sharoitda ham tashqi muhitning oʻzgarishlariga va taassurotlariga moslashish, koʻnikish imkoniyatini beradi. Sezgilar doimo taʼsirning kuchiga bogʻliq, shuning uchun sezgilar maʼlum chegara ichida hosil boʻladi. Sezgilar doimo bir-biriga taʼsir etadi va oʻzaro munosabatga kirishadi. Analizatorning sezgilari insonning mehnat faoliyati jarayonida shakllanadi va takomillashadi.

Sezgi jarayoni obyektiv olamning toʻgʻri aks etishini taʼminlovchi tashqi qoʻzgʻatuvchilarni tanlash va energiyani qayta ishlovchi sensor harakatlar tizimidan iboratdir. Sezgilarning qabul qilinishi hamda tashqi olam energiyasining ong hodisasiga aylanishi haqida aniq fikrlarni I.M. Sechenov bergan. Agar insonning uygʻoq vaqti oʻrta hisobda 12 soat deb olinadigan va har bir faza boʻyicha oʻrta sonni oladigan boʻlsak, koʻrish sezgisini 5 qismchalarga boʻlsak, koʻz orqali 8 ming sezgi, quloqda undan kam emas, muskullar harakatida esa undan ham koʻp sezgi yuzaga kelar ekan. Bir haftada u 56 ming, 1 oyda 204 ming, 1 yilda 2 millionga yaqin sezgi hosil boʻladi.

Idrokda esa, doimo idrok etuvchi shaxsning xislatlari uning idrok etayotgan narsalarga munosabati, kishining ehtiyojlari, qiziqishlari, intilishlari, istaklari va his-tuygʻulari u yoki bu tarzda aks etadi. Idrok bu narsa va hodisalarni bizning sezgi organlarimizga taʼsir etishi asosida ularning yaxlit obrazlari yuzaga kelish jarayonlaridir. Idrok qiziqishlarimiz va irodemiz bilan qanday darajada bogʻliqligiga koʻra ixtiyoriy va ixtiyorsiz idrokka ajratilishi mumkin. Ixtiyoriy idrok kuzatishda yaqqol namoyon boʻladi. Kuzatish bu maʼlum aniq anglashgan maqsad bilan qilinadigan hamda ixtiyoriy diqqat yordamida amalga oshiriladigan ixtiyoriy rejali idrokdir. Psixologlarning fikricha, inson nimaniki idrok qilsa, uni figura va fonda idrok qiladi. Figura shunday narsaki, uni aniq anglash, ajratish, koʻrish, eshitish va tuyish mumkin. Fon esa, aksincha, noaniqroq, umumiyroq narsa boʻlib, aniq obyektни ajratishga yordam beradi. Masalan: gavjum bozorda ketayotgan taqdirda ismimizni biron aytib chaqirsa, darrov oʻsha tarafga qaraymiz. Ism — figura boʻlsa, bozordagi shovqin-suron — fon rolini oʻynaydi. Idrok sezgi jarayonlaridan tashkil topadi. Sezgilar

yaxlit tarzda idrok jarayonini ta'minlaydi. Idrok ongli, maqsadga qaratilgan murakkab jarayon bo'lib, unda shaxsning u yoki bu obyektga shaxsiy munosabati va idrokdagi faolligi aks ettiriladi.

Sezgilar uchun quyidagi xususiyatlar xos: adaptatsiya, sensibilizatsiya, senesteziya.

Adaptatsiya — sezgi organlarini ularga ta'sir etuvchi stimullarga moslashishi, bunda ularning aks etilishini yaxshilash yoki ortiqcha og'irlikdan xalos etilishi nazarda tutiladi (qorong'ulik, yorug'likka moslashish).

Sensibilizatsiya — analizatorlarning o'zaro munosabati va mashq qilish natijasida sezgi organlarining sezuvchanligining ortishi (masalan, ovoz ta'sirida ko'rishning o'tkirlashishi). Analizatorlarning markaziy bo'lmalari joylashgan bosh miya qobig'ida qo'zg'atishning tarqalishi va to'plash jarayonlari o'zaro munosabatning fiziologik mexanizmi bo'lib hisoblanadi.

Sinesteziya — bir analizatorning qo'zg'atish ta'siri ostida boshqa analizatorga xos sezgining hosil bo'lishi. Ushbu holat sezgilarning har xil turlarida kuzatiladi. Tovush qo'zg'atuvchilari ta'sir qilganda subyektda ko'rish obrazlari paydo bo'lganda, ko'pincha ko'rish, eshitish sinesteziyasi uchraydi.

Sezgi a'zolari sezuvchanlik oshishiga olib boradi va ikki sohani ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Sensor nuqsonlar ko'rlik va karlikning o'rnini to'ldirish zaruratidan stixiyali tarzda kelib chiqadigan sensibilizatsiya.

2. Subyekt faoliyati tufayli kasbga xos talablardan kelib chiqadigan sensibilizatsiya. Ko'rish yoki eshitish sezgisining yo'qotilganligi ma'lum darajada sezuvchanlikning boshqa turlarini rivojlantirish hisobiga to'ldiriladi.

Insonning barcha sezgilari quyidagi sifatlarga qarab klassifikatsiyalanadi:

1. *Eksterotseptiv sezgilar* — tashqi olamdagi narsa va hodisalarning sifatarida aks etadi. Ularga ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish va teri sezgilari kiradi.

2. *Interoseptiv sezgilar* — ichki organlarning turli holatlari aks etadi (organik, og'riq sezuvchi).

3. *Propriotseptiv sezgilar* — turli harakat organlari holatlari aks etadi (muskul, harakat, kinetik va muvozanat).

Ko'z ko'rish sezgisining organi, u tashqi tomirlar va to'r pardadan iborat. Ko'rish sezgisining fizik sababchisi yorug'lik to'lqinlari hisoblanadi.

Ranglar axromatik (qora, oq, kulrang) hamda xromatik (qizil, sariq, havorang, ko'k, siyohrangga) bo'linadi.

Ko'rish sezgisining markazi miya katta yarim sharlarining ensa bo'lagidir. Quloq eshitish sezgisi — ovozlarni sezish organi. Tashqi quloq — quloq chanog'i va eshitish bo'shlig'idan iborat. O'rta quloq — uchta suyakchaga mahkamlangan quloq pardasi, ichki yupqa parada, ichki tog'ay, eshituv suyakchasidan iboratdir. Ular havo to'lqinlarini ichkariga o'tkazadi. Eshitishning miya markazi bosh miyaning chakka qismi hisoblanadi.

Eshitish sezgisining sifati:

- a) ovoz balandligi;
- b) ovozning kuchi;
- d) ovoz tembri.

Hid bilish sezgisi — hidni bilish bilan xarakterlanadi.

Organi — burun bo'shlig'ining yuqori qismi bo'lib, unda hid bilish kataklari mavjud. Hidlar predmetlar bo'yicha klassifikatsiyalanadi.

Fizik sababi — gazga o'xshash moddalarning burun bo'shlig'iga tushishi va hid bilish retseptorining kataklarga ta'sir etishi.

Hid bilish markazi — miya ensa bo'lagining pastki qismida joylashgan.

Ta'm bilish sezgisi — achchiq, shirin, nordon, sho'rni sezish.

Organi — tilning ustki qismi va tanglay.

Ta'm bilishning fizik sababi — suvda va so'lakda eriydigan moddalar.

Ta'm bilishning markazi — hid bilish markaziga yaqin.

Teri orqali tuyish sezgisi — temperatura, taktil sezgilari.

Temperaturani sezish — issiq va sovuqni teri orqali bevosita sezish bilan bog'liq, fizik sababi teriga boshqa moddalarning tegishi. Terida 250 mingta sovuq hamda 30 mingta issiqni qabul qiluvchi nuqta mavjud.

Taktil sezgi — tegish va bosimni sezish organini alohida tuyish tanachalari bo'lib, ular tana bo'ylab notekis joylashgan. Barmoqlar, til, lablarda uchta nuqta mavjud.

Idrok jarayonida ishtirok etuvchi analizatorlarga ko'ra ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, kinetik va teri orqali tuyish kabi idrok turlari mavjud. Boshqa klassifikatsiyasi asosida materiyaning mavjud bo'lishi yo'qolish, vaqtni idrok etish, fazoni, xatti-harakatni idrok etish turlariga bo'linadi.

Fazoni idrok qilish — forma, kattalik, obyektlarning joylashishi, ularning relyefi va yoʻnalganligini idrok etishda ifodalanadi. Fazoni idrok etish kuchi, teri orqali tuyish va muskulning harakat organlari asosida yuzaga keladi. Vaqt idrok etish — obyektiv vaqtni, uning tezligi va ritmining aks etishi. Harakatni idrok etish — obyektiv fazodagi joylashishi va oʻzgarishining aks etishi boʻlib, bunda koʻrinishi va kinetik analizator muhim ahamiyatga ega. Idrokning sifati — bu tezligi, aniqligi va toʻlaligi. Idrokning sifati tashqi omillarga bogʻliq boʻlib, bunga narsa va hodisalarning sifat, turgan joyi, organi faktorlari — sezgi organlari va nerv sistemasining holati, subyektiv faktorlari — bilim, tasavvur, qiziqish va tafakkur rivojlanishi bilan bogʻliq.

Idrokning oʻziga xos xususiyatlari quyidagilardan iboratdir:

- a) predmetliligi;
- b) yaxlitliligi;
- d) strukturaliligi;
- e) konstantligi;
- f) mantiqiyliigi;
- g) tanlanganligi.

Predmetlilik — bu obyektivlashtirish akti boʻlib, u tashqi olamdan olingan maʼlumotlarni oʻzida mujassamlashtiradi.

Yaxlitlik — predmetlarni u haqidagi maʼlumotlarni jamlagan holda yaxlit idrok etish.

Strukturalilik (tizimlilik) — predmetlarni sezgilar yigʻindisi sifatida emas, balki bu sezgilar asosida predmet strukturasi maʼlum bir vaqt oraligʻida shakllanuvchi, uning elementlari orasidagi borliqni idrok etish.

Konstantlilik — idrok etilgan predmet xususiyatlarining doimiyliigi, oʻzgarmasligi.

Mantiqiylik — anglangan holda idrok etish, yaʼni predmetni aniq guruh, sinfga kiritgan holda umumlashtirish.

Tanlanganlik — koʻp obyekt ichida boshqalar bilan solishtirilganda konkret obyekt, fondan ajratilishi.

Idrokda appersepsiya hodisasi yuzaga keladi (Nemis psixologi G. Leybnits tomonidan kiritilgan). Bu idrokning mazmunini olingan bilimlar, malakalar, qarashlarga, insonni atrofga boʻlgan munosabatiga bogʻliqligida ifodalanadi. Idrokda alohida hodisalar mavjud — illuziya, gallutsinatsiya va subsensor idroklar.

Illuziya — sezgi organlariga bevosita taʼsir etib turadigan narsa va hodisalarni notoʻgʻri yoki buzib idrok etishdan iborat psixik

hodisa. Illuziya hodisasi ko'ruv, eshituv, harakat idroki kabi sohalarga xosdir. Ularni jismoniy, fiziologik va psixologik sabablar keltirib chiqarishi mumkin, jismoniy sababga misol: stakandagi choyga solingan qoshiqni siniq deb idrok qilish. Fiziologik sabab: ko'zimizning tagiga yon tomondan barmog'imizni bir oz botirsak, ko'rib turgan predmetimiz ikkilanadi. Psixologik sabab kontrast natijasida noto'g'ri ko'rinish — oq fondagi kulrang doimo qora fondagidan ko'ra to'qroq ko'rinadi.

Gallutsinatsiya alahsirash, bosinqirash, valdirash real voqeelikdagi narsa va hodisalarning analizatorga bevosita ta'sirsiz ongimizda turli obrazlarning xayoliy ravishda paydo bo'lishidan iborat psixopatologik hodisa.

Subsensor idrok — miyaga his etish organlari orqali yetib keladigan signallarni inson tomonidan ongsiz ravishda idrok etilishi va qayta ishlanishi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Sezgining materiyani aks etish formasi sifatidagi o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?
2. Sezgilarning klassifikatsiyasini tushuntiring.
3. Sezgining paydo bo'lish chizmasini tushuntiring.
4. Idrok deganda nimani tushunasiz?
5. Idrokning xususiyatlarini ayting.
6. Illuziya nima?
7. Idrokning sifatleri haqida ma'lumot bering.
8. Sezgi, idrok turlarini klasster metodi orqali ishlab chiqing.

Mustaqil ish

Idrokning xususiyatlarini sizning sohangizdagi ahamiyatini zamonaviy texnologiyalarning biri bo'yicha ishlab chiqing.

2.8. Diqqat va xotira

Diqqat — kishi faoliyatining barcha turlari, eng avvalo, mehnat va o'quv faoliyati samaradorligining muhim va zarur sharti. Mehnat qanchalik murakkab va mas'uliyatli bo'lsa, u diqqatga shunchalik katta talablar qo'yadi.

Ziyraklik kishiga uning kundalik hayotida, turmushida, boshqa odamlar bilan munosabatga kirishishida zarurdir. O'quvchilarning diqqat-e'tibori o'quv-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning asosiy shartlaridan biridir.

Ta'lim olishda diqqatning roli ta'kidlanarkan, diqqat aynan shunday bir eshikki, tashqi olamdan kishi qalbiga kirib keladigan jamiki narsalarning barchasi shu eshik orqali kiradi. Diqqat individning hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqozo etadigan tarzda ongning yo'naltirilganligi va bir narsaga qaratilganligidir. Sodaroq qilib aytadigan bo'lsak, diqqat ongimizni bir nuqtaga to'plab, ma'lum narsa va hodisalarga aktiv yo'naltirilganidir. Biz faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, qilgan ishimiz, o'y va fikrlarimiz diqqat obyekti bo'ladi. Diqqat qilinayotgan paytda ongning bir nuqtaga to'planishi, ong idrokning to'rayishidan iboratdir. Ongning eng yuqori nuqtasi diqqatning markazi deb ataladi. Ana shu nuqtaga tushgan barcha narsalar, ya'ni idrok qilinayotgan predmetlar, tasavvurlar fikrlar to'la yorqin holda aks ettiriladi. Diqqat sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur va harakat jarayonlarida namoyon bo'lishi mumkin. Diqqat aqliy jarayonlarning sifatini ta'minlaydigan ichki aktivlik hamda har qanday faoliyatning muhim shartidir.

Diqqatni biror narsaga qaratish obyektga bog'liq holda diqqatning namoyon bo'lishining sensor, aqliy, harakatlantiruvchi shakllari ajratib ko'rsatiladi. Hozirgi vaqtda sensor (ko'rish va eshitish) diqqat ko'proq o'rganilganidir. Diqqatning fiziologik mexanizmlarini tushunib yetishda dominanta (nasldan naslga o'tuvchi asosiy belgi) prinsipi alohida ahamiyatga ega.

A.A. Uxtomskiyning fikriga ko'ra, miyada hamisha qo'zg'alishning ustun va hukmronlik qiluvchi markazi mavjud bo'ladi. Diqqat miya faolligini muayyan darajasida yuz berishi mumkin. Demak, diqqatning fiziologik asosini bosh miya po'sti qismidagi «optimal qo'zg'alish nuqtasi» tashkil qiladi. Miya po'stining optimal qo'zg'algan joyi o'z o'rnini almashtirib turishi, diqqatni bir narsadan ikkinchi narsaga ko'chishini va shuning bilan birga, ongimizning ma'lum narsa, ma'lum faoliyat turiga qarata yo'naltirilishi va to'planishini shartlaydi. Shunday qilib, diqqat bir qator miya tuzilmalari faoliyati bilan bog'liqdir. Lekin diqqatning har xil shakllari va turlarini tartibga solishda ularning roli turlichadir. Hosil bo'lish xususiyatlari va amal qilish usullariga ko'ra diqqatning 2 ta asosiy turi — ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlari mavjud. Ixtiyoriy diqqat—ongli ravishda boshqariladigan va tartibga solinadigan diqqat va e'tibordir. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqat zahirida hosil bo'ladi. Ixtiyoriy diqqatning asosiy

vazifasi psixik jarayonlarning kechishini faol boshqarib turishdan iborat. Bu diqqatning boshlanishi, davom ettirilishi, kuch va zoʻr berilishini, yaʼni irodaning ishtirokini talab qiladi. Shuning uchun bu irodaviy diqqat deb ham yuritiladi. Ixtiyorsiz diqqat kishining xohishlari va maqsadlaridan holi tarzda hosil boʻladigan diqqat-eʼtibor va ixtiyorsiz diqqatni hosil qiluvchi qoʻzgʻovchilarning xususiyatlaridir. Masalan, baland ovoz, yorqin nur, kuchli hid va hokazo. Ixtiyorsiz diqqatda qiziqishning roli benihoya kattadir. Ixtiyorsiz diqqat shaxsning umumiy yoʻnallganligiga ham bogʻliqdir. Masalan, teatr bilan qiziqadigan kishi, ehtimol futbol boʻyicha boʻlajak musobaqa haqidagi eʼlonga eʼtibor bermasdan, ayni chogʻda teatrga oid yangi eʼlonni tezroq payqashi mumkin. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatdan tashqari uning yana bir alohida turini — ixtiyoriydan soʻnggi diqqatni alohida koʻrsatish mumkin. Bu tushuncha psixologiyaga N.F. Dobrinin tomonidan joriy etilgandir. Ixtiyoriydan soʻnggi diqqat biror narsaga uzoq vaqt davomida juda ham barqaror qaratilishi bilan belgilanadi, koʻproq yuqori darajadagi jadal va unumli aqliy faoliyati, barcha turdagi mehnatning yuksak unumdorligi asosli ravishda ana shunday diqqat turi bilan bogʻliqdir.

Diqqat turlicha sifat koʻrinishlari bilan taʼriflanadi. Diqqatning bu koʻrinishlarini diqqatning sifati yoki diqqatning xususiyatlari deb ataladi. Diqqatning barqarorligi, koʻchishi, taqsimlanishi va koʻlami shular jumlasiga kiradi. Diqqatning barqarorligi — diqqatga qaratilgan obyektlarning xususiyatlariga va yoʻnaltirilgan shaxsning faolligiga bogʻliq boʻladi.

Harakat esa diqqatni obyektga yanada koʻproq jalb etadi. Shunday qilib, diqqat harakatga qoʻshilib va u bilan oʻzaro chatishib, obyekt bilan mustahkam bogʻlanish hosil qiladi. Diqqatning barqarorligi uning harakatchanlik xususiyatlari bilan uzviy bogʻliqdir. Diqqatning koʻchishi subyektning bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga, bir obyektidan ikkinchi obyektga, bir harakatdan ikkinchi harakatga ataylab oʻtishida namoyon boʻladi. Diqqatni koʻchirishning muvaffaqiyati bir qancha shart-sharoitlarga bogʻliqdir. Diqqat oldingi va keyingi faoliyat xususiyatlari bilan bogʻliq boʻladi. Diqqatning koʻchirilishi koʻp jihatdan yangi faoliyat va maqsadning shaxs uchun ahamiyati, uning aniq-ravonligi va soddaligi bilan belgilanadi. Diqqatning koʻchirilishida anchagina individual farqlar mavjuddir. Baʼzi odamlar bir faoliyatini qoʻyib, ikkinchisini bajarishga tez va osongina kirishib ketsa, boshqalariga

bunday tarzda o'tish uchun uzoq vaqt va anchagina kuch-g'ayrat sarflashga to'g'ri keladi. Hozirgi ko'pgina kasblar aynan diqqatning ko'chuvchanligiga nisbatan yuksak talablar qo'yimoqda. Diqqatning ko'chishi o'quv jarayonida ham katta ahamiyatga egadir, diqqatning ko'chishi bilan bir qatorda uning bo'linishini ham alohida ajratib ko'rsatadilar. Diqqatning bo'linishi deganda uning asosiy faoliyatidan uni muvaffaqiyatli tarzda bajarish uchun ahamiyatsiz obyektlarga ixtiyorsiz ko'chirilishi tushuniladi. Diqqatning taqsimlanishi ikkita va undan ko'proq faoliyat turlarining (bir qancha harakatlarining) ayni bir vaqtning o'zida (biriga qo'yib) muvaffaqiyatli bajarish imkoniyati bilan bog'liq xususiyatdir.

Diqqatning yuksak darajada taqsimlanishi ko'pgina hozirgi zamon mehnat turlari muvaffaqiyatligining muqarrar shartlaridan biridir. Operatorlar, ko'plab dastgohlarda ishlovchilar, transport haydovchilar va boshqalarning ishi ana shuni talab qiladi. Diqqatning taqsimlanishi mumkinligi bir qancha shart-sharoitlarga bog'liqdir. Faoliyatning birgalikda bajariladigan turlari yoki hal etiladigan vazifalar qanchalik murakkab bo'lsa, diqqatga aylanishi ham shunchalik qiyin bo'ladi. Diqqatni taqsimlash malakasi o'quv faoliyatini egallab olish jarayonida shakllanadi, u mashq qilish va tegishli ko'nikmalarni orttirish orqali rivojlantirilib mumkin. Diqqatning xususiyatlari qatoriga ayni bir vaqtning o'zida aniq-ravshan idrok etiladigan obyektlar soni bilan belgilanadigan ko'lami ham kiradi. Diqqatning ko'lami idrok etiladigan obyektlarning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Jumladan, anglanilgan matn taqdim etilganda 14 harfli so'zlar osongina ilg'ab olinadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarda diqqatning ko'lami juda ham cheklangan bo'ladi. Yoshi ulg'aygan sari u kengaya boradi. Idrok etilayotgan materialning mazmuniga ko'ra guruhlarga ajrata bilish, sistemaga sola bilish, birlashtira olish malakalarining shakllantirilishi diqqatning ko'lamini kengaytirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Diqqatning salbiy jihatlaridan biri parishonxotirlikdir. Parishonxotirlik diqqatni uzoq vaqt davomida jadal bir narsaga qarashga layoqatsizlikda, diqqatning osongina va tez-tez bo'linib turishida namoyon bo'lishi mumkin.

Inson his qilgan barcha narsa va hodisalar izziz yo'qolmaydi. Ular ma'lum miqdorda xotirada saqlab qolinadi, mustahkamlanib va kerak bo'lganda qayta esga tushiriladi. Odamda tasavvurlarning mavjudligi bizning idrokimiz miya po'stlog'ida qandaydir izlar

qoldirilishidan, ular ma'lum vaqt davomida miyada saqlanib tushirishidan dalolat beradi. O'tmish tajribamizda nimaiki hodisa yuz bergan bo'lsa, shuni esda olib qolish, esda saqlash va keyinchalik esga tushirish yoki tanish xotira deb aytiladi. Agar odamlar o'zlarining o'tmish tajribalarini esda saqlay olmasa va qayta tiklash qobiliyatiga ega bo'lmasa bilimlarni egallashning har qanday imkoniyatidan mahrum etilgan va ularning aqli darajasida qolavergan bo'lar edi. Shu sababdan ham har bir odamning vazifasi o'z xotirasini boyitishdan iboratdir. Esda olib qolish jarayonida odamda bir narsa yoki hodisa bilan boshqa narsa yoki hodisa o'rtasida o'zaro aloqa bog'lanadi. Masalan, biz yangi tanishgan kishining ismini esda qoldirishda, uning tashqi qiyofasi va boshqa xususiyatlari bilan bog'laymiz. Ma'lum bir tarixiy faktni o'zlashtirishda uni boshqa tarixiy hodisalar bilan bog'laymiz, uning ma'lum bir davrga taalluqli ekanini aniqlaymiz. Shunday qilib esda qoldirish — biron bir yangi narsani ilgari odam ongida mavjud bo'lgan boshqa narsa bilan bog'lashdan iborat.

XX asrning 30-yillarida Rossiya psixologlari L.S. Vigodskiy, A.N. Leontyev, A.N. Zonkov, T.I. Zinchinko kabilar xotiraning turli jihatlarini o'rgandilar. I.N. Sechenov xotirani hayvon va inson tuzilishining eng muhim mo'jizasi deb bejiz aytmagan. Tashqi va ichki kuzgatuylarning ta'siri tufayli miyada qo'zg'alishlar vujudga keladi. Ularning izlari yo'qolib ketmaydi. Natijada nerv qo'zg'alishlar oson va tez boradi. Qo'zg'alishlar takrorlanib tursin, nerv bog'lanishlar saqlanadi. Aks holda, nerv bog'lanishlar uziladi. Materiallar unutiladi. Yarim sharlar po'stlog'ida bog'lanishlarning tez hosil bo'lishi, puxta bog'lanish miyaning ta'siriga reaksiya qilish hamda ilgari yuz bergan qo'zg'alishlar o'zlarini saqlab qolish qobiliyatiga bog'liqdir. Xotira quyidagi psixik jarayonlar: esda olib qolish, esda saqlab qolish, tanish, esga tushirish, esda olib qolishdan boshlanadi. Buning fiziologik asosi katta yarim sharlardagi vujudga kelgan vaziyatli nerv bog'liqlikdir. Biz ko'p narsalarni ixtiyorsiz holda esda olib qolamiz. Bu ixtiyorsiz esda olib qolish deyiladi. Kishining his-tuyg'ulari bilan bog'liq bo'lgan hodisalar ham yaxshi esda olib qolinadi. Esda olib qolishning ixtiyoriy turi ham bo'lib, kishi esda olib qolishga o'zini-o'zi majbur qiladi. Buning natijasida ko'pgina malakaga erisha oladi. Esda olib qolishning mexanik va ma'nosiga tushunib esda olib qolish turlari bor. Ma'nosiz tushunib esda olib qolishda tafakkur protsesslarining ahamiyati katta. Ilgari esda olib qolingani tashqi material

bilan yangi material bog‘lanadi. Misol, teoremaning isbotini esda olib qolish mumkin. Faqat takrorlash bilan esda qolish mexanik esda olib qolish deyiladi. Bunda noaniq bo‘lgani bilan material quruq yod olinadi, o‘zgargan material tez unutiladi. Ma’nosiga tushunib esda olib qolish mexanik ravishda esda olib qolishga nisbatan ancha puxtadir. Xotira jarayonlariga esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutilish jarayonlari kiradi. Esda olib qolish — qabul qilinayotgan predmet va hodisalarni tasavvurlar sifatida qabul qilish. Esda olib qolish xotira materiali bo‘lib, qayta esga tushirish xotira mazmunidir. Esda olib qolish mexanik va mantiqiy, ixtiyoriy, ixtiyorsiz bo‘ladi. Esda olib qolingan materialni saqlash — xotira jarayoni bo‘lib, unda ong harakati yuzaga keladi. Xotirada inson tomonidan qabul qilingan barcha narsa qoladi va ma’lum miqdori esdan chiqadi.

Qayta esga tushirish esda olib qolingan materialni aktuallashtirish bo‘lib, u uzoq muddatli xotiradan operativ xotiraga o‘tadi. Esda tushirish, tanish yoki xotirlash, ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz bo‘lishi mumkin. Tanish — bu qayta ko‘rganda esga tushirish bo‘lib, u obyektни qayta idrok etish natijasida yuzaga keladi.

Xotirlash — qayta idrok etishsiz esga tushirish. U ixtiyorsiz (assotsiatsiyalar asosida) va ixtiyoriy bo‘ladi. Esdan chiqarish — qayta esga tushirishdagi qiyinchiliklar bo‘lib, u ta’sir izlarini yo‘qotish natijasida yuz beradi.

Esdan chiqarish to‘la, qisman, uzoq muddatli va qisqa muddatli bo‘ladi.

Esdan chiqarishda tormozlanish yuzaga kelishi mumkin va ikki xil ko‘rinishga ega:

Proaktiv tormozlanish — oldingi faoliyatning keyingi yod olish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi.

Retroaktiv tormozlanish — vaqt bog‘liqligi tufayli xotirada tormozlanish yuzaga keladi (masalan, tarix darsidan so‘ng, adabiyot darsi ta’sirida). O‘zlashtirilgan material xotirada saqlanishi uchun uni takrorlab turish kerak. Esda saqlash jarayonida ijtimoiy hodisalar kuzatilishi mumkin. Material oradan oz vaqt o‘tishi bilan emas, balki bir qancha vaqtdan keyin esga tushadi, bu vaqtda material miya po‘stlog‘ida mustahkamlanadi. Biz hech narsani unutilmasak miyamiz keraksiz informatsiyalar bilan to‘ladi, yangi aloqa va bog‘lanishlar sodir bo‘lmay qoladi.

Unutilish biz uchun qimmatli bo‘lgan narsalarni saqlash imkonini beradi. Biz esda olib qolgan barcha narsalar beixtiyor holda

esga tushadi. Bu ixtiyorsiz esga tushirilish deyiladi. Biz ba'zi narsalarni qiyinchilik bilan esga tushiramiz, bu ixtiyoriy esga tushirish deyiladi. Tanib olish esga tushirishning alohida formasidir. Misol: ko'chada ketayapmiz, qarshimizdan kelayotgan odamni qayerdadir ko'rganmiz, u so'rashganidan keyin, uni ovozidan taniymiz. Tanib olish ham ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'ladi. Tanib olish esga tushirishga nisbatan osonroq kechadi. Chunki tanib olish takror idrok qilishga asoslanadi. Shuning uchun esga tushirishda tanib olishdan foydalanamiz. Bizga kerakli bo'lgan ismni eslash uchun bir qancha ismlarni xayolimizdan o'tkazamiz va topib olamiz.

Xotira sifatlari

Xotiraning quyidagi sifatlari mavjud:

- a) ko'lami esda olib qolingani materiallarning miqdori;
- b) esga tushirishning aniqligi;
- d) esda olib qolishning tezligi;
- e) o'zlashtirilgan materialning uzoq vaqt saqlanishi;

f) xotiraning tayyorligi, kerak bo'lgan vaqtda kerakli materialni tez esga olish, esga tushirish qobiliyati nazarda tutiladi. Bu xususiyatlar kimda yaxshi rivojlangan bo'lsa, uning xotirasini yaxshi xotira deyish mumkin. Lekin, kishilarning ko'pchiligida xotiraning ba'zi sifatlari yaxshi bo'lsa, boshqa sifatlari yomon rivojlangan bo'ladi.

Xotira turlari

Xotira psixik faolligiga ko'ra ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'lishi mumkin. Faoliyat maqsadiga ko'ra harakat emotsional, so'z, mantiqiy, obrazli xotiraga ajratiladi. Materialni esda olib qolish muddatiga ko'ra, uzoq muddatli, qisqa muddatli va operativ xotira turlariga bo'linadi.

Xotiraning quyidagi individual turlari ajratiladi — ko'rish, eshitish, motor va aralash.

Ko'rish turi — ko'rish orqali materialni tez esda olib qolish.

Eshitish turi — eshitish orqali materialni yaxshi esda olib qolish.

Motor turi — odamni qayta takrorlash yoki yozib olish orqali esda olib qolishi.

Aralash turi — ko'rish, eshitish, ko'rish — motor.

Xotira sifati xotirada olib qolish tezligi, esda olib qolish mustahkamligi, esga tushirish tezligi bilan xarakterlanadi.

Esda olib qolish yo'llarini bilmaydigan va puxta esda qoldirish uchun zarur shart-sharoitlarni hisobga olmaydigan kishilar, ko'pincha, o'z xotiralari yomonligidan nolib yurishadi. Shu bilan birga xotiraning buzilish hollari ham bo'lishi mumkin. Kishining xotirasi biron-bir kuchli ta'sir (ko'p hollarda qo'rqish), miyaning katta yarim sharidagi kishi xotirasi bilan bog'liq bo'lgan markaziy nerv hujayralarining shikastlanishi oqibatida buzilishi mumkin.

Shizofreniya, skleroz kabi kasallik turlari xotiraning buzilishi bilan bog'liq.

Diqqatni rivojlantirish

Psixokorreksiya — inglizcha so'zdan olingan bo'lib, shaxsning psixik rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish usullarini qo'llash jarayoni. Kishi xotirasini psixokorreksiya orqali rivojlantirish va shakllantirish mumkin. Bularning o'ziga xos qoidalari mavjud.

Maktab o'quv tarbiya jarayonini tashkil etishda diqqatning barcha turlarida asosiy xususiyatlarini hisobga olish zarur. O'quv jarayonida ixtiyorsiz diqqat muhim rol o'ynaydi. Ixtiyorsiz diqqatning boshlang'ich sinflardagi roli, ayniqsa, kattadir. Chunki kichik yoshdagi o'quvchilarda diqqatni ixtiyoriy ravishda biror narsaga qaratish qobiliyati sust rivojlangan bo'ladi. Maktab ish tajribasida ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatni birga qo'shib olib borish va ixtiyorsiz diqqatga tayangan holda ixtiyoriy diqqatni tarbiyalash zarur. Butun o'qitish jarayonini to'g'ri va puxta uyushtirish o'quvchi diqqatini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Diqqat ta'limning muvaffaqiyatliligi shartlaridan biri bo'lgani holda uning shakllanishi ham ushbu jarayonning o'zida yuz beradi.

O'quv faoliyati, ayniqsa, ixtiyoriy diqqatni tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. O'quvchilarning dars paytidagi diqqati darsning tuzilish xususiyatlari bilan belgilanadi, o'rganilayotgan materialning mazmuniga ham, uning o'qituvchi tomonidan bayon qilinishiga ham bog'liq bo'ladi. O'quvchilar diqqatining safarbar etilishi o'qituvchi nutqining xususiyatlariga, uning aniqligi va ifodaliligiga va shu kabilarga ham bog'liqdir. Diqqatni jalb qilishda ko'rgazmalilik (kartinalar, jadvallar, chizmalar va boshqalar)dan maqsadga muvofiq foydalanish katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning diqqatini uyushtirishda o'qituvchilarning izchil va muntazam talabchanligi muhim rol o'ynaydi. Ba'zi psixologlar diqqatni nazoratining alohida psixologik ta'siri deb tushunadilar. O'quvchilar

diqqatining yosh davr xususiyatlarini ham, individual xususiyatlarini ham hisobga olish ta'lim-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Masalan, kichik maktab yoshida diqqatning yetarli darajada obyektga to'planmaganligi, jumladan aqliy faollik yetarli emasligi, o'quv faoliyatida ko'nikma va malakalarning shakllanmaganligi, bola irodasining kuchsizligiga sabab bo'lishi mumkin.

Pedagogik faoliyatda diqqatning tashqi ko'rinishidagi individual xususiyatlarini ham inobatga olish muhimdir. Tashqi belgilari — aft-angorning o'zgachaligi, yuzlarning ifodasi va nigoh qaratilganligiga qarab diqqatning yo'naltirilganligi va uning to'planmaganligi darajasini aniqlash mumkin. Koos kubiklari metodikasi 1923-yilda S.C. Koos tomonidan taklif etilgan bo'lib, fazoda ish tutish, diqqat, ziyraklik, ko'rish, yasash xususiyatlarini o'rganishga mo'ljallangan. Bu metodika D. Vechslerning (1959—1955) metodikasiga aqlni tekshirish subtesti sifatida kiritilgan.

Link kubi metodikasi diqqat barqarorligini, ziyrakligini aniqlashga imkon beradi. Peron-Ruzer metodikasi ko'rish-yasash xususiyatlarini, maqsadga yo'nalgan ko'nikmalarni egallash imkoniyatlarini, xarakterlarning yangi usullarini o'zlashtirishni o'rganishga mo'ljallangan. Bu metodika yordamida ixtiyoriy diqqat hajmi, uning barqarorligi haqida bilib olish mumkin.

Diqqatning ko'chishi, uzoq davom etadigan aqliy ishga qobiliyatni o'rgatish maqsadida I.V. Kruk (1986) tomonidan taklif etilgan metodikaning o'zgartirilgan variantini qo'llash mumkin. Shult jadvali bo'yicha sonlarni izlash metodikasi diqqatning ko'chishi va bo'linish xususiyatlarini, sensomotor reaksiyalar tezligini o'rganish uchun foydalaniladi. Krepelin bo'yicha sanash va hisoblash metodikasidan murakkab sezgi harakat reaksiyalarini, ish qobiliyatini, ixtiyoriy diqqat barqarorligini, psixik jarayonlar kechishining tezligini aniqlash uchun foydalanish mumkin. Bulardan korrektur sinov metodikasi diqqatning tebranishini ko'rish analizatori uzoq vaqt ishlaganda bir xil ko'ruv qo'zg'atuvchilarga nisbatan sinaluvchining charchashini aniqlashga imkon beradi.

Xotirani o'stirish uchun mashqlar

Agar yoningizda biror o'rtog'ingiz bo'lsa, undan quyidagi sonlar qatorini bir xil tempda o'qib berishini so'rang. Siz uning orqasidan ovoz chiqarib takrorlang. Agar o'zingiz mustaqil bajar-

moqchi bo'lsangiz, qatorlarga birin-ketin oq qog'oz yordamida o'tib, keyin xotirangizni tekshiring. Esingizda qolgan sonlarni qog'ozga yozing va nechta sonni va qaysi qatorlarni to'g'riroq esda olib qolganingizni aniqlang.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Diqqat va xotira haqida tushuncha bering.
2. Diqqat va xotiraning fiziologik mexanizmlarini nimalar tashkil qiladi?
3. Diqqat va xotiraning turlarini aytib bering.
4. Xotira jarayonlari va individual xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
5. Diqqatning tuzilishi deganda nimani tushunasiz?
6. O'quvchilar diqqatining xususiyatlarini qanday aniqlaymiz?
7. O'quvchilar xotirasini o'rganish metodlari haqida tushuncha bering.
8. Xotira buzilishi va psixokorreksiyasi haqida nimalarni bilasiz?

2.9. Tafakkur va xayol

Kishining butun hayoti uning oldiga hamisha jiddiy va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar va muammolarni qo'yadi. Bunday muammolarning, qiyinchiliklarning, tasodiflarning yuzaga kelishi atrofimizdagi voqelikda hali juda ko'p noma'lum, tushunib bo'lmaydigan, kutilmagan, yashirin narsalar borligidan dalolat beradi. Tafakkur shuning uchun ham zarurki, hayot va faoliyat davomida har bir individ narsalarning qandaydir yangi, ilgari ma'lum bo'lmagan xususiyatlariga duch kelinadi. Tafakkur hamisha hali bilib olinmagan yangilikning ana shunday cheksiz chuqur jihatlariga qaratilgan bo'ladi. Har bir odam tafakkur qilar ekan buning bilan shu paytgacha qandaydir yangilikni, noma'lum narsani mustaqil ravishda qayd qiladi.

Tafakkur jiddiy ravishda yangilik qidirish va ochishga ijtimoiy jihatdan bog'liq, aloqador psixik jarayondir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilimlardan paydo bo'ladi va hissiy bilim chegarasidan ancha tashqariga chiqib ketadi. Tafakkur so'zi arabcha «fikr» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'ylash, muhokama, mu-shohada va fikr yuritish ma'nolarini bildiradi. Inson borki u fikr yuritish qobiliyatiga ega. Bilish faoliyati sezish va idrok qilishdan boshlanadi va keyin tafakkurga o'tib ketishi mumkin. Biroq istagan tafakkur, hatto, eng rivojlangan tafakkur ham hamisha hissiy bilim bilan, ya'ni sezgi, idrok va tafovutlar bilan bog'langan bo'ladi.

Tafakkur faoliyati o'zining butun materialini faqat bitta manbadan, ya'ni hissiy bilishdan oladi. Tafakkur sezgilar va idrok qilish jarayonlari orqali tashqi olam bilan bevosita bog'lanadi hamda shu tariqa olamni aks ettiradi. Bu aks ettirishning to'g'riligi amaliy faoliyat orqali tabiat va jamiyatni o'zgartirish jarayonida uzluksiz tekshirib turiladi. Tafakkur sezgi, idrok va tasavvurning bilish bilan bog'liq bo'lgan ishlarini davom ettiradi va rivojlantiradi hamda ularning chegaralaridan tashqariga chiqib ketadi.

Tafakkurning til bilan uzviy, chambarchas bog'liqligi inson tafakkurining ijtimoiy, tarixiy mohiyatini ochiq-oydin namoyon qilib beradi. Bilim insoniyat tarixi davomida egallangan barcha bilimlarning izchilligini zaruriy tarzda taqozo qiladi. Bilimlarning bu tarixiy vorisligi ularni qayd qilish, mustahkamlash va esda saqlashda bir kishidan boshqasiga, avloddan avlodga o'tkazish yo'li bilan sodir bo'lishi mumkin. Kishining aqliy taraqqiyoti insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davomida hosil qilingan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida muqarrar ravishda amalga oshiriladi. Individning olamni bilish jarayoni ilmiy bilimlar, tarixiy taraqqiyot bilan yuzaga kelgan, bevosita ifodalangan, buning natijalarini har bir individ ta'lim olish davomida o'zlashtiradi, bu esa kishining insoniyat bilan munosabatining aynan o'zidir. Tafakkur faoliyati insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida bilimlarni o'zlashtirish uchun ham va mutlaqo yangi bilimlarni egalash, dastavval, olimlar tomonidan kashf etilishi uchun ham zarur asos bo'lib qoladi. Dunyoni bilish faoliyatida, asosan, ikki yo'ldan borish mumkin. Bevosita yo'l bilan narsa va hodisalarning ayrim xossalarini yaxlitligicha his etamiz, shuningdek, ilgari sezib, idrok qilingan narsalarni ko'z oldimizda yaqqol tasavvur qilib bilib olamiz. Bu bevosita hissiy bilishdir. Dunyoni hissiy bilishdan tasavvur orqali bevosita bilishga o'tiladi. Narsa va hodisalar o'rtasidagi munosabat hamda bog'lanish qonuniyatlarini biz hissiy yo'l bilan bilmay, faqat bevosita yo'l bilan tafakkur orqali to'liq va chuqur bilib olamiz. Masalan, allaqanday bir tanaga tegib turgan qo'ldan kelayotgan harakat sezgisi ana shu tananing harorat holatini bir xilda xarakterlab bera olmaydi. Mana shu harorat sezgisi, birinchidan, mazkur narsaning issiqlik holati bilan, ya'ni qo'lni issiq yoki sovuq narsaga tekkazib turganligiga bog'liq ravishda boshlanadi. Tafakkur tufayli yuqorida ko'rsatilgan har ikki o'zaro bog'lanish holatini bir-biridan ajratish mumkin. Tafakkur jarayon sifatida psixologik jihatdan tadqiq qilish, unday yo bunday bilish

natijalari hosil bo'lishiga olib keladigan ichki, yashirin sabablarni o'rganish demakdir. Tafakkurning bunday natijalari, mahsulotlari masalan, quyidagi omillardir: mazkur o'quvchi masalani yechdimi yoki yechmadimi, o'quvchida masalani yechish g'oyasi, rejasi taxminiy yuzaga keladimi yoki kelmaydimi, o'quvchida yangi tushunchalar yoki boshqa shu kabilar tarkib topadimi yoki tarkib topmaydimi.

Psixologiya fani mana shu faktlarning hammasini ichki, ya'ni fikrlash jarayoni jihatidan ochishga harakat qiladi. Buning bilan psixologiya psixik hodisa voqealarini faqat tasvirlab va ifodalab berish bilan cheklanmay, balki ularning qonuniyatlarini ko'rsatib beradi. Bunda psixologiya fani determinizm, ya'ni sababiy bog'lanish prinsipiga asoslanadi: tashqi sabablar ichki sharoit orqali amalga oshadi.

Kishining tafakkur faoliyati uchun uning faqat hissiy bilishi bilan o'zaro bog'liqligigina muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmay, balki til bilan nutqning o'zaro bog'liqligi ham muhim ahamiyatga egadir. Bunda inson psixikasi bilan hayvonlar psixikasi o'rtasidagi prinsipial farqlardan biri namoyon bo'ladi. Hayvonlarning elementar, juda sodda tafakkuri hamma vaqt faqat hayvoniy harakat tafakkurligicha qoladi. Nutq va tafakkur chambarchas bog'langandir. Odam nutq bo'lmasa, til vositalari bo'lmasa, fikr qila olmaydi. Nutq fikrlash qurolidir. Tafakkur bo'lmasa nutq ham, til ham bo'lishi mumkin emas. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til material bo'lmasa fikrni ifodalab berib bo'lmaydi. Faqat til yordami bilangina odamlar bir-biriga o'z fikrini ayta oladilar.

Kishilik jamiyatida fikr almashinuvi uchun, avvalo, bu fikrlar odamlarning ongida mustahkamlanishi zarur, shunda ham til bo'lishi albatta shart. Inson tafakkuri ham tarixiy taraqqiyot jarayonida, til yordami bilan bo'ladigan nutq aloqalarida o'sdi, tafakkur mantiqiy formalari ishlab chiqildi. Har bir kishining tafakkuri uning butun umri davomida, til yordami bilan bo'ladigan nutq aloqalari jarayonida o'sib boradi. Tafakkurning taraqqiyot tarixida tilning roli qanchalik katta bo'lsa, tilning taraqqiyot tarixida ham tafakkurning roli shunchalik kattadir. Grammatika qonunlari, formalari va qoidalarini tuzishda, ularning takomillashib borishida tafakkur, ayniqsa, katta ahamiyatga ega. Har bir kishidagi tafakkurning o'sishi shu kishi nutqining o'sishi bilan barobar bo'lganidek, shu kishi nutqining o'sishi ham undagi tafakkurning

o'sishiga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, tafakkur bilan nutq turli hodisalardir, lekin ayni vaqtda bu ikki hodisa bir-biri bilan chambarchas bog'langan, bir-birini taqozo qiluvchi va bir-biridan tashqarida o'sa olmaydigan hodisadir.

Psixologiya fanida tafakkurning quyidagi turlari ajratiladi.

1. Ko'rgazmali harakat.
2. Ko'rgazmali-obrazli harakat.
3. Mavhum (nazariy) tafakkur.

Tarixiy taraqqiyot davomida odamlar o'z oldilarida turgan masalalarni dastlab amaliy yordam nuqtayi nazaridan yechganlar, keyinchalik, undan nazariy faoliyat ajralib chiqadi. Amaliy va nazariy faoliyat o'zaro chambarchas bog'langandir. Har bir bolaning psixik tarbiya davrida amaliy faoliyati asos qilib olinadi. Bog'chagacha yosh davrida (3 yoshgacha), asosan, ko'rgazmali harakat bo'ladi. Ko'rgazmali-obrazli tafakkur sodda formada, ko'pincha, bog'cha yoshidagi bolalarda, 4—7 yoshgacha bo'lgan bolalarda paydo bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarda tafakkurning amaliy harakatlar bilan aloqasi garchi saqlanib qolsa ham, lekin bu aloqa avvalgidek to'g'ri, mustahkam bo'lmaydi. Bolalar amaliy va ko'rgazmali hissiy tajribalari asosida ularning maktab yoshidagi davrlarida avval sodda shakldagi mavhum tafakkur, ya'ni mavhum tushunchalar shaklidagi tafakkur rivojlanadi. Tafakkur bu yerda faqat amaliy harakatlar tarzida va ko'rgazmali obraz shaklida emas, balki avval mavhum tushunchalar va muhokamalar shaklida bo'ladi. Maktab o'quvchilarining aniq fanlar — matematika, fizika, tarix asoslarini o'zlashtirishlari davomida tushunchalarni egallashlari ularning aqliy taraqqiyotlari uchun katta ahamiyatga egadir. O'quvchilarda tushunchalarning taraqqiy etish jarayonida ko'rgazmalilik ikki tomonlama rol o'ynaydi. Bir tomondan ko'rgazmali tushunchalarning taraqqiy etishini yengillashtiradi. Bola tafakkur taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida hissiy, ko'rgazmali, konkret material bilan ishlash yengil bo'ladi. Masalan, ko'pgina tarixiy tushunchalar tegishli ko'rgazmali tasvirlar, kartinalar, rasmlar va boshqa shu kabilar asosida ancha mustahkam o'zlashtiriladi. Har qanday fikr yuritish faoliyatining bu boshlang'ich va dastlabki shakllari mavhum tafakkur bilan birga hamda uning ta'siri ostida rivojlanib, ilgaridek o'zgarib va takomillashib boradi. Bolalardagina emas, balki katta yoshdagilarda ham fikr yuritish faoliyatining bu boshlang'ich va dastlabki shakllari va hamma turlari doim rivojlanib boradi.

Tafakkur yoʻnalishiga qarab nazariy va amaliy tafakkur tur-lariga ajratiladi. Hodisalarni izohlashga qaratilgan tafakkur na-zariy tafakkur deb ataladi. Biror narsani izohlab berish nomaʼlum narsani maʼlum qilish demakdir. Turli ayrim tushunchalar oʻr-tasida bogʻlanishlarni va munosabatlarni ochib berish hamda shu bogʻlanishlarni muhokamalarda izohlab berish kerak boʻladi. Izohlab berish izohlanayotgan hodisaning maqsadini, uning nima uchun mavjudligi, ahamiyati va vazifasini koʻrsatib berish demakdir.

Izohlovchi tafakkur jarayonida bir qancha savollarga, masalan: «Buning oʻzi nima?», «Nega?», «Nima sababdan?», «Nima uchun?» degan shu kabi savollarga javob beriladi. Masalan, «gul — oʻsim-lik», «Psixologiya — fan». 7+3 va 11—1 miqdorlari bir-biriga teng. Mana shu misollarning hammasida biz hodisalar oʻrtasidagi bogʻlanishlar va munosabatni qayd qilamiz, izohlaymiz. Nazariy tafakkur, ayni vaqtda, abstrakt tafakkur hamdir. Masalan, hamma jismlar qizdirilganda kengayadi. Har qanday fanni oʻzlashtiramiz degan muhokamalar ham nazariy, ham abstrakt tafakkurdir. Nazariy tafakkurda voqelikda mavjud boʻlgan umumiy muhim bogʻlanishlar va munosabatlar aks etadi.

Shu tufayli biz u yoki bu xil ayrim hodisalarning kelishini (masalan, quyosh va oy tutilgan) vaqtni oldindan koʻrish im-koniyatiga ega boʻlamiz. Nazariy tafakkur oldindan koʻrish im-koniyatini beradigan umumlashtirilgan tafakkurdir. Tevarak-atrofdagi voqelikni oʻzgartirish yoʻli bilan oʻzimizga kerakli real narsalarni va hodisalarni olishga yoki yaratishga qaratilgan tafak-kur amaliy tafakkur deb ataladi. Tafakkur jarayonining quyidagi fikrlash operatsiyalari mavjud:

1. Analiz — yunoncha parchalash, boʻlish, tahlil qilish narsa va hodisalarni fikran tarkibiy qismlarga ajratishdan iborat aqliy ja-rayon. Masalan: psixologiyada ong hodisasi analiz qilinarkan, u aql, iroda, hissiyot deb uch qismga ajratiladi. Biror oʻsimlikni oʻrganishda uning qismlarini — ildizi, tanasi, shoxi, bargi, guli, mevasi va hokazolarni boʻlib oʻrganiladi.

2. Sintez — yunoncha qoʻshish, birlashtirish, narsa va hodisa-larning tarkibiy qismlari va sifat xususiyatlarini fikran yoki amaliy ravishda bir butun qilib qoʻyishdan iborat aqliy jarayon. Masa-lan, narsa va hodisalarning muhim belgilari qoʻshilishidan yaxlit bir tushuncha, harflardan boʻgʻinlar, boʻgʻinlardan soʻzlar, soʻz-lardan gap, gapdan nutq hosil boʻladi.

3. Taqqoslash — narsa va hodisalarni bir-bir solishtirish, ular oʻrtasidagi oʻxshashlik, farq, tenglik va qarama-qarshiliklarni topish. Taqqoslash tafakkur jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Taqqoslash har qanday tushunish va har qanday fikrlashning negizidir, dunyodagi hamma narsalarni bir-biri bilan taqqoslamasdan bila olmaymiz.

4. Umumlashtirish — tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning oʻxshash, muhim belgilarini shu narsalar toʻgʻrisida bitta tushuncha boʻlib fikran birlashtirish: masalan, piyoz, kartoshka, karam, sabzi kabilarga xos belgilar «sabzavot» tushunchasi bilan umumlashtiriladi.

5. Abstraksiyalash — umumiy va mavhum tushunchalar yordamida paydo boʻladigan tafakkur jarayoni. Buyumlarning bir qancha xossalardan fikran chalgʻish va qaysidir bittasi oʻzimiz uchun kerakligini ajratib olish abstraksiya deyiladi. Masalan, rang, kuch, abstrakt tushunchalardan mosini ajratib olishimiz.

6. Konkretlashtirish — bevosita idrok yoki tasavvur qilinayotgan narsa yoki hodisalar haqidagi, yaʼni aniq obrazlarga asoslangan tafakkur jarayoni. Analiz va sintez, umuman tafakkur faoliyati boshqa bir qanday faoliyat kabi hamma vaqt shaxsning qandaydir ehtiyojlariga asoslanadi. Agar ehtiyojlar boʻlmasa hech qanday faoliyat ham boʻlmaydi. Tafakkurning oʻzgaruvchanligi shundan iboratki, masalani yechishning boshida belgilangan yoʻli, asta-sekin yuzaga chiqadigan va avvaldan hisobga olib boʻlmagan muammo shartlarini qanoatlantirmasa, ana shu yoʻlni oʻzgartira olishdan iboratdir. Fikrning tezligi, asosan, shunday hollarda kerak boʻladiki, baʼzan kishida biror qarorni juda qisqa muddat ichida qabul qilish talab qilinadi. Har qanday tafakkurning eng muhim belgisi ayrim individual xususiyatlardan qatʼiy nazar muhim tomonlarni ajratib, mustaqil ravishda tabora yangi umumlash-tirishlarga kela bilishdan iboratdir.

7. Analiz va sintez, umuman, tafakkur faoliyati boshqa har qanday faoliyat kabi hamma vaqt shaxsning qandaydir ehtiyojlariga asoslanadi. Psixologiyada tadqiqot qilinayotgan tafakkur motivlari ikki turli boʻladi:

1. Oʻziga xos bilish motivlari.

2. Oʻziga xos boʻlmagan motivlar

Birinchi holda tafakkur faoliyatiga undovchi va uni harakatga keltiruvchi kuchlar bilish ehtiyojlari namoyon boʻladigan qiziqish va motivlar. Ikkinchi holda tafakkur sof bilish bilan bogʻliq boʻlgan

qiziqishlar ta'sirida emas, balki ozmi-ko'pmi tashqi sabablar ta'sirida boshlanadi. Kishi u yoki bu ehtiyojlar ta'siri bilan fikr yurita boshlaydi va uning fikr yuritish faoliyati davomida tobora chuqur hamda kuchli bilish ehtiyojlari paydo bo'ladi va taraqqiy etadi.

Mustaqil fikrlash shaxsning shunday qobiliyatiki, u tufayli odam narsa va hodisalar xususida o'z qarashi va yechimlariga ega bo'ladi. Mustaqil fikr insonning narsa va hodisalar, jamiyatda ro'y berayotgan hodisalarning mohiyati xususida o'z qarashlari bo'lishini taqozo etadi, uning bilish va anglash imkoniyatlari chegarasini kengaytiradi. Tafakkur reproduktiv va ijodiy bo'lishi mumkin.

Reproduktiv tafakkur — bu standart tafakkur bo'lib, unda qayta mashqlar asosida egallangan usullardan masalani yechishda foydalaniladi.

Ijodiy tafakkur — yangilikni ochish bilan bog'liq. Tafakkur turlari ta'lim xarakteriga bog'liqdir.

Insonlar borliqni anglab, unda yuz berayotgan narsalarni qabul qilibgina qolmay, uni o'zgartirishga ham harakat qiladi. Borliqni amaliyotda o'zgartira olishni bilish bilan birga xayolni ham o'zgartira bilish lozim.

Xayol ong faoliyati bo'lib, mavjud tasavvurlar orqali yangi, hayotda mavjud bo'lmagan obrazlar, obyektlarni yaratishdir. Xayolning funksiyasi o'tgan tajriba natijalarini qayta ishlashdir. Hech narsasiz xayol mavjud bo'lishi va yaratilishi mumkin emas. Ushbu tasavvurlar xotiradan farq qiladi va xayol tasavvurlari deb ataladi. Xayol yoki fantaziya, tafakkur kabi, yuksak bilish jarayonlari qatoriga kirib, kishining o'ziga xos insoniy xarakterga ega bo'lgan faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Mehnatning tayyor natijasini xayolga keltirmay turib, ishga kirishib bo'lmaydi. Istalgan mehnat jarayoni xayolni o'z ichiga qamrab oladi. Xayol inson ijodiy faoliyatining zarur elementi bo'lib, mehnatning oxirgi va oraliq mahsulotlarida o'z ifodasini topadi, shuningdek, muammoli vaziyat noaniqlik ko'rsatgan hollarda xulq-atvor programmasini tuzishni ta'minlaydi. Xayolning psixik jarayon sifatidagi birinchi va muhim vazifasi shundan iboratki, u mehnatni boshlamasdan oldin uning natijasini tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Binobarin, xayol odamga faoliyat jarayonida mehnat mahsulotlarining oxirgi yoki oraliq psixik modellarini hosil qilish yo'li bilan yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Bu esa, mehnat mahsulotlarining narsalar sifatida gavdalinishiga yordam beradi. Xayolning qimmatini shundan iboratki, u

hatto tafakkur uchun kerak bo'lgan to'la va zarur bilimlar bo'lmagan joyda ham biror qarorga kelish hamda muammoli vaziyatdan chiqish imkonini beradi.

Demak, biz ilgari idrok qilmagan predmet va hodisalarni yaratishdan iborat bo'lgan psixik jarayon xayol deb ataladi.

Xayolni, ko'pincha, fantaziya deyiladi, holbuki, ba'zan «fantaziya» degan so'z bilan haqiqiy hayot kam aloqador bo'lgan tushunchadir. Xayolning boyligi idrok qilish ko'nikmasiga, predmetlar va hodisalar obrazlarini kuzatish va xotirada saqlab qolishga bog'liq bo'lib, ular keyinchalik, qayta ishlab chiqiladi. Bu jarayonda tafakkur muhim rol o'ynaydi. Tafakkur fantaziya natijalariga tuzatish kiritadi. Uni tanqidiy baholaydi. His-tuyg'ular ham xayolga ta'sir ko'rsatadi, ular ko'p jihatdan xayolga bog'liq bo'ladi. Nihoyat, kishining xayoli bilan yaratilgan ijodiy niyatlarini amalga oshirish uchun iroda zarur bo'ladi.

Xayolning nerv fiziologik asoslari inson ongidagi ilgari mavjud bo'lgan bog'liqliklarni vaqt bog'liqliklari asosida qayta ishlash va yangi birikmalarini yaratishdir.

Hayot timsollarining paydo bo'lishi kishi miyasi faoliyatining natijasidir. Xayol boshqa hamma psixik jarayonlar kabi katta yarim sharlar po'stloq qismining funksiyasi hisoblanadi. Xayol qiladigan kishida miya hujayralari yangicha bog'lanadi. Xayolning fiziologik mexanizmi faqat miya po'stlog'i bilan emas balki, miyaning chuqurroq qismlari bilan bog'liq. So'nggi o'tkazilgan tadqiqotlar buning to'g'riligini isbotladi.

Fantaziya timsollarining tarkib topishi va ularni faoliyat jarayonlariga qo'shishga miya yarim sharlari po'stlog'i bilan birga qatnashuvchi miyaning ana shunday chuqur qismlari gipotalamlimbik (uning qadimgi po'stloq va po'stloq osti qismlari bilan bog'lanishi miya yarim sharlariga chiqaverishda oldingi qismi atrofida «limb» yoki chegara hosil bo'ladi) sistemadir. Tajribalardan shu narsa aniqlangan, gipotalam — limbik sistema zararlanganda, kishi psixikasida o'ziga xos buzilish sodir bo'ladi: odamning xatti-harakatlari go'yo ma'lum programma bilan boshqarilayotgan va bir-biri bilan bog'lanmagan, alohida-alohida, shu bilan birga, o'z-o'ziga yetarli darajada murakkab va bir butun harakatlardan iboratdek tasavvur tug'iladi. Psixik faoliyatning ayrim buzilishlari ham o'zining kelib chiqishi jihatidan haddan tashqari ta'sirlanuvchan va tetik xayolga bog'liqdir. Shunday hollar ma'lumki, shifokorning ehtiyotsizlik bilan aytgan gapi ta'sirida davolanishga kelgan kishi

og'ir kasallik bilan og'rib qolgan bo'lsam kerak deb xayolidan o'tkazadi va unda bu kasallikning tegishli alomatlari rivojlana boshlaydi. Yatrogen deb ataladigan kasalliklar yuzaga keladi. Ijodiy xayol obrazlarni (albatta ilgari idroklar asosida) mustaqil ravishda yaratishdan iboratdir. Bu xayol kishining ijodiy faoliyati bilan bog'langan. Xayolning bu turi esga tushiradigan xayoldan murakkabroqdir. Har bir yangi original narsalar o'ylab yaratish bilan bog'liq bo'lgan. Har qanday kishining faoliyatini ijodiy xayolsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Xayolning fiziologik asosi miyaning katta yarim sharlar po'stlog'ida ilgari hosil bo'lgan muvaqqat bog'lanishlar o'rtasida yangi birikmalarning paydo bo'lishidir. Avvalgi bog'lanishlarning tiklanishi bu xotira jarayonlaridir. Xayolning ishlashi uchun bu bog'lanishlarning miya po'stlog'ida hali mavjud bo'lmagan, lekin u yerda bor bo'lgan qo'zg'alishlarning qoldiqlaridan tashkil topadigan birikmaning yangi sistemalari vujudga kelishi zarur. Xayol ikkala signal sistemasining faoliyati bilan mustahkam bog'langan. Agar kishi tegishli sezgilar, idroklarga ega bo'lgan atrofdagi voqelikning dastlabki signallarini oldini olgan taqdirdagina unda narsa va hodisalar to'g'risida obrazlar, tasavvurlar hosil bo'lishi mumkin. Og'zaki va yozma nutq ikkinchi signal sistemasi ham xayol uchun ko'p material beradi. Xayol shaxsning irodaviy sifatleri bilan uning foydasi yoki zarari ko'p jihatdan xayol surish jarayonlari kishining ongi tomonidan qanchalik nazorat qilinishiga bog'liq bo'ladi.

Boshqa psixologik jarayonlar singari xayol ham ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'ladi. Ixtiyoriy xayol qandaydir ijodiy mehnat bilan band bo'lgan kishi o'z xayolini ishlashga majbur qilganda ro'y beradi. Bu hol badiiy asarlar yaratish jarayonida, ixtirochi, konstruktorning faoliyatida va hatto qilayotgan narsani o'ylab ko'rish va yaxshi tasavvur qilish zarur bo'lgan oddiy ishda ham yuz beradi. Ixtiyorsiz xayol kishining oldida hech qanday vazifa turmagan vaqtda, lekin u beixtiyor ravishda orzu qilib, xayol sura boshlagan paytda bo'ladi. Ba'zan bu jarayonlar shirin orzu xarakteriga ega bo'ladi va ongning to'liq nazorati ostida tarkib topmaydi. Xayolning ixtiyorsiz faoliyatiga tush ko'rish ham kiradi.

Tushlar — uyquda yuzaga keladigan ixtiyorsiz obrazlar bo'lib, ular tez unutilishi yoki uzoq muddatga saqlanishi mumkin.

Orzu — inson ongidagi real va noreal tasavvurlar bilan bog'liq.

Aktiv xayol — insonning hayotiy rejalarini, xohish-istaklarini amalga oshirishda o'z aksini topadi. Masalan, yangi avtomobil

yaratish, GES qurilishi rejasini tuzish shularga misoldir. Repro- duktiv xayolda aniq real vazifani amalga oshirish maqsad qilib qo'yiladi. Unda fantaziya elementlari mavjud bo'ladi.

Produktiv (ijodiy) xayol — bizning tajribamizda mavjud bo'lmagan obraz va obyektlarni yaratish bilan bog'liq bo'lgan xayol turi. Masalan, ixtirochi, yozuvchi yangi narsa yaratadi.

Ijodiy xayol — san'atning barcha turlarida ifodalanadi va aks etadi.

Tasavvur xayol — hozir yoki o'tmishda aslida bo'lgan bo'lsa-da, lekin bizning tajribamizda hali uchramagan va biz idrok qilmagan narsa va hodisalar to'g'risida tasavvur va obrazlar yaratishdan iborat bo'lgan xayol turi.

Xayol jarayoni natijasida xayol obrazlari yuzaga keladi. Ular ertak, ilmiy fantastik, mistik bo'lishi mumkin. Badiiy obraz yaratilish jarayoni ma'lum texnologiyaga ega bo'lib, avval obrazga asos solinadi, keyin uning ustida analitik ish olib boriladi, so'ng g'oya amalga oshiriladi.

Ijodiy xayolda ruhlanish, ilhomning roli juda katta bo'lib, u psixik va nerv qo'zg'alishi, diqqatni maksimal to'plash, irodaga zo'r berish, fikr aniqligi, xotira tezligi bilan ifodalanadi. Real xayol tez amalga oshadi. Real bo'lmagan xayol hayotda o'z aksini topmaydigan, mantiqsiz, ma'nosiz obrazlar hisoblanadi. Obrazlarning mustaqilligi va originalligiga qarab esga tushiradigan xayol bo'ladi. Esga tushiradigan xayol boshqalar tomonidan bajarilgan tasvirlashlar yoki aks ettirishlar asosida paydo bo'ladi. Biz kitob o'qir ekanmiz, tabiat manzarasini tasavvur qilamiz, avtor tasavvur qilayotgan kishilarni fikran ko'ramiz. Esga tushiradigan xayol hayotda, mehnatda va o'quv ishlarida zarurdir.

Xayol insonning barcha faoliyat turlarida (o'yin, o'qish, mehnat) muhim ahamiyatga ega.

Xayolning o'ziga xos faoliyati xotira tasavvurlarining tahlil va sintezida namoyon bo'ladi. Xayolning jarayonlariga agglutinatsiya, aksentirlash, sxematizatsiya, tipiklashtirish kiradi.

Agglutinatsiya — bir necha predmetlarning qismlarini alohida bir yagona obrazda birlashtirish (yopishtirish) dir (Suvpari — boshi, tanasi — ayol, dumi — baliq, sochi — suv o'tlari).

Xayolning murakkab xususiyatlari adabiy obrazlarni yaratishda aks etadi. Xayol jarayonida xotira tasavvurlari kattalash-tirish yoki kichiklashtirishda, predmet qismlarini ko'paytirishda ifodalanishi mumkin.

Aksentirlashtirish — u yoki bu xususiyatlarga urg‘u berish orqali yangi obrazlarni yaratish.

Sxemalashtirish — biror bir obrazlarni tasvirlashda umumiy bosh xususiyatlarga to‘xtalish.

Tipiklashtirish — bir xilda qaytariluvchi faktlarning konkret obrazda namoyon bo‘lishi.

Xayolning xususiyatlari shaxsning ma’naviy qiyofasi to‘g‘ri-sida hukm chiqarish uchun ham ma’lum darajada imkon beradi. Faktlar, hodisalar va boshqalarni ko‘rsatishni oshirib yuborish yoki kamaytirishga moyillik, ko‘pincha, xayol ustidan nazorat yo‘qligi tufayli ro‘y beradi. Bu sifat ayrim bolalarda mavjud bo‘lib, ular yolg‘on gapirganlarida ba‘zan haqiqiy narsa bilan xayoldagi narsani aralashtirib yuboradilar. Lekin to‘g‘ri berilgan tarbiya tufayli bu kamchilik yo‘qoladi.

Badiiy adabiyotni o‘qish — xayolni rivojlantirishning eng yaxshi maktabidir, u xayolni tarbiyalashning kuchli vositasi ham. Xayol buyuk qadriyatdir.

Ushbu xususiyatni yosh avlodda rivojlantirish pedagogik amaliyotning muhim vazifasidir. O‘zingizdagi ijodiy tafakkurning rivojlanganlik darajasini aniqlang va buning uchun quyidagi mashqlarni bajaring:

a) tasavvur qilingki, sizda dinometri 30 mm bo‘lgan yog‘och shar bor. Shu predmet vositasida imkoni boricha ko‘p predmetlarni qog‘ozga chizing va ularning nomlarini ham yozib chiqing. 5 minut mobaynida nechta predmetni tasavvur qila oldingiz? O‘z rasmlaringizni o‘rtoqlaringizniki bilan solishtiring. Har bir original predmet uchun o‘zingizga ikki bal, o‘rtoqlaringizniki bilan bir xillariga bir ball qo‘ying. Agar sizdagi predmet nihoyatda original va noyob deb topilsa, 4 ball olasiz;

b) 5 minut ichida oddiy qalamdan qanday maqsadlarda foydalanish mumkinligini topib, yozing. Javoblaringiz kulgili ham bo‘lishi mumkin, masalan, xamir yoyish uchun o‘qlog‘i, lekin «qog‘ozga chizish quroli» yoki «devorga rasm chizish quroli» desangiz, ikkala javob bir xil hisoblanadi. Xuddi shu usulda sutdan bo‘shagan paketni nima qilish mumkinligini toping. Javoblarni boshqalarniki bilan solishtiring: har bir yangi topilma — 1 ball, original, noyob topilma — 2 ball;

d) 20 minut davomida quyidagi berilgan uchta so‘zlardan imkoni boricha ko‘proq jumlar tuzishga harakat qiling: shamol, suv, velosiped, mashina, kino, gilos, olma, yong‘in, hayrat. Har

bir jumla yoki gap ikki balldan baholanadi agar gap juda noyob, o'ziga xos bo'lsa, ikki ball qo'shing. Hamma to'plangan ballarni jamlab, guruhdagi o'z reytingingizni aniqlang. Demak, qanday xulosalar chiqarish mumkin?

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Tafakkur haqida tushuncha bering.
2. Tafakkur jarayonlari va turlarini aytib bering.
3. Fikr yuritishning qanday formalari mavjud?
4. Nazariy va amaliy tafakkur xususiyatlari qanday?
5. Tafakkur bilan nutqning bog'liqligini ko'rsatib bering.
6. Tafakkurning qanday individual xususiyatlari mavjud?
7. Mustaqil fikrlash deganda nimani tushunasiz?
8. Xayol haqida tushuncha bering.
9. Xayolni boshqa bilish jarayonlari bilan taqqoslang.
10. Xayolning turlari haqida ma'lumot bering.
11. Xayolning fiziologik mexanizmlari nimalardan iborat?
12. Insonning ijodiy faoliyatida xayolning roli qanday?

2.10. Temperament va xarakter

Shaxsning individual xususiyatlari haqida gap ketganda, ularning tug'ma, biologik xususiyatlariga alohida e'tibor beriladi. Chunki aslida, bir tomondan, shaxs ijtimoiy mavjudot bo'lsa, ikkinchi tomondan, biologik yaxlitlik, tug'ma sifatlarni o'z ichiga olgan substrat individ hamdir. Temperament va layoqatlar individning dinamik-o'zgaruvchan psixik faoliyati jarayonini ta'minlovchi sifatlarini o'z ichiga oladi. Bu sifatlarning ahamiyati shundaki, ular shaxsda keyin ontogenetik taraqqiyot jarayonida shakllanadigan boshqa xususiyatlarga asos bo'ladi. Odam temperamentiga aloqador sifatlarning o'ziga xosligi shundaki, ular odam bir faoliyat turidan ikkinchisiga, bir emotsional holatdan boshqasiga, bir malakalarni boshqasi bilan almashtirgan paytlarda reaksiyalarning egiluvchan va dinamikligini ta'minlaydi va shu nuqtayi nazardan qaraganda temperament — shaxs faoliyati va xulqining dinamik (o'zgaruvchan) va emotsional-hissiy tomonlarini xarakterlovchi individual xususiyatlar majmuyidir.

Temperament — (yunoncha temperamentum — sifatlarning munosabatlarini aralash tiraman) inson psixik faoliyatining dinamik xususiyatlari, jumladan tempning tezligi, ritmi, intensivligi jihatidagi xarakteristikasi.

Temperament psixikaning shunday individual sifatiki, ular psixik faoliyatning oqimini ifodalaydilar. Psixologik jihatdan temperament emotsional qo'zg'aluvchanlikdagi tezligi, kuchi va barqarorligida namoyon bo'ladi. Ular turli mazmunda vaziyatga qaramay, nisbatan o'zgaras, doimiy bo'lib, ular temperament turini ifodalovchi motiv va faoliyat maqsadlarida mavjud.

Yuqorida aytilganlardan shu narsa ayon bo'ladiki, emotsional quzg'aluvchanlik turli odamlarda qo'zg'alish kuchi, tezligi va barqarorligiga ko'ra turlicha bo'ladi. Shunday odamlar borki, ularda qo'zg'alish tez yuzaga keladi, kuchli va barqaror bo'ladi va unga teskari qo'zg'aluvchanlikka ega bo'lgan kishilar ham bor. Bu holatlar, ayniqsa, his-tuyg'ular yuzaga kelayotgan ixtiyorsiz holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Tashqi jihatdan qo'zg'aluvchanlik yuz tuzilishi, mimika, pantomimika, turli xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Bu holatlar diqqat, iroda, nutq tezligida ham o'z ifodasini topadi.

Temperament inson psixikasining individual xususiyatlaridan biri bo'lib, inson psixik faoliyatining o'tishini, ya'ni dinamikasini belgilab beradi. Ammo psixik faoliyat dinamikasi faqat temperamentga bog'liq bo'lmay, psixik faoliyat dinamikasi, shuning bilan birga, motivlarga va psixik holatlarga ham bog'liqdir. Temperamentning xususiyatlari deganda bir inson psixik faoliyati dinamikasining bog'lovchi psixikasining barqaror individual xususiyatlarini tushunamiz. Bu xususiyatlar turli mazmundagi faoliyatlar, motivlar va maqsadlarga nisbatan o'zgaraydi hamda temperament tipining xarakterlovchi strukturasi hosil qiladi. Demak, psixikaning individual jihatdan o'ziga xos, tabiiy jihatdan shartlashgan dinamik ko'rinishlari majmuyi kishining temperamenti deb ataladi.

Temperament haqida ta'limot ilk bora yunon tabibi Gippokrat (eramizdan avvalgi 460—356-yillar) tomonidan yaratilgan bo'lib, uning ta'limotiga asosan «temperament» tushunchasi paydo bo'lgan va temperament turlarining nomlari saqlanib qolgan. Bu qadimiy gumoral nazariya bo'lib, u temperament xususiyatlarini organizmdagi suyuqliklar bilan bog'laydi. Gippokratning fikricha, inson organizmida to'rt xil suyuqlik mavjud:

1. Safro (yunon. — chole).
2. Qon (lotin. — sanguis).
3. Qora o't (yunon. — melaine chole).
4. Shilimshiq (yunon. — phlagma).

Har bir suyuqlik o'z xususiyati va o'rniga ega. Safroning xususiyati — quruqlik. Uning o'rnini organizmda quruqlikni saqlash.

Qonning xususiyati — namlik. U organizmni isitadi. Shilimshiqning xususiyati — sovuqlik. U organizmni sovutishga xizmat qiladi. Gippokratning fikricha, inson organizmida mana shu to'rttadan bitta suyuqlik ustuvorlik qiladi. Ushbu suyuqliklar munosabati yunon terminologiyasida «krasis» deb atalib (aralashma, qorishma), tarjima qilinganda «temperament» tushunchasi yuzaga keladi. Gippokrat nazariyasi asosida 4 ta temperament turlari haqidagi ta'limot yuzaga keldi va temperament turlariga asos solindi. Unga asosan sangvinik (sangvinik — lotin. sanguis — qon), xolerik (yunon. — chole — safro, sariq o't), melanxolik (yunon. — melaina chole — qora o't), flegmatik (yunon. — phlogma — shilimshiq) turlari yuzaga keldi.

Temperamentga taalluqli Abu Ali ibn Sino qarashlari (980—1037) ham juda qiziqarlidir. U temperamentga tabiiy va psixologik tushuntirish beradi. Ibn Sino ta'limoti Gippokrat ta'limotiga asoslangan bo'lib, uning fikricha, temperament bir-biriga qarama-qarshi sifatlar munosabatida yuzaga keladigan xususiyatdir. Ulardan birining ustuvorligi temperament turini yuzaga keltirib, bunda organizmdagi 4 ta suyuqlikdan biri ustuvor bo'ladi. Abu Ali ibn Sinoning fikrlari temperament haqidagi ta'limot tarixida o'ziga xos ahamiyatga ega. Ilk bora temperament xususiyatlarining psixologik tavsifi nemis faylasufi I. Kant («Antropologiya», 1789) tomonidan berilgan bo'lib, uning fikrlari, g'oyalarida temperament va xarakter, sifatlarning aralashib ketishi namoyon bo'ladi.

Morfologik nazariyaga amerikalik psixolog U. Sheldonning konsepsiyasini kiritish mumkin bo'lib, unga asosan temperament uch somatik konstitutsiyaga ega: endomorf, mezomorf va ektomorf.

Endomorf — yumshoqlik, dumaloq tana tuzilishi, sust rivojlangan suyak va muskul tizimi, sevgi va komfortga intiluvchanlik, his-tuyg'uga beriluvchanlik, sekin harakatlanish. U vistserotonik temperament.

Mezomorf — qat'iylik, beshafqatlik, qat'iy xatti-harakatlar, suyak, muskul tizimining yaxshi rivojlanganligi, kuchlilik, atletik tana tuzilishi, sevgi ishtiyoqlariga qiziqish, tavakkalchilik, faollik, qo'rqmaslik va agressivlik. Bu somatotonik temperamentdir.

Ektomorf — noziklik, muskulning namoyon bo'lmasligi, kam kirishimlilik, odamovilik, yolg'izlikka intilish, yuqori reaktivlik. Bu serobrotonik temperamentdir.

I.T. Pavlovning ta'rificha: «Temperament har bir odamning, ayrim hayvonning umumiy nerv sistemasining, har bir individ-

ning butun faoliyatiga muayyan qiyofa beruvchi asosiy xarakteristikasidir». I.T. Pavlovning nerv sistemasi turlari to'g'risidagi ta'limoti yoki shuning o'zi kabi oliy nerv faoliyatining turlari-temperamentlari tabiiy-ilmii o'rganish tarixida chinakamiga keskin o'zgarish yasadi. U bu ta'limotni fiziologik ilmiy faoliyatning yakunlovchi bosqichida ifodalab bergan edi. I.T. Pavlov laboratoriyalarida bosh miya katta yarim sharlari qobig'ining individualligi bilan bog'liq bo'lgan nerv faoliyatidagi farqlarni kashf etadi. Itlarda tajriba o'tkazadi. Itning xatti-harakatidagi o'ziga xosligi (masalan: ziyraklik va sustlik, dadillik yoki qo'rqqoqlik), asosiy nerv jarayonlarining ayrim xususiyatlari — hayajonlanish va tormozlanishga qonuniy ravishda mos kelganligi kuzatiladi. Ko'p yillik tadqiqotlar natijasida o'rganiladigan individual farqlar asosida quyidagi nerv sistemasining uchta asosiy xususiyatlarini nerv sistemasining kuchi, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari o'rtasidagi muvozanatli hamda nerv jarayonlarining harakatchanlik xususiyatlari aniqlangan.

I.P. Pavlov oliy nerv faoliyatining ana shu uchta xususiyati asosida nerv sistemasining to'rtta tipi bo'linishini mufassal tavsiflab bergan. Olim kuchli va kuchsiz tiplarning bir-biridan farq qilishini asoslab berishga alohida e'tibor qaratgan. Oliy nerv faoliyatining tiplari: nerv protsesslari (qo'zg'alish va tormozlanish)ning muayyan individning oliy nerv faoliyatini sifatlaydigan muhim va barqaror xususiyatlari yig'indisidir.

Temperament turlarining batafsil psixologik tavsifi quyidagilardan iborat:

Sangvinik (lotincha — qon qismlarining zaruriy nisbati) — bu tipdagi temperamentga ega bo'lgan shaxslar serharakat tez ta'sirlanuvchi bo'ladilar, biror faoliyatga g'ayrat bilan kirishib, tez so'vib ketishlari ham mumkin. Yuqori reaktivlik, besabab xaxolab kulishi mumkin, arzimagan narsadan qattiq jahli chiqishi kuzatiladi. Uning yuzidan kayfiyatini bilish mumkin. Diqqatni tez to'playdi. Juda harakatchan, faol, uzoq vaqt ishlab charchamasligi mumkin, tartibli, intizomli. Odamlar bilan juda tez kirishadi, holatga tez ko'nikadi.

Xolerik (lotincha — chole — o't) — bu temperamentga ega bo'lgan kishi g'ayratli, ishga ehtiros bilan kirishadigan, lekin muvozanatsiz, tez jahli chiqadigan odam. Pastsenzitiv, yuqori reaktiv va faol. Reaktivlik faollikdan yuqori. Shuning uchun kutilmaganda portillovchan, qiziqqon, betoqat. Tez qo'zg'aluvchan, u imo-ishoralarda ifodalanadi. Qat'iy, tez insonlarga nisbatan intiluvchan.

Flegmatik (yunoncha. — felagma — bog‘lam) — temperamentga ega bo‘lgan, osoyishta, o‘zini og‘ir-vazmin tutadi, barqaror kayfiyatli odam. Past sezitiv, kuchsiz emotsional, kuldirish, jahlini chiqarish, xafa qilish qiyin. Harakatlari ifodasiz, ishchan, faollik reaktivlikdan ustuvor. Bir ishdan ikkinchi ishga sekin o‘tadi. Yangi ish, vaziyatga sekin ko‘nikadi.

Melanxolik (yunon. — melaine chole) — bu temperamentli shaxs kayfiyatli, harakatlari sekin, chuqur hamda barqaror emotsional qo‘zg‘aluvchanlik va kam nerv psixik aktivlik bilan xarakterlanadi. Melanxolik temperamentlik kam harakat, kam gap, hissiyoti chuqur va barqaror bo‘lsa ham, hissiyoti jihatidan yaxshi ifodalanadigan kishilar bo‘ladi. Biroq ular boshlagan ishlarini oxirigacha yetkazadilar. Rigid, introvert.

Xarakter — shaxsning barqaror individual xususiyatlari yig‘indisi bo‘lib, u faoliyat va muloqotda yuzaga keladi hamda shaxsga xos xulq-atvor usullarini namoyon qiladi.

«Xarakter» fanga ilk bora qadimiy yunon olimi va faylasuf Teofrast tomonidan kiritilgan.

«Xarakter» so‘zi yunoncha «chiziq», «belgi», «sifat», «xususiyat» ma‘nosini bildiradi. Bu so‘z «xarosso» fe‘lidan kelib chiqib, uni ushlamoq, chizmoq, qirqmoq deb tarjima qilish mumkin.

Hayotiy tajriba asosida xarakter tushunchasini ikki mazmunda tushunish mumkin: keng yoki umumiy, maxsus, o‘ziga xos ma‘noda.

Keng yoki umumiy ma‘noda inson xarakteri deganda uning xatti-harakati va xulq-atvoriga ta‘sir etuvchi individual yaqqol namoyon bo‘lgan va sifat jihatidan turlicha bo‘lgan belgilar tushuniladi.

Tor yoki maxsus ma‘noda olingan xarakter deganda shaxsning psixik tuzilishi nazarda tutilib, u insonning irodasi va yo‘nalganligida namoyon bo‘ladi. Yo‘nalganlik bu insonning xarakterli xususiyati bo‘lib, faoliyatiga ta‘sir etadi. Borliqqa nisbatan tanlangan munosabatida aks etadi. O‘ziga xos psixologik tuzilishini inson harakatda tarkib toptiradi va bu esa, o‘z o‘rnida, insondan irodali kuch talab etadi. Kishi jamiyatda yashab, biror faoliyat bilan shug‘ullanar ekan, o‘zini shaxs sifatida namoyon qiladi, odamlarga o‘z ishiga va o‘ziga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Ba‘zan ana shu munosabatning ko‘rinishlari odamdan tashqari, tasodifiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, maktab o‘quvchisining o‘z o‘rtoqlari uchun kutilmaganda arzimagan narsadan jahli chiqib ketishi mumkin. O‘rtoqlari uning bu xulqidan taajjublanadilar, chunki, odatda, bu bola yuvvosh, xushmuomula edi. Uning uchun

qo‘pollik tipik hodisa emas. Boshqa bir o‘quvchi, ko‘pincha, atrofdagilar bilan keskin va qo‘pol muomulada bo‘ladi. Bu narsa uning uchun tipik bo‘lgan barqaror, bir necha marta takrorlangan xususiyat bo‘lib, bu uni shaxs sifatida xarakterlab beradi. Shuning uchun ham mazkur xususiyatni uning xarakteriga xos bo‘lgan xususiyatlaridan biri deb hisoblash mumkin. Jamiyat a‘zosi bo‘lgan kishining voqelikka bo‘lgan munosabatida vujudga keladigan va uning xulq-atvori hamda xatti-harakatlarida ta’sir qoldiradigan, muhim barqaror psixik xususiyatlarning majmuyi — xarakter deyiladi. Ba’zan xarakter, iroda degan so‘z qat’iylikni, ya’ni boshqa kishilar bilan muomalada keskinlikni ifodalaydi. Aksincha, irodasi zaif kishini xarkersiz kishi deb hisoblanadi. Lekin bu fikr noto‘g‘ridir. Xarkersiz kishi deb hisoblangan kishida ham xarakter bor. Xarakterdagi ko‘p narsa kishining dunyoqarashiga, uning e’tiqodiga va ideallariga, ijtimoiy ahvoriga, atrofdagi muhitning ta’siriga bog‘liq bo‘ladi. Xarakter shaxsning individual xususiyatidir. Inson xakteri tizimini o‘rganishning asosiy vazifasi xarakter xususiyatlarini ma’lum tizimga solish va ular orasidagi bog‘liqlikni aniqlashdir.

Xarakter xususiyatlari — bu shunday individual xususiyatlarki, ular insonning ma’lum vaziyatdagi xulq-atvorini ko‘ra olish, aniqlashga yordam beradi. Insonni borliqqa bo‘lgan hayotiy munosabatiga ko‘ra uning xarakter yo‘nalganligini quyidagicha guruhlash mumkin:

a) jamiyatga bo‘lgan munosabat, atrof-olamdagi narsa va hodisalarga munosabat (vatanparvarlik, tilga, kelajakka, ona tuproqqa muhabbat);

b) boshqa odamlarga munosabat;

d) o‘z-o‘ziga munosabat.

Insonning o‘ziga bo‘lgan munosabati xarakteristikasida mustaqillik va taqlidchanlik muhim rol o‘ynaydi.

Mustaqillik — insonning ijobiy xarakter sifati bo‘lib, u mas’uliyatlilik, o‘z-o‘ziga ishonch bilan bog‘liqdir. Bu sifat ijodiy ish bilan mashg‘ul bo‘lgan kishilarga xosdir.

Taqlidchanlik — o‘z fikri va xatti-harakatlarini boshqa kishilar xatti-harakatlaridan ko‘chirishga moyillik.

Insonning irodaviy xarakter sifatlari — bu faollik, qat’iyatlilik, jasurlik, originallik, tashabbuskorlik, o‘z-o‘ziga ishonch, tartib-intizomlilik, chidamlilik va h.k. Xarakterlari bir xil bo‘lgan ikki kishini topib bo‘lmaydi, lekin ayrim kishining xarakteridagi ko‘p narsalar, bir guruh kishilar uchun tipik bo‘lishi mumkin. Kishi-

ning xarakterini tashkil etuvchi individual xususiyatlar irodaga, his-tuyg'ular va aqlga taalluqli. Inson shaxsining xakteri hamisha ko'p qirralidir. Unda alohida xususiyatlar yoki tomonlar ajratib ko'rsatiladi, lekin ular bir-biridan ajratilgan holda mavjud bo'lmaydi. Xarakterning strukturaligi uning ayrim xususiyatlari orasidagi qonuniy bog'liqliklarda namoyon bo'ladi. Agar kishi qo'rqoq bo'lsa, u tashabbuskorlik, qat'iylik va mustaqillik, fidokorlik va oliyhimmatlik kabi fazilatlariga ega bo'lmaydi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Temperament haqida tushuncha bering.
2. Temperament haqidagi nazariyalar haqida aytib bering.
3. Temperamentning qanday tiplari mavjud?
4. Nerv tizimi xususiyatlari va temperament orasidagi farq nimada?
5. Temperament turlariga misol keltiring (adabiyot, kinofilm, shaxsiy kuzatuv).
6. Turli temperament xususiyatiga ega bo'lgan kishilarning ish uslubi qanday bo'ladi?
7. Xarakter haqida tushuncha bering.
8. Xarakter qanday namoyon bo'ladi?
9. Odat nima?
10. Psixokorreksiyaning qanday izohlaysiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'grisida»gi Qonuni. — T.: 1997.
- Karimov I.A.* Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: «Sharq», 1997.
- Karimov I.A.* O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. — T.: «O'zbekiston», 1998.
- Karimov I. A.* Ma'naviy yuksalish yo'lida. — T.: «O'zbekiston», 1998 .
- Karimov I.A.* Sog'lom avlod — xalqimiz kelajagi. «Xalq so'zi» gazetasi, 1999-yil 8-dekabr.
- Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. — T.: 1997.
- Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlari. —T.: «Sharq», 2001.
- Pedagogika. A. Munavvarov tahriri ostida. — T.: «O'qituvchi», 1996.
- Tursunov I.Y., Nishonaliyev U.N.* Pedagogika kursi. — T.: «O'qituvchi», 1997.
- Пуаже Ж.* Ребёнок и его развитие. — М.: «Знание», 1984.
- Roziqov O. va boshq.* Didaktika. Darslik. — T.: «Fan», 1997.
- G'aybullayev N., Yodgorov R.* Pedagogika. Ma'ruzalar matni —T.: TDPU nashriyoti, 2000.
- Tursunov I., Nishonaliyev U.* Pedagogika kursi. — T.: «O'qituvchi», 1998.
- G'aybulloh as-Salom. Ezgulikka chog'lan, odamzod. — T.: «Sharq», 1997.
- Karimova V.* Psixologiya. — T.: «O'qituvchi», 2000.
- G'oziyev E.* Umumiy psixologiya. 1-kitob. — T.: «O'qituvchi», 2004.
- G'oziyev E.* Umumiy psixologiya. 2-kitob, — T.: «O'qituvchi», 2004.
- Davletshin M.G.* Umumiy psixologiya. — T.: TDPU nashriyoti, 2002.
- Petrovskiy A.V.* Umumiy psixologiya. — T.: «O'qituvchi», 1992.
- Davletshin M.G.* Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiyasi. — T.: TDPU nashriyoti, 1997.
- Umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. Gomezo tahririda. — T.: «Sharq», 1982.
- Nishonova Z.* Bolalar psixodiagnostikasi. — T.: TDPU nashriyoti, 1999.
- G'oziyev E.* Intellect psixologiyasi. — T.: «O'qituvchi», 1996.
- G'oziyev E.* Inson psixikasining rivojlanishi. — T.: «O'qituvchi», 1996.
- Pogov A.II.* Настоящая книга школьного психолога. — М.: «Знание», 2004.

MUNDARIJA

Soʻzboshi	3
-----------------	---

I-boʻlim. PEDAGOGIKA

1.1. Pedagogikaning predmeti, maqsad va vazifalari	5
1.2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Oʻqituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan oʻrni	12
1.3. Milliy istiqloq gʻoyasi, milliy mafkuraning pedagogik asoslari. Mutaxassislikka kirish	18
1.4. Shaxs kamoloti ijtimoiy biologik hodisa, pedagogik jarayon obyekti va subyekti sifatida	22
1.5. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni. Ijtimoiy tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mazmuni	26
1.6. Tarbiya qonuniyatlari, prinsplari va metodlari	33
1.7. Maʼnaviy-axloqiy tarbiya. Komil inson. Mustaqil fikrlashni tarbiyalash	39
1.8. Taʼlim jarayonining taʼlimiy, tarbiyaviy va rivojlantirish funktsiyalari	43
1.9. Taʼlim mazmuni. Davlat taʼlim standartlari. Oʻquv rejalari va vositalari	46
1.10. Taʼlim metodlari va vositalari	51

II-boʻlim. PSIXOLOGIYA ASOSLARI

2.1. Psixologiya fanining predmeti va uning amaliy vazifalari	59
2.2. Psixika va ongning taraqqiyoti	63
2.3. Faoliyatning psixologik tahlili	67
2.4. Motivatsiya va emotsiya psixologiyasi	72
2.5. Shaxs psixologiyasi	75
2.6. Muloqot psixologiyasi	79
2.7. Sezgi va idrok	85
2.8. Diqqat va xotira	90
2.9. Tafakkur va xayol	99
2.10. Temperament va xarakter	110
Foydalanilgan adabiyotlar	117

S.R. BAXADIROVA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA ASOSLARI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2016

Muharrir *L. Igamova*
Badiiy muharrir *M. Burxonov*
Texnik muharrir *F. Samadov*
Musahhah *T. Mirzayev*

Noshirlik litsenziyasi AI № 275, 15.07.2015-y.
2016-yil 12-yanvarda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60×90^{1/16}.
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 7,5.
Nashr tabog'i 6,5. 50 nusxa. Buyurtma № 51.

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

«PAPER MAX» xususiy korxonasida chop etildi.
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

B43 **S.R. BAXADIROVA. Pedagogika va psixologiya asoslari.** Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. T.: «ILM ZIYO», 2016. — 120 b.

UO'K: 371.132 (075)

KBK 88.8

ISBN 978-9943-16-271-6